

TA'LIM VAZIRLIGI
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqida

UDK-93/99. 993.990

RAJABOV RUSLAN BOZOROVICH

Jahon etnomadaniyatida Avstraliya va Okeaniya xalqlarining
tutgan o'rni

5A120302-TARIX (YO'NALISHLAR VA MAMLAKATLAR)

Magistr

akademik darajasini olish uchun yozilgan

dissertatsiya

Ilmiy rahbar:

t. f.n., dots. Bo'riyev O.

Mundarija:

Kirish	3
1.bob. Avstraliya aholisining etnik tarixi, an'anaviy xo'jaligi, moddiy va ma'naviy madaniyati.....	10
1. Avstraliya xalqlarining etnik tarixi	11
2. Aholining an'anaviy xo'jaligi.....	18
3. Moddiy va ma'naviy madaniyati hamda oila va oilaviy munosabatlari.....	28
I. bob.bo'yicha xulosa.....	39
II. bob. Okeaniya xalqlarining etnomadaniyati.....	40
1. Melaneziya aholisining etnik tarixi va an'anaviy xo'jaligi.....	44
2. Aholining moddiy va ma'naviy madaniyati	53
3. Yangi Gveniyaliklarning etnik tarixi, moddiy va ma'naviy madaniyati.....	56
II. bob. bo'yicha xulosa.....	59
III. bob. Polineziya va Mikroneziya xalqlarining etnomadaniyati.....	61
1. Polineziya va Yangi Zelandiya etnik tarixi va an'anaviy xo'jaligi.....	63
2. Axolining moddiy va ma'naviy madaniyati.....	71
3. Mikroneziya xalqlarining etnik tarixi, an'anaviy xo'jaligi, moddiy va ma'naviy madaniyati	76
III.bob bo'yicha xulosa.....	78
Xulosa	80
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	82
Ilova.....	83

Kirish

Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va dolzarbligi. Mustaqil O'zbekistonning ijtimoiy-gumanitar fanlari sohasi olimlari oldida jahon tarixini, jumladan, Vatanimiz tarixini haqqoniy va to'laqonli o'rganish masalasi dolzarb vazifa sifatida kun tartibiga qo'yildi. Bu haqda Prezidentimiz I.A. Karimovning mamlakatimizning yetakchi tarixchi olimlari bilan uchrashuvdagi, nutqi va ma'ruzalarida hamda davlat va hukumat miqyosida qabul qilingan qarorlarda ham o'z aksini topgan¹.

Yurtboshimiz I.A. Karimov e'tirof etganidek: „Ma'lumki, har qaysi xalq yoki millatning tafakkuri, turmush tarzi, ma'naviy qarashlari o'z-o'zidan, bo'sh joyda shakllanib qolmaydi. Ularning vujudga kelishi va rivojlanishida aniq tarixiy, tabiiy va ijtimoiy omillar asos bo'lishini hammamiz yaxshi bilamiz”².

Tarix fanining eng muhim qismlaridan bo'lgan etnologiya jahon xalqlarining kelib chiqishi, an'anaviy xo'jaligi, o'ziga xos moddiy va ma'naviy madaniyati, antropologik va lingvistik belgilari, marosimlari va maishiy turmush tarzlarini o'rganish jarayonida har bir etnosning jahon sivilizatsiyasida o'z o'rniga ega ekanligi haqidagi keng qamrovli ma'lumotlarni beradi³.

Etnografiya bo'yicha o'quv mashg'ulotlari yer yuzidagi ma'lum bir mintaqada yashovchi xalqlarning tabiiy- geografik joylashuvi, etnogenezi va etnik tarixi, antropologik (irqiy) va etnolingvistik (lisoniy) xususiyatlari, moddiy madaniyati, maishiy turmush tarzi, ijtimoiy hayoti va oila-nikoh munosabatlari, marosimlari va urf-odatlari va diniy e'tiqodlarini o'zida mujasamlashtiruvchi eng ustuvor masalalar tizimidan tarkib topgan.

Yer yuzida hattoki, ibtidoiy jamiyat darajasida turgan etnik tip-urug' qabilalaridan tortib, to katta kichik xalq va elatlargacha mavjud. Jahondagi mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jihatdan notekis rivojlanish natijasida ayrim xalq va elatlarning hali ham juda qoloq ibtidoiy tuzumda, ba'zilar esa o'rta

¹ I.A.Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. -T.: 1998.

² I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. -T.: Manaviyat, 2008. 7-bet.

asrlar davri madaniyati darajasida qolganligi ma'lum. Bunday elat va etnik guruhlar Avstraliya, Afrika, Markaziy Amerika va Osiyoning ba'zi yerlarida hozirgacha saqlanib qolgan. Ular juda kam bo'lsa-da, ammo ibtidoiy urug' qabilachilik tuzum qonun-qoidalari, urf-odat va marosimlari patriarxal turmush tarzi an'alariga haligacha amal qilib kelmoqdalar⁴.

Jumladan, dunyodagi beshinchi qit'a hisoblanadigan Avstraliya va Okeaniya o'ziga xos etnografik mintaqa hisoblanib, uning aholisining etnik tarkibi an'anaviy xo'jaligi, moddiy va ma'naviy madaniyati kabilar Yer kurrasining boshqa mintaqalaridan keskin farq qiladi. Mahalliy aholi-aborigenlar etnomadaniyati qoldiqlari hamon saqlanib qolgan. Mintaqa xalqlari jahon etnomadaniyatida o'z o'rniga ega. Shu boisdan mazkur mintaqa xalqlarining jahon etnomadaniyatida tutgan o'zni dissertatsiya mavzusi uchun asos qilib olindi.

Jahonda o'ziga xos etnografik makon hisoblangan Avstraliya va Okeaniya xalqlarining jahon etnomadaniyatida tutgan o'zni, aholisining etnogenezi va etnik tarixi, an'anaviy xo'jaligi hamda moddiy va ma'naviy madaniyatida sodir bo'lgan transformatsiyon o'zgarishlar, aholi hayotidagi inavatsiyon etnomadaniy jarayonlar etnologiya fanida yetarlicha o'rganilmagan.

Yangi tarix-etnologik manbalar, adabiyotlar va boshqa turli ma'lumotlar asosida Avstraliya va Okeaniya xalqlarining jahon etnomadaniyatida tutgan o'rnini xolisona yoritishni taqoza etmoqdaki, bu mazkur mavzuning nihoyatda dolzarb ekanligini ko'rsatadi.

Tadqiqot ob'ekti va predmedining belgilanishi.

XX asrning so'ngi choragidan boshlab fanning tadqiqot ob'ekti va metodlarida ham jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Endilikda etnologik yo'nalishda tadqiqot olib borayotgan mutaxassislar nafaqat zamonaviy industrlashgan millatlar va madaniyatlarni, balki arxaik turmush tarzi sohiblari bo'lgan xalqlarni etnomadaniyatini ham tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganishga jiddiy e'tibor qaratmoqdalar. Hozirgi davrda jahonda ko'plab kichik etnoslar etnomadaniyati ham tadqiqotchi olimlar diqqatini toboro o'ziga tortmoqda.

⁴ Jabborov I.M. Jahon etnologiya asoslari. -T.: 2005. 6-bet.

Jahondagi aksariyat mamlakatlar qatorida Avstraliya va Okeaniyadagi bir qator mayda va kichik orollardagi xalqlarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va moddiy-ma'naviy madaniyati, mintaqa aholisining jahon etnomadaniyatida tutgan o'rni hozirda tadqiqotchilarda katta qiziqish uyg'otmoqda. Shu boisdan mazkur dissertatsiyaning tadqiqot ob'ekti sifatida tanlandi. Maskur mintaqa xalqlarining jahon etnomadaniyatida tutgan o'rni dissertatsiya shaklida ilmiy tarzda yoritish tadqiqotimizning predmeti sifatida belgilandi.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari.

Ushbu magistrlik dissertatsiyasining asosiy maqsadi- jahon etnomadaniyatida Avstraliya va Okeaniya xalqlarining tutgan o'rni yangi tarix-etnografiya ma'lumotlari asosida dissertatsiya shaklida xolisona ilmiy yoritib berishdan iboratdir.

Mazkur maqsaddan quyidagi eng muhim vazifalar kelib chiqadi:

- Avstraliya aholisining etnik tarixi, an'anaviy xo'jaligi, moddiy va ma'naviy madaniyatini yoritish;
- Okeaniya xalqlari etnomadaniyatini bayon etish;
- Polineziya va Mikroneziya xalqlari etnomadaniyatini ochib berish;
- Jahon etnomadaniyatida Avstraliya va Okeaniya xalqlarining tutgan o'rni to'laqonli ilmiy tarzda yoritish.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari.

Dissertatsiyada jahon etnomadaniyatida Avstraliya va Okeaniya xalqlarining tutgan o'rni yoritish jarayonida Avstraliya aholisining etnik tarixi, an'anaviy xo'jaligi moddiy va ma'naviy madaniyati, Okeaniya, Polineziya, Mikroneziya, Melaneziya xalqlarining etnomadaniyati teran bayon etildi.

Tadqiqotning asosiy farazlari shundan iboratki, dissertatsiyaning asosiy masalalarini ilmiy tahlil qilishda o'rganilayotgan mintaqa o'ziga xos etnografik makon ekanligi, tub aholi boy tarix va etnomadaniyat sohibi bo'lganligi aniqlandi, chunki dunyoning boshqa hududlariga nisbatan o'rganiladigan mintaqaga qadimdan odamlar joylashgan hamda o'ziga xos boy etnomadaniy an'analar yaratishgan.

Mavzu bo'yicha qisqacha adabiyotlar tahlili.

Jahon etnologiyasida muhim o'rin tutgan Avstraliya va Okeaniya xalqlari haqida tarix-etnografiya ma'lumotlari juda ozchilikni tashkil qiladi. XX asrda mintaqa etnografiyasini o'rganish bo'yicha ma'lum tadqiqotlar olib borildi. Norvegiyalik olim Tur Xeyerdal o'tgan asr boshlarida Polineziya xalqlarining o'rganib, „Kon Tikida sayohat“⁵ nomli asar yaratdi. Shuningdek olim „Qadimgi odam va okean“⁶ nomli asarini 1982-yilda yozgan. Yevropalik olimlardan F.Rous 1981 yilda „Avstraliya aborigenlari“⁷ nomli kitobini yozgan. Tadqiqotchi G.Damm „Kanaka-janubiy dengiz odamlari“⁸ nomli kitobini yozgan. D. Rafsi „Oy va kamalak“⁹ (M., 1978), U. Chesling „Shimoliy Avstraliya ko'chmanchilari orasida“¹⁰ (M., 1961) kabi ilmiy asarlarini yaratishgan.

Avstraliya va Okeaniya xalqlarining etnografiyasini o'rganishda Rossiya olimlari samarali ishlashgan. XIX asr 70-yillarida mashhur rus sayyohi N.N.Mikluxo-Maklayning Avstraliya va Okeaniya xalqlari etnografiyasini o'rganishdagi ulkan hissasini alohida ta'kidlash joizdir. Olimning 160 dan ziyod asarlari bosilib chiqqan. Sayyoh Yangi Givniyadagi papuaslarni o'rganish uchun besh marta ekspeditsiya uyushtirgan va boy material to'plagan. Mashhur sayyohning XX asrning 50-yillarida besh tomligi bosilib chiqqan va 90-yillarda besh tomli saylanmasi qayta nashr etildi.

XX asrning 50-yillari oxirlarida „Jahon xalqlari“ turkumida „Avstraliya va Okeaniya xalqlari“ salmoqli monografiyasi nashr etilgan edi. Rus olimlaridan N.A.Butinov „Yangi Givniya papuaslari“¹¹ (M.,1968), K.V.Malaxovskiy „Solomonov orollari“¹² (M., 1978), P.I.Puchkov „Okeaniya aholisi“¹³ (M.,1967),

⁵ T.Xeyerdal. Kon Tikida sayohat. -T.: 1874.

⁶ T. Xeyerdal. Qadimgi odam va okean. -T.: 1981.

⁷ F.Rous. Avstraliya aborigenlari. -T.: 1981.

⁸ G.Damm. Kanaka-janubiy dengiz odamlari. -M.: 1964.

⁹ D.Rafsi. Oy va Kamalak.—M.: 1978.

¹⁰ U. Chesling. Shimoliy Avstraliya ko'chmanchilari orasida. —M.: 1961.

¹¹ N.A.Butinov. Yangi Givniya papuaslari.—M.: 1968.

¹² K.V.Malaxovskiy. Solomonov orollari. —M.: 1978.

¹³ P.I.Puchkov. Okeaniya aholisi. —M.: 1967.

„Melaneziya aholisining shakllanishi”¹⁴ (M.,1968) va „Avstraliyaning etnik taraqqiyoti”, (M.,1978) kabi olimlar tadqiqotlarida ma’lumotlar mavjud.

Avstraliya va Okeaniya aholisi etnografiyasi haqida o’zbek tilida asarlar juda kamchilikni tashkil qiladi. Jumladan, I.Jabborovning „Jahon xalqlari etnologiyasi” (T.,2005), „Jahon etnologiya asoslari”(T., 2008) darsliklari¹⁵, T.Salimovning „Avstraliya va Okeaniya xalqlari”¹⁶ o’quv-uslubiy qo’llanmasi (T.,2003), A.Ashirovning „Etnologiya” (T.,2007, 2014)¹⁷, o’quv qo’llanmalarida mintaqa etnografiyasiga oid ma’lumotlar keltirilgan. Shuningdek, dissertatsiyani yozishda B.Aminovning „Etnografiya olamiga sayohat”(T., 1969)¹⁸, risolasidan K.Gadoyev, S.Berdiyevaning „Jahongashta sayyoh olimlar”¹⁹ (T., 2012) kitobidan, hamda O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasining tegishli jiltlaridan hamda Internet matriallaridan foydalanildi. Mazkur manbalardagi ma’lumotlar qiyosiy tahlil qilindi, ilmiy yo’nalishga kiritilib, dissertatsiya yaratildi.

Tadqiqotda qo’llanilgan uslublarning qisqacha tavsifi.

Dissertatsiya mavzusiga oid turli manbalar, adabiyotlar va boshqa ma’lumotlarni **xolisona** ilmiy tahlil qilishda ularga **qiyosiy** va **tanqidiy** nuqtai nazardan yondashildi. Davr xususiyatlarini nazarda tutgan holda tarixiy-etnografik ma’lumotlar **tarixiylik**, **tadrijiylik** va **sivilizatsion** yondashuv usullari asosida umumlashtirildi va ilmiy tahlil etildi, hamda teran xulosalarga kelindi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati.

Dissertatsiyaning nazariy-uslubiy asoslarini ishlab chiqishda Prezident I.A. Karimov asarlari va maruzalari metodologik asos bo’lib xizmat qildi.

Mazkur tadqiqot natijalarining nazariy ahamiyati shuki, hozirgi paytda jahon etnologiyasi, jumladan, Avstraliya va Okeaniya xalqlari etnologiyasining ustuvor muamolari sohasida qizg’in bahslar olib borilmoqda. Xususan G’arb etnologiyasida Avstraliya etnologiya xalqlari qoloq, vahshiy, madaniyatsiz degan fikrlar mavjud.

¹⁴ .P.I.Puchkov. Melaneziya aholisining shakllanishi.-M.:1968.

¹⁵ I. Jabborov. Jahon xalqlari etnologiyasi.-T.: 2005. // Jahon xalqlari etnologiyasi. -T.: 2008.

¹⁶ T. Salimov. Avstraliya va Okeaniya xalqlari.- T.: 2003.

¹⁷ A. Ashirov. Etnologiya.- T.: 2007.// Etnologiya.-T.: 2014.

¹⁸ B. Aminov. Etnografiya olamiga sayohat. -T.: 1969.

¹⁹ K.Gadoev. S.Berdiyeva. Jahongashta sayyoh olimlar.-T.: 2012.

Vaholanki, maskur mintaqa xalqlari nihoyatda boy etnik tarixga, an'anaviy xo'jalik yuritish usulariga hamda salmoqli etnomadaniyatga egadir. Bu mintaqa xalqlari jahon etnomadaniyatida, qolaversa, dunyo sivilizatsiyasiga munosib hissa qo'shishgan. Mazkur holatlar dissertatsiyada nazariy jihatdan to'la asoslab berilgan.

Dissertatsiya ishida keltirilgan ma'lumotlar va xulosalardan umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litseylar, o'rta-maxsus kasb-hunar kollejlarida o'tiladigan Jahon tarixi darslarida, oliy o'quv yurtlari tarix fakultetlarida referat, kurs ishi, bitiruv malakaviy ishlari hamda maru'zalar tayyorlashda foydalanish mumkin.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi.

Dissertatsiya mavzusini yoritishda tarixiy-etnografik, arxeologik, antropologik, lingvistik, fol'klor ma'lumotlari, sayyohatchilar asarlari hamda mavzuga oid Internet matriallari kompleks tarzda jalb etildi. Etnologiya fanining so'nggi yutuqlariga tayangan holda jahon etnomadaniyatida Avstraliya va Okeaniya xalqlarining tutgan salmoqli o'rni ilk bor xolisona va qiyosiy tahlil qilib berildiki, bu tadqiqotning ilmiy yangiligi hisoblanadi.

Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi.

Tadqiqot kirish, uch bob, to'qqiz fasl, xulosa va foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati hamda ilovadan iborat.

Ishning **kirish** qismida mavzuning asoslanishi va uning dolzarbligi, tadqiqot ob'ekti va predmetining belgilanishi, tadqiqot maqsadi va vazifalari, tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari, mavzu bo'yicha qisqacha adabiyotlar tahlili, tadqiqotda qo'llanilgan uslublarning qisqacha tavsifi, tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati, tadqiqotning ilmiy yangiligi, dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi kabilarga to'xtalib o'tilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi- „**Avstraliya aholisining etnik tarixi, an'anaviy xo'jaligi, moddiy va ma'naviy madaniyati**“ deb nomlanib, unda Avstraliya xalqlarining etnik tarixi, aholisining an'anaviy xo'jaligi, moddiy va ma'naviy madaniyati hamda oila va oilaviy munosabatlari bayon etilgan.

Ishning ikkinchi bobi-„**Okeaniya xalqlarining etnomadaniyati**” deb nomlanib, unda Melaneziyaliklar hamda Yangi Gveniyaliklarning etnik tarixi, an’anaviy xo‘jaligi, moddiy va ma’naviy madaniyati yoritilgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi- „**Polineziya va Mikroneziya xalqlarining etnomadaniyati**”da Poleneziya, Yangi Zelandiya, Mikroneziya xalqlarining etnik tarixi, an’anaviy xo‘jaligi hamda aholining moddiy va ma’naviy madaniyati chuqur tahlil qilib berilgan.

Ishning **xulosa** qismida esa yuqoridagi uchala bobdan kelib chiqadigan yakuniy fikrlar hamda amaliy tavsiyalar berilgan.

I BOB. Avstraliya aholisining etnik tarixi, an'anaviy xo'jaligi, moddiy va ma'naviy madaniyati.

Avstraliya (lotincha australis-janubiy)-janubiy yarim sharda joylashgan qit'a hisoblanadi. Avstraliya shimoldan janubga York buruni bilan janubi g'arbiy buruni janubiy kengliklar oralig'ida 3200 km ga, g'arbdan sharqqa 4100 kmga, Sitip- Poyit burini va Bayron burunlari oralig'ida cho'zilgan. Maydoni- 7682 kv kmni tashkil etadi. Tasmaniya, Kenguru, Melvill orollari bilan birga 7707.5 kv. kmga yaqin. 2014-yil 5-martdagi ma'lumotlarga ko'ra, qit'a aholisi 23 mln 511 155 kishidan iborat bo'lib, ularning asosiy qismi sharqiy qirg'oq bo'ylaridagi shaharlarda yashaydi²⁰.

Avstraliyaning davlat ramzida kenguri va tuyaqush tasviri aks etgan. Aynan maskur hayvonlar ramzi gerbda aks ettirilishining ikki sababi bor. Birinchidan, bu jonzorlar Avstraliya faunasida keng tarqalgan bo'lsa, ikkinchidan, na tuyaqush va na kenguri orqaga qarab yurmaydi. Bu esa mazkur mamlakatning olg'a yurishini ramziy aks ettiradi²¹.

Avstraliya qit'alar ichida eng kichigi bo'lib, janubiy tropik chizig'i materikning deyarli o'rtasidan kesib o'tadi. Materikni g'arb, shimol va janubdan Hind okeani, sharqda Tinch okeani, dengizlari o'rab turadi. Qirg'oqlari unchalik egri-bugri emas, shimolda Kartentariya, janubda Katta Avstraliya qo'ltiqlari mavjud. Katta yarim orollari- Arnevlend va Keyp-York, Tasmaniya orolini Avstraliyadan kengligi 224 kmli bo'g'oz ajratib turadi. Avstraliyaning shimolidagi yirik orollardan Yangi Gveniya joylashgan, Avstraliyaning sharqiy sohili bo'ylab behisob marjon orollardan tashkil topgan katta to'siq rifi 2300 km masofaga cho'zilib yotadi. XVII asrgacha bu hududdagi aborijenlar ibtidoiy jamoa tuzimi sharoitida yashashgan.

Avstraliya aholisi deyarli bir millatli bo'lib, (4/5 qismi) uning asosiy qismini Buyuk Britaniyaning va Irlandiyaning immigrantlar-angloavstraliyaliklar tashkil qiladi. Mahalliy aholi-aborijenlar juda ozchilikdan iborat (1 % atrofida).

²⁰ <http://ru.wikipedia.org/wiki>

²¹ Ashirov A. Etnologiya.-T., 2014. 199-bet.

Avstraliyaning uzoqligi bois, dastlab yevropaliklar tomonidan davlat jinoyatchilari surgun qiladigan joy sifatida foydalanilgan bo'lsa, XIX asr ikkinchi yarmidan boshlab oltin topilishi va go'sht sut, jun chorvachiligining rivojlanishi bilan ommaviy immigratsiya mamlakatga aylandi va 20 % ga qadar aholi o'sishini ta'minladi. Aholi sonining o'sishida tabiiy ko'payish bilan bir qatorda, xalqaro migratsiya hozirgi vaqtgacha muhim o'rin egallab kelmoqda. Aholi juda notekis taqsimlangan.

Avstraliya-dunyodagi urbanizatsiyalashgan davlat. Aholining 87 % idan ortig'i shaharlarda yashaydi. Eng yirik shaharlari: Sidney, Melbrun, Brisben, Adelaida, Pert, Nyukasl, barchasi yirik portlardir.

Urbanizatsiya darajasi materiklar bo'yicha eng yuqori, ya'ni 86 % (91 %) ni tashkil qiladi. Millioner shaharlari: Sidney (3,7 mln), Melbrun, Brisben, Pert, Adelaida va boshqalar.

1901-yil Avstraliyadagi mustamlakalar birlashtirilib Avstraliya Ittifoqini tashkil etdi. 1931-yildan boshlab Avstraliya mustaqillik statusini oldi. Avstraliya Ittifoqi federativ davlat bo'lib, hozirda u 6 ta shtat va 2 ta hududdan tashkil topgan. Buyuk Britaniya Hamdo'stligi tarkibiga kiradi. Avstraliya BMT, JST, Millatlar hamkorligi, Tinch okeani orollari Forumi kabi xalqaro tashkilotlarga a'zo hisoblanadi²². Avstraliya dunyodagi aholisi zich joylashgan davlatlar orasida 50-o'rinda turadi. 1991-yilda Avstraliya bilan O'zbekiston Respublikasi o'rtasida diplomatiya munosabatlari o'rnatilgan.

I.1. Avstraliya aholisining etnik tarixi.

Beshinchi qit'a aholisining kelib chiqishi fanda eng qiziqarli va nihoyatda murakkab muammodir. Chunki bu yerning tub aholisi juda arxaik ibtidoiy tipdagi sodda, o'ziga xos madaniyatini bizning davrimizgacha saqlab qolgan. Bu qit'a aholisini o'rganishning murakkabligi shundaki, tasmaniyaliklarning jismoniy tuzilishi, tili va madaniyati boshqa biron xalqqa o'xshamaydi, ya'ni boshqa xalqlarga qiyos qilish imkoniyati yo'q. Shuning uchun ularning etnogenezi to'g'risida bir yarim asrdan buyon tortishuvlar, turli mulohazalar davom etib kelmoqda. Ammo

²² Population clock. Avstralian Bureau of Statistics. <http://ru.wikipedia.org>

Avstraliya qit'asi antropogenezga kirmasligi, ya'ni odamzodning vatani emasligi aniq. Avstraliyaga dastlabki aholi shimoldan janubiy-sharqiy Osiyodan yuqori paleolitda, bundan 40 ming yil avval kela boshlagani fanda tasdiqlangan.

Avstraliyaning sharqidagi Mango ko'li yoqasidan topilgan makon va tosh qurollari 32 ming yil bilan belgilangan. Shu joydan 25 ming yil avval yashagan odam qoldiqlari ham chiqqan. Ma'lumotlarga asoslanib Avstraliyaga ko'chib kelishlar birdaniga ro'y bermasdan, dastlabki migrantlar to'liqini ortidan boshqa guruhlar yo'l olgani aniqlangan. Olimlarning fikricha, Tasmaniyaga aholi Avstraliyadan bundan taxminan 22 ming yil avval o'tadi.

Dastlabki aholi guruhlarining asosiy mashg'ulotlari ovchilik va termachilik bo'lgan. Ularning mehnat qurollari esa yuqori paleolit darajasida edi.

Yevropaliklar, Tasmaniyaliklar bilan dastlab to'qnashganlarida ulardagi tosh davri madaniyati, avstraliyaliklarning 7 ming yil avval yashagan makonlaridagi izlariga o'xshash bo'lgan demak, qit'ada keyingi yetti ming yilda ishlab chiqarish vositalari deyarli o'zgarmagan. Agar dunyoning boshqa hududlariga odamlarning texnika taraqqiyoti doirasda yutuqlarini eslasak, avstraliyaliklarning so'nggi paleolit darajasida qolib ketganini tushunish mumkin, albatta, Avstraliyaga tashqi madaniyat ta'sirida bo'lgani shubhasiz. Olimlar bundan 7 ming yil avval boshlangan tosh qurollaridagi o'zgarishlar tashqi tasir ostida bo'lganini taxmin qiladi. Ayni paytda asosiy ishlab chiqarish vositalari o'zgarishsiz qolgani ham ma'lum. Xususan shimolda tarqalgan o'q-yoydan bolalar o'yinchogi sifatida foydalanilgan qit'aga indoneziyaliklarning kelib turushi an'anaviy mehnat qurollari va mehnat munosabatlariga deyarlik ta'sir qilmagan shu sababdan chetga ta'sir avstraliyaliklarni o'zlashtirish xo'jaligidan ishlab chiqarish xo'jaligiga o'tishiga yordam ko'rsatmagan. Avstraliyalik olimlardan biri bu haqda quyidagi hazilomus gaplarni aytgan sababi tikanli o'tni o'stirish kengurini sog'ish mumkin emas. Ushbu so'zlar haqiqat bo'lsada, mavjud vaziyatni to'liq ifodalamaydi.

Demak, avstraliyalik va tasmaniyaliklarning qadimiy ajdodlari kelgindilar bo'lgan, degan xulosaga kelish mumkin. Keyingi yillarda o'tkazilgan ba'zi

antropologik va arxeologik tadqiqotlarda ularning qayerdan va qachon kelganligi to'g'risida ba'zi ma'lumotlar ayon bo'ldi.

Avstraliyaliklarning kelib chiqishi to'g'risidagi fikrni rus olimi Ivan Simonov o'zining dastlabki tadqiqotlarida bundan 180 yil ilgari bayon etgan edi. XIX asrning 20-yillarida Sidneyga rus kemalarida kelgan ekspeditsiya a'zosi I. Simonov avstraliyaliklarni ko'rganda, ular janubiy hindistonliklarning avlodlari, degan taxminni aytgan. Antropologiya fani Avstraliya tub aholisi Janubiy Osiyoning qadimiy xalqlari bilan tarixiy bog'liq ekanligini tasdiqlagan. Avstraliya haqidagi dastlabki noaniq ma'lumotlar yevropaliklarga portugal dengizchilari orqali XVI asrda yetib kelgan. Ammo Avstraliyaning shimoliy qismlarini ba'zi bir indonez qabilalari qadimdan yashashgan bo'lsa kerak. XIX asr o'rtalarida ayrim sayyoh olimlar (E. Eyr, J. Prichard) avstraliyaliklarni tasodifan qit'aga adashib yoki qullikdan qochib kelgan afrikaliklarning avlodi degan bo'lsa, ba'zi birlari Malayya arxipelagi va Yangi Gvineya orqali kelgan eng qadimiy okeaniyaliklar avlodi, degan fikrlarni aytishgan. 1870-yillarda beshinchi qit'a bilan tanishgan rus tadqiqotchisi va sayyohi N.N. Mikluxa-Maklay o'zining jiddiy kuzatishlari asosida avstraliyaliklar mustaqil irq degan xulosaga keldi. Mazkur fikrni antropologik tadqiqotlar ham qisman tasdiqlaydi. Avstraliyaliklar o'ziga xos antropologik tipni tashkil qiladi. Ayrim tadqiqotchilar qit'aning tub aholisi negroid va yevropoid irqalar oralig'ida paydo bo'lgan deyishsa, boshqa olimlar esa avstraliyaliklarni katta negroavstraloid «ekvatorial» irqining maxsus tipi, deb hisoblaydilar²³. Ularning sochlari qora, yevropoidlarnikidek to'liqsimon, soqol-mo'ylovlari va badan tuklari qalin, terisining rangi negroidlarnikiga o'xshashroq to'q jigarrang, kalla suyagi uzunchoqroq, peshonasi nishablik, qosh usti suyagi chiqqan, labi qalin va burni kengroq, bo'yi o'rtacha yoki balandroq. Bunga o'xshash tiplarni Avstraliyadan tashqari Indoneziyada yoki janubi-sharqiy Osiyoda, (masalan, Shri-Lankadagi veddalar), Hindistonning janubidagi qabilalarda uchratish mumkin. Shuning uchun ham mazkur tip fanda ba'zan «vedda - avstraloid», deb ham yuritiladi²⁴. Hozirgi

²³ Jabborov I. Jahon etnologiyasi asoslari.-T., 2005. 67-bet

²⁴ Kabo V. R. Proisxojenie i rannya istoriya aborigenov Avstralii.-M., 1961

klassifikatsiyaga binoan katta avstraloid irqiga Avstraliyaning tub aholisi, papuaslar va melaneziyaliklar, negrotoslar va veddioidlar kiradi. Demak, avstraliyalik va tasmaniyaliklarning ajdodlari bir zamonlar janubi-sharqiy Osiyoda va Indoneziyada yashaganlar. Qit'aning geografik joylanishi va Yava oroli (Vadyak)da topilgan avstraloid tipidagi ikkita kalla suyagining qoldiqlari bunga dalil bo'la oladi. Avstraliya hududining sharqiy va janubi-sharqiy qismlarida topilgan qadimiy kalla suyagi qoldiqlari bu yerda odamlarning uzoq o'tmishda joylashuvi va Vadyak topilmalariga o'xshashligi etnogenez masalalariga ancha aniqlik kiritgan edi. Ayniqsa, Keylor (1940-y.) makonidagi kalla suyagi tuzilishi jihatidan hozirgi avstraliyaliklarga yaqin turadi²⁵.

Avstraliyani 1606-yilda gollandiyalik Yanszon kashf qilgan va bu hudud yangi Gollandiya deb ataldi. Bir necha oydan so'ng ispaniyalik L.Torres Avstraliyaning Keyp-York yarim oroli shimolidagi bo'g'ozdan suzib o'tgan. Bu bo'g'oz keyinchalik uning nomiga qo'yilgan. Abel Tasman (1603-1659) yevropaliklardan birinchi bo'lib Yangi Zelandiya, Tonga va Fidji orollariga yetib borgan va bu hududlarning xususiyatlarini tasvirlagan.

1642-yil 5-13-dekabr kunlari ekspeditsiya Tasmaniya va Avstraliyani Yangi Zelandiyadan ajratib turuvchi dengizni kesib o'tib, janubiy orolning, keyinchalik Jeyms Kuk Feruell burni deb atagan, Burunni aylanib o'tgan A. Tasman ikkala orolni ajratib turuvchi bo'g'ozni (hozirgi Kuk bo'g'ozi) kashf etgan. 1643-yil 4-yanvarida Tasman Yangi Zelandiyaning eng chekka shimoli-g'arbiy nuqtasiga yetib bordi. Ammo dengizda turgan bo'ron sayyohga Shimoliy orolni to'la o'rganish imkonini bermagan. Shuning uchun ham Yangi Zelandiya o'sha zamon xaritalarida Janubiy materik (Avstraliya)ning bir qismi bo'lib qolavergan. Tasman sayyohatidan keyin oradan 127 yil o'tgach, ya'ni 1770- yilda J. Kuk tomonidan bu yerlarning to'liq xaritasi tuzilgan va u Janubiy materikning qismi emas, balki maydoni Buyuk Britaniyanikidan kattaroq ikkita katta oroldan iborat ekani isbotlandi. A. Tasman 1643-yilning 5-yanvarida, hozirgi zamon xaritalarida ko'rsatiladigan Uch qirol (Tri-

²⁵ Jabborov I. Jahon etnologiyasi asoslari.-T., 2005. 67-bet

Kings) orollarini kashf etib, shimoli-sharqqa yo‘l olgan. O’sha yilning 19-yanvarida uning kemalari Tonga arxipelagiga yetib borib, uning asosiy uch oroli-Tongatabu, Eua, Namukuni kashf etgan va ularga Amsterdam, Middelburg va Rotterdam deb nom bergan. Ammo Tasman qo‘ygan bu nomlar keyinchalik unutilib, ular yana avvalgi nomlari bilan atala boshlangan. Tonga orollaridan shimoli-g‘arbga yo‘l olgan A. Tasman, 1643 -yil 6 -fevralda Fiji orollarini kashf etdi. So‘ng sayyoh shimoli- g‘arbga suzib, Banks va Santa-Krus orollari sharqidan o‘tgach, 22-martda katta atollga yetib bordi va unga Ontong-Yava deb nom berdi. Keyin Tasman Yangi Gvineya va Molukk orollari orqali Yava oroliga va 1643 yilning 14 iyunida Bataviya (Jakarta)ga kaytib kelgan. Taniqli tarixchi va geograf J. Beyker Tasmanning ushbu sayohatini «qoyil qolarli darajadagi muvaffaqiyatsizlik», deb baholagan edi. Chunki ekspeditsiya suzgan yo‘nalish juda katta radiusga ega bo‘lib, Avstraliya, Tasmaniya va Yangi Gvineyani o‘ziga qamrab olgandi²⁶. Shu bois, Tasman sayohati natijasida ochilgan yerlarning alohida yoki yaxlit bitta yer ekanligi haqidagi ba’zi savollarga javob topilmagan.

Avstraliyadagi yangi yerlarning ochilishi J.Kuk nomi bilan bog‘liq. Kuk ekspeditsiyasi 1768-yilning 26-avgustida Plimut shahridan chiqib, 1769-yilning aprelida Taiti oroliga yetib borgan. Tinch okeanida yana to‘rtta orolni kashf etib, ochiq dengizda 2,5 ming km suzib, 1769 yilning oktabrida qor bilan qoplangan baland tog‘li noma’lum yerga yetib keldilar. Bu Yangi Zelandiya bo‘lib, sayyoh, uch oy davomida uning barcha qirg‘oqlarini tekshirib chiqqan. Tekshirishlar natijasida Kuk ushbu orol Abel Tasman aytganidek, Janubiy yerning bir qismi bo‘lmay, balki o‘rtasidan bo‘g‘oz bilan ajratib turuvchi ikki yirik orolni ajratib turuvchi bo‘g‘oz Kuk nomi bilan atalgan.

1770-yil aprel oyida Kuk birinchi bo‘lib Avstraliyaning sharqiy qirg‘oqlariga kelgan.Kuk Avstraliyada nomalim hayvonga duch kelagan va mahalliy aborigendan „ bu qanday hayvon?“ deb so‘raganida, inglizchani bilmagan aborigen o‘z tilida „tushunmayman“, deb javob bergan va bu so‘z „kenguru“ qabilida talaffuz etilgan. Jeims Kuk va tabiatshunos Jozef Benks hayvonni xuddi shu nomda

²⁶ Gadoev K. Berdieva S. Jahongashta sayyoh-olimlar.-T., 2012. 153-bet.

ta'riflab, o'z ma'lumotlarini ikkinchi ekspeditsiya natijalari bilan birga e'lon etishgan va shu tariqa yevropaliklarga kenguru ma'lum bo'ldi. Kuk Avstraliya qirg'oqlarini Katta marjonqoya to'siqlari okeandan ajratib turishini tekshirayotib, Avstraliya va Yangi Gvineya o'rtasidagi bo'g'ozga duch kelgan va «Yangi Gvineya Avstraliya bilan tutashmi yoki yo'q?», degan savolga aniqlik kiritgan. Xuddi shu bo'g'oz orqali Kuk Bataviyaga (hozirgi Indoneziya poytaxti Jakarta shahri) kelgan. 1771-yilning 14-martida Kuk ekspeditsiyasi Keyptaun bandargohiga kelganda, kemada ishga yaroqli 12 kishigina qolgan edi, ekspeditsiya 1771- yilning 12-iyulida Britaniyaga qaytib kelgan. 1772-1775-yillarda «Rezolyushn» va «Edvencher» kemalarida Jeyms Kuk ikkinchi ekspeditsiya uyushtiradi. Kuk 1774-yilning martida Pasxa oroliga, aprelning boshlarida Markiz orollariga va aprelning oxirida Taiti oroliga yetib bordi. Taitidan sung sayyoh, Xuaxine, Raiatea, Fiji orollariga ham langar tashladi. Ekspeditsiya tomonidan 1774-yilning 3-sentabrida Yangi Kaledoniya oroli kashf etilgan. 1774-yilning oktabrida sayyoh Yangi Zelandiyaning Sharlotta qo'ltig'iga qaytdi va bu yerda bir oycha turib, Keyptaunga yo'l oldi. Keyptaunga kelgach, Kuk uchinchi va oxirgi marta qutb tomon suzganida Janubiy Georgiya orolini kashf etgan. Ammo sayyoh bu safar ham Antarktidani topa olmagan. Shundan so'ng Kuk to'ppa-to'g'ri Angliyaga jo'nab, 1775-yilning 30-iyulida vataniga qaytib keldi. Kuk tomonidan Avstraliyaning sharqiy sohillarini kashf etdi va uni Yangi Janubiy Uels, deb atadi²⁷. 1788-yildan Angliya hududi, deb e'lon qilingan. M.Flindors va N.Boden tadqiqotlari bilan Avstraliya janubiy sohillarining kashf etilishi nihoyasiga yetgan. M.Flindors materikni Avstraliya („Janubiy yer'') deb atagan²⁸ va XIX asrdan boshlab shu nom bilan aytila boshlandi. XVIII asr oxirida Avstraliyada birinchi ingliz manzilgohi-Sidniy shahriga asos solindi.

Hisob kitoblarga qaraganda Avstraliyaliklar 1788-yili 300 ming kishi bo'lib o'rtacha 26 kv kmga 1 kishidan to'g'ri kelgan. Cho'l dashtlarda 1 kishi 90 kv km ga ega bo'lsa, Grut, Ayland orolining qulay sharoitida 1 km kv 8 kishidan

²⁷Gadoev K. Berdieva S. Jahongashta sayyoh-olimlar.-T., 2012. 167-bet.

²⁸ Ashirov A. Etnologiya.-T., 2014. 200-bet.

yashaganlar qiyoslash uchun oddiy dehqonchilik bilan mashgʻul Papua-Yangi Gviniya aholisi avstraliyaliklarga qaraganda 90 barobar yashaganligini koʻrsatish mumkin. Maʼlum cheklangan hududda yashovchi aholi qoʻshnilari bilan juda kam uchrashgan. Amalda aborijen oʻzi ov qiladigan viloyatni deyarlik tashlab ketmagan. Natijada maʼlum cheklangan sondagi aholi gaplashadigan til-kommunaliklar shakillangan Yevropaliklar kela boshlagan 1788-yilga qadar aborijenlar 500 til komunaliklar shoʻzlashib ularning har biri oʻrtacha 500-600 kishini birlashtirgan.

Birinchi jiddiy inqiroz XIX asrning 90-yillarida sodir boʻlgan boʻlib bu davrda koʻplab kambagʻal migrantlar Avstraliyaga kelib oʻzlarining turmush tarzini yaxshilashga harakat qilganlar. Lekin bu yerga kelib yangi yerlarga ega boʻlib, tezda boyib ketishni istaganlar. Angliyadan koʻra bu yerda hayot ogʻirligi Buyuk Britaniya hukumati tomonidan ularga hech qanday yengilliklar berilmaganligini koʻrib mahalliy avstraliya qonunlarini yaratishga harakat qilganlar. Natijada 1901-yilda Avstraliyadagi mustamlakalar 6 shtatdan iborat federatsiyaga - Avstraliya Ittifoqiga birlashtirildi va u dominion maqomini oldi. 1906-yilda unga Britaniyaning Papua mustamlakasi (Yangi Gvineya orollarining janubi-sharqiy qismi), 1-jahon urushidan keyin esa (bu urushda Avstraliya qoʻshinlari Britaniya armiyasi tarkibida jang qildi) Germaniyaning sobiq Yangi Gvineya mustamlakasi (Yangi Gvineya orolining shimoli-sharqiy qismi) va Nauru oroli (Millatlar Ittifoqi mandati ostidagi hudud sifatida) berildi. Ikkinchi jahon urushi vaqtida Avstraliya gitlerchilarga qarshi koalitsiya tarafida harakat qildi. Biroq urush vaqtida ham avstraliyaliklar Buyuk Britaniya hukumati Avstraliyani xalqaro va harbiy himoya qila olmasligiga yana bir bor amin boʻlgan. Chunki ikkinchi jahon urushi vaqtida Avstraliya shaharlari yapon armiyasi tomonidan bombardimon qilingan²⁹.

1945-yildan Avstraliya BMT aʼzosi boʻldi va aynan ikkinchi jahon urushidan keyin mamlakat Buyuk Britaniya boshchiligidagi Hamdoʻstlik tarkibida qolgan holda mustaqil davlatga aylandi. 1949-yildan boshlab mamlakatda rasman aholiga

²⁹ Ashirov A. Etnologiya.-T., 2014. 211-bet.

nisbatan «avstraliyalik» iborasi qoʻllanila boshlandi va 1959-yildan esa rasmiy aholini roʻyxatga olish materiallarida avvalgi «britaniyalik» nomi oʻrniga «avstraliyalik» nomi ostida odamlar roʻyxatga olindi. 1972-yildan boshlab esa Avstraliyaning rasmiy pasporti joriy etildi. 1970-yillar soʻnggida rasmiy oʻlchov birliklari ham oʻzgarib, mil oʻrniga kilometr, fut - metr, funt oʻrniga esa kilogramm joriy etildi.

1975-yilda esa mamlakatning G. Uitlem boshchiligidagi leyboristlar hukumati Britaniya general-gubernatori tomonidan isteʼfoga chiqarildi. Aynan shu holat avstraliyaliklarni imperiya tarkibida oʻz oʻrniga va huquqiga ega emasligini yana bir tasdiqlab mahalliy aholi orasida Britaniyaga qarshi norozilik harakatini kuchaytirgan. Natijada 1984-yildan boshlab rasmiy marosimlarda Buyuk Britaniya gimni oʻrniga Avstraliyaning yangi gimni ijro etila boshlandi va nihoyat 1986-yilda qirolicha Yelizaveta II oʻz mustaqil qonunchiligi, boshqaruv hukumati va sudiga ega boʻlishi borasidagi mashhur «Avstraliya akti»ga qoʻl qoʻydi³⁰. Lekin Avstraliya Britaniya millatlari hamdoʻstligi tarkibida qolgan boʻlib, rasman hukumat boshligʻi Angliya qirolichasi hisoblanadi. Oʻtgan yillar davomida avstraliyaliklar yuqori rivojlangan iqtisodiyotni yaratdi va dunyodagi eng rivojlangan turmush tarziga ega mamlakat darajasiga koʻtarilishdi. Ularning milliy madaniyati oʻzlariga xos anʼanalarga ega boʻlib, bu anʼanalar butun dunyo jamoatchiligi tomonidan eʼtirof etilgan.

I.2.Aholining anʼanaviy xoʻjaligi.

Yaqin davrlargacha avstraliyaliklar va qirilib ketgan tasmaniyaliklar daydi ovchilik va terib-termachilik bilan shugʻullanib kelganlar. Ularning xoʻjaliklari, asosan, «oʻzlashtirish» xarakteriga ega boʻlib, tabiat mahsulotlarini ishlab chiqarmasdan tayyor holicha terib termachlab, ovlab isteʼmol qilganlar. Ular na dehqonchilik, na chorvachilikni bilganlar. Ovchilik asosiy tirikchilik manbai va sevimli mashgʻulot hisoblangan. Avstraliyaliklar bolalarini yoshlikdan ov qilish, qurol ishlatish, hayvon izlarini aniqlash va gʻov tiklash kabi sirlarni bilishga

³⁰ Ashirov A. Etnologiya.-T., 2014. 212-bet.

o'rgatganlar. Hayvonot dunyosi nisbatan kambag'al bo'lgan Avstraliyada tub aholi neki jonzot bo'lsa, hammasini ov qilib, iste'mol qilgan. Ayniqsa, kenguru va tuyaqushlarni ov qilishda zo'r mahorat ko'rsatganlar. Ular hayvonlarning izlarini tez topa bilganlar, uzoq masofagacha sabr-toqat va matonat bilan ovning payiga tushganlar. Ba'zan kenguruni yarim yovvoyi it (dingo)³¹ yordamida quvib yoki ko'pchilik bo'lib o'rab olib nayza bilan ovlaganlar. Chunonchi, otdek tez yuguradigan emu tuyaqushini ovlash ham katta mahorat va san'at talab qilgan. Baland evkalipt daraxtlariga tirmashib chiqishda jahonda avstraliyaliklarga teng keladigani yo'q. Ular daraxtlarda yashovchi parrandalarni tutish, qush tuxumi yoki yovvoyi ari asalini aholi uchun nihoyatda zo'r mahorat bilan tik daraxtlarga chiqa bilganlar. Mayda hayvonlar (kemiruvchilardan yirik vombat va bandikut, turli kalamushlar, toshbaqa, kaltakesak va ilonlar)ni yer kavlagich tayoq bilan ovlaganlar. Ayniqsa, katta zaharsiz voma iloni qimmatbaho o'lja hisoblangan. Qushlarni ovlashda eng asosiy qurol bumerang bo'lgan. Bumerangning xususiyati shundaki, mohir mergan kuch bilan irg'itganda, u o'ljaga kutilmagan tomondan borib tegishi mumkin, agar nishonga tegmasa u yana irg'ituvchining oyog'i tagiga qaytib tushadi. Bumerang turli xil bo'ladi, ammo aksariyati o'roqsimon shaklda bo'lib, uzunligi o'rtacha 75 sm (ayrimlari 2 metrgacha) keladi va yuz metr masofagacha uchadi. U bilan uchar qushlarni ham urib tushirish mumkin. Qushlarni har xil to'rlar va tuzoqlar bilan ham ovlaganlar. Baliqchilikda sanchqi, to'r, qarmoq, savat va boshqa ov qurollari ishlatilgan. Qarmoqlar suyak yoki chig'anoqdan yasalgan. Ovchilik va baliqchilikda nayza muhim rol o'ynagan³².

Tasmaniyaliklarda tosh qurollar va nayza ishlatilgan. Dengiz hayvonlari molluska va qisqichbaqalar sevimli taom hisoblangan. Ovchilik va baliqchilik bilan erkaklar, terib-termachlash bilan esa, asosan, ayollar shug'ullangan. Avstraliyaliklar go'sht va baliqni xom holda iste'mol qilmaganlar. Ular go'sht, qush yoki baliqni ko'pincha yaxlit holda o'tda yoki cho'g'da qovurib yeganlar. Avstraliyada turli

³¹ Jabborov I. Jahon etnologiyasi asoslari.-T., 2005. 67-bet

³² Salimov T. Avstraliya va Okeaniya xalqlari.-T., 2003.18-bet.

tariq, yams va boshqa ildizmevali o'simliklar, non daraxti (bunya) yovvoyi holda o'sadi³³. Barcha yemishli o'simliklarni ham maydalab yoki yanchib, ezib va qovurib iste'mol qilganlar. Olovni ishqalash yo'li bilan, ba'zan yog'ochni yog'och bilan arralash yoki parmalash yo'li bilan topganlar. Ular tosh, suyak, chig'anoq, yog'och, o'simlik tolasi, hayvon terisidan turli qurol, buyum va idishlar yasashni yaxshi bilganlar. Tosh qurollarning tiplari neolit davridagi shel va ashel yoki muste qurollariga o'xshab ketadi³⁴.

Terimchilikda yer kovlaydigan yo'g'on uchi yo'nilgan yog'och ishlatilgan. Yig'ilgan o'simlik va hayvon mahsulotlarini o'simlik tolasidan to'qilgan xalta yoki yog'och tog'oralarda saqlaganlar. Aborigenlar ayrim o'simliklarning zaharli moddasini suvda yuvib yoki o'tda kuydirib yo'qota bilganlar. Donni maxsus tosh yorg'ichlarda va so'qilarda yanchganlar. Tasmaniyada chaqmoqtoshning bo'lmaganligi sababli tub aholi o'z tosh qurollarini qattiq qumtoshlardan yasaganlar. Ular suyakdan kam foydalanganlar, asosan, tosh, yog'och, chig'anoq, teri, charm va o'simlik tolasidan asbob va qurol yasashgan³⁵.

Avstraliyalik va tasmaniyaliklarning kiyimlari nihoyatda yupun bo'lgan. Ko'pchilik qabilalar mutlaqo kiyimsiz, yalang'och yurganlar. Ba'zi janubi-sharqiy hududlarda opossum³⁶ terisidan plash tikib yopinib yurganlar. Ammo erkaku ayol, asosan, bayram vaqtlarida turli bezaklar: boshiga toladan o'rov, qo'liga ip, bilaguzuk, bo'yniga munchoq, burniga buloqi sirg'a taqishgan, badanlarini bo'yab har xil patlar yopishtirganlar yoki badanlarini maxsus jarohatlab, yo'l-yo'l naqshlar tilganlar. Tanani faqat bezak uchun emas, ba'zan terini saqlash uchun ham bo'yaganlar.

Ko'pchilik qabilalar daydib yurganlari uchun muayyan qishloqlarga ega bo'lmaganlar. Janubi-sharqiy va g'arbiy hududlarda tayyor mahsulotlari tugaguncha ma'lum paytgacha bir yerda yashaganlar. Odatda har bir alohida guruh bir joydan ikkinchi joyga ko'chib yurgan, shuning uchun ham shox-shabba

³³ Jabborov I. Jahon etnologiya asoslari.-T., 2005. 71-bet.

³⁴ Sadoxin A.P. Etnologiya.-T., 2000. 84-bet

³⁵ Salimov T. Avstraliya va Okeaniya xalqlari.-T., 2003. 19-bet.

³⁶ Jabborov I. Etnografiya asoslari. T., 1981. 54-bet.

chaylalar tiklab, ularni yog'och qobig'i, barg va xashak bilan qoplaganlar. Shimolda tropik yomg'irlar ko'p bo'lganligi tufayli qoziqoyoqlarga o'rnatilgan uylarni ham uchratish mumkin. Qit'aning sharqiy qismida 12-15 va hatto 30 dan ortiq kishi yashaydigan uylar ham tiklangan.

Tub aholi asosan, yuklarni qo'lda ko'tarib piyoda ko'chib yurganlar. Daryolar va dengiz sohillarida daraxt qobig'idan va katta g'o'ladan o'yib yasalgan sodda qayiqlar va sollarda, ba'zi balansirli va yelkanli kemalarda suzib yurganlar. Tevarak-atrofdagi tabiiy muhitni yaxshi bilganlar. Ammo ishlab chiqarish kuchlari nihoyatda past, sodda holatda bo'lgan.

Beshinchi qit'ada xonakilashtiriladigan hayvonlar bo'lmagan. Tasmaniyada ham yirik hayvonlar bo'lmaganligi tufayli, asosan, kenguru, uzun dumli qopchiqli ayiqcha (opossum), dengizda esa tulenlarni ovlash bilan cheklanganlar. Tasmaniyalik ayollar toshdan yasalgan chopqich bilan daraxtning silliq tanasiga qirqib yasab, beli va daraxtga charm kamar yoki arqon tashlab, juda chaqqonlik bilan balandga ko'tarilib, shox va barglarga yashiringan opossumlarni ushlab olganlar. Ular oftobda isinib yotgan tulenlar oldiga tezlikda pisib borib ularni oddiy cho'qmor bilan ovlaganlar.

XIX asrning o'rtalaridan, ayniqsa, qit'ada oltin topilganidan keyin erkin «oq tanlilar» ko'plab kela boshlaydi. Tasmaniyada yevropaliklar birinchi marta 1803-yilda paydo bo'la boshlagan edi. Kelgindi mustamlakachilar bilan tub aholi orasida birinchi davrlardayoq jiddiy to'qnashuvlar boshlangan. Chunki, yevropaliklar ovga boy yerlarni egallab mahalliy qabilalarni haydab chiqara boshlaganlar, qarshilik qilganlarni qirganlar. Shunday qilib, qisqa muddat ichida, asosan, Britaniya va Irlandiyadan kelgan mustamlakachilar tub aholining eng serunum, tirikchilik uchun zarur bo'lgan yerlaridan o'lkaning ichki qismi tomon bepoyon suvsiz dashtlarga yoki shimoldagi changalzor to'qaylarga siqib chiqarib, ularni tabiiy qirg'inga hukm qilganlar. Tasmaniyaning tub aholisi 1870-yillarga kelib butunlay qirilib ketgan. Hozir Avstraliyada aborijenlar 100 mingga ham yetmaydi, ya'ni mustamlakachilik arafasidagi tub aholi soniga nisbatan deyarli to'rt-besh barobar kamayib ketgan.

Ular nihoyatda og'ir sharoitda hayot kechirmoqda. Ayniqsa, daydichilikda turmush kechirayotgan qabilalar achinarli ahvolda yashamoqdalar.

Avstraliyaning hozirgi aholisi, yuqorida aytilgandek, Angliya, Shotlandiya va Irlandiyadan kelganlarning avlodidir. Ammo shunga qaramay ular boshqa dastlabki kelgan yevropaliklar bilan birga yangi shakllanayotgan Avstraliya millatini tashkil qiladilar. Mamlakatning iqtisodiy mavqei yirik industrial-agrar xarakteri bilan belgilanadi. Unda zamonaviy sanoatning barcha muhim sohalari, jumladan, elektrotexnika, ximiya, metallurgiya, mashinasozlik, rivojlangan qishloq xo'jaligi, ayniqsa, chorvachilik va hokazolar mavjud, Beshinchi qit'a har xil qazilma boyliklarga ega. Eng yuqori sifatli **jun** ishlab chiqarishda va eksport qilishda Avstraliya dunyoda **birinchi** o'rinni egallaydi³⁷.

Avstraliyalik va tasmaniyaliklarning ijtimoiy tuzumi nihoyatda jo'n, ibtidoiy darajada bo'lgan. Afsus, tasmaniyaliklar juda erta qirilib ketgan, shuning uchun ham ularning ijtimoiy hayoti to'g'risida ma'lumotlar juda kam saqlangan. Ba'zi manbalarga binoan, tasmaniyaliklar boshlang'ich holdagi urug'chilik tuzumi darajasida turganlar. Urug' ichida nikohga yo'l qo'yilmagan, ya'ni ekzogamiya 3 tartibi hukm surgan. Urug'lar qabilalarga birlashib, muayyan hudud doirasida bir-biridan ajralgan holda ko'chib yurganlar. Har bir qabilaning chegarasi o'ziga yaxshi ma'lum bo'lgan va bu chegaralarning daxlsizligiga katta e'tibor berilgan.

Tasmaniyaliklarda 20 ga yaqin qabila bo'lib, ular 12-50 odamdan iborat, lokal guruhlariga bo'lingan.

Avstraliyaliklar ham ayrim qabilalarga bo'lingan bo'lib, mustamlaka arafasida butun qit'ada 500 ga yaqin mustaqil, bir-biriga bog'liq bo'lmagan jamoa holida hayot kechirganlar. Hozir juda kam qabila qolgan. Ularning qabilaviy tuzumi nihoyatda sodda bo'lgan, ko'pchiligida na qabilaviy boshliq, na qabilaviy kengash bo'lgan. Tub aholi ishlab chiqarish munosabatlarining asosini ijtimoiy mulk tashkil qilgan. Ammo ijtimoiy tuzum va munosabatlar ancha murakkab bo'lgan. Yuqorida qayd qilganimizdek, qabilalar yuztadan to bir - ikki mingga yaqin kishidan iborat bo'lgan. Qabilaviy tuzum qoidalari shunchalik qattiq bo'lganki, unga rioya

³⁷ Ashirov A. Etnologiya. –T., 2014. 213-bet

qilmaganlar qatl qilingan yoki qabiladan haydalganlar, ya'ni tabiiy o'limga hukm etilganlar. Chunki ibtidoiy jamoa sharoitida jamoadan ajralgan odam mustaqil yashay olmagan.

Avstraliya va Tasmaniyaliklar ovchilik, terimchilik bilan bir qatorda imkoniyat bo'lganda baliqchilik bilan ham shug'ullangan. Baliq ovlashda qarmoq, sanchqi, to'r hamda suvni zaharlab ov qilish usullari qo'llanilgan. Dengiz chig'anoqlari ham oziq sifatida ishlatilgan Avstraliyada yirik xaltali xayvonlar (kenguru) va tuyaqush (emu) dan tortib to mayda chuvalchang va qurt-qumursqalargacha ovlagan. Ovchilikda katta maxorat va tajribaga ega avstraliyaliklar baland evkalipt daraxtlariga tirmashib chiqishda tengsizdirlar³⁸.

Qushlarni ovlashda eng asosiy qurol – bumerang bo'lgan. Qushlarni har xil to'rlar va tuzoqlar bilan ham ovlaganlar. Ovchilik va baliqchilik bilan erkaklar, terib-termachlash bilan esa asosan ayollar shug'ullanganlar. Go'shtni, qush yoki baliqni yaxlit holda olovda yoki cho'g'da pishirib yeganlar.

Avstraliyaliklar chorvachilik, kulolchilik va metallni bilmaganlar. Ammo, tosh, suyak, chig'anoq, yog'och, o'simlik tolasi, hayvon terisidan turli qurol, buyum va idishlar yasashni bilishgan. Yig'ilgan o'simlik va hayvon mahsulotlarini o'simlik tolasidan to'kilgan xalta yoki yog'och idishlarga saqlaganlar. Donni maxsus tosh yorg'ichlarda va so'qirlarda yanchishgan.

Kiyim-kechaklari nihoyatda kambag'al bo'lgan. Ko'pchilik qabilalar mutloqo kiyimsiz yurishgan. Janubiy sharqiy hududlarda yashovchi qabilalar opossum terisidan kamzul tikib, yopinib yurganlar. Bayram – marosimlar vaqtida turli bezaklar, taqinchoqlar taqishgan. Badanlarini bo'yab, patlar yopishtirishgan, terisini jarohatlab, yo'l-yo'l naqshlar tilganlar.

Muqim yashaydigan qishloqlari bo'lmagani bois aholi, asosan, yuklarini ko'lda ko'tarib, piyoda ko'chib yurganlar. Daryolar va dengiz sohillarida daraxt qobig'idan va katta g'o'ladan o'yib yasalgan sodda qayiq va sollarda, balansirli va yelkanli kemalarda suzib yurganlar.

³⁸ Jabborov I. Jahon etnologiya asoslari. –T., 2008. 97-bet

Avstraliyaliklarning ijtimoiy tuzumi nihoyatda primitiv, ibtidoiy darajada bo'lgan. Tasmaniyaliklar boshlang'ich holdagi urug'chilik tuzumi darajasida turganlar.

Tasmaniyaliklar xo'jaligi avstraliyaliklarnikiga nisbatan qoloqroq bo'lgan. Arxeologik qazishmalar qadimgi qatlamlari tasmaniyaliklar ovlagan baliq suyaklari ko'plab topilgan, lekin keyingi davrda aholi protenga talabi boshqa usullar bilan qondirilgani tufayli, balki ekalogik o'zgarishlar natijasida baliqchilik bilan shug'ullanmay qo'yishgan. Bumerangni ko'pchilik faqat avstraliyaliklarga xos qurol deb hisoblashsa-da, uni qit'anining katta qismida umuman bilishmagan. Olimlarning farazicha bumerang Avstraliyaga ancha kech olib kelingan, lekin yevropaliklar kelganida u ko'pchilik viloyatlarda mavjud edi. Bazi joylarda bumerang qurol sifatida emas, o'yinda takt uchun cholg'u sifatida foydalanishgan.

Irg'itganida qaytadigan bumerangda sport buyumi sifatida foydalanishgan. Jangovar bumerang og'ir zalvarlli bo'lib, otganda ortga qaytmagan. Yuqorida ta'kidlanganidek bumeranglar faqat avstraliyaliklarga xos bo'lmay qadim zamonlarda Yevropa va Misrda qo'llanilgan³⁹.

Avstraliya va Tasmaniyada ayollar uchun umumiy buyumlardan biri, uchi yo'nilgan tayoq bo'lgan, chamasi bir metr va undan uzunroq tayoqni avval qurutib so'ng cho'g'da toblab uchini o'tkirlagan. Ushbu mehnat quroli bilan yamsning tomiri uzilgan, yerdan asal chumolilari qazib olingan va u boshqa xizmatlarda foydalanilgan. Nulla-nulla nomli jangovar politsiyadan esa erkaklarga nisbatan ayollar ko'proq foydalanishgan u qazu tayog'idan kalta va yo'g'onroq bo'lgan⁴⁰. Avstraliya hamda Tasmaniyada kengroq tarqalgan qurol bo'lgan. Erkaklarning universal quroli nayzaning ikki turi: biri sanchqi, ikkinchisi uzoq masofaga uloqtirish uchun mo'jallangan. Ko'pchilikning tasavvurida nayza avstraliyaliklarning bumerang singari „o'ziga xos" quroli hisoblanadi. Aslida, bu fikr ham haqiqatdan ancha yiroq, albatta. Nayza otish uskunasi-vumera Avstraliyaga nisbatan kech kirib kelgan bo'lib uni yer yuzining boshqa qisimlarida

³⁹ Salimov T. Avstraliya va Okeaniya xalqlari.- T., 2003. 17-bet.

⁴⁰ Rouz F. Aborigeni Avstraliyi. –M., „Nauka" 1989. 43 s.

ham uchratish mumkin. Bir manzildan ikkinchisiga ko‘chish davomida yoki ovda erkaklar nayza, vumera va bumeranglarni ayollar esa oilaning boshqa buyumlarini va kichik bolalarni ko‘tarib olishgan. Erkaklar oldindan ovni qushlarni poylab, ayollar va bolalar ulardan ma’lum masofada harakatda bo‘lgan.

Avstraliya qishloq xo‘jaligida chorvachilik – bosh tarmoq. Chorvachilik go‘sht-jun yo‘nalishidagi qo‘ychilik va sut yo‘nalishidagi qoramolchilikdan iborat. Chorvachilikka qishloq xo‘jalik mahsulotlari qiymatining 2/3 qismi to‘g‘ri keladi.

Yilqichilik, tuyachilik, parrandachilik rivojlangan. Ekin maydonlarining 40 % yem-xashak ekinlari bilan band. Ziroatchilikda bug‘doy (mamlakatning janubi-sharqi va janubi-g‘arbida qo‘ychilik bilan), arpa, shakarqamish (shimoli-sharq), paxta (g‘arb va sharq), subtropik va tropik bog‘dorchilik, uzumchilik va sabzavotchilik muhim o‘rin tutadi. Sug‘orma dehqonchilik asosan, Viktoriya shatatida rivojlangan bo‘lib, yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining asosiy qismi to‘g‘ri keladi.

Don ekinlarining yalpi hosili 35-40 mln. tonnani tashkil etadi, yarim million tonnadan ortiq paxta tolasi ishlab chiqarilmoqda. Avstraliyada chorvachilik ham rivojlangan bo‘lib, salkam 30 million bosh yirik shoxli qora mol (Yangi Zelandiya 10 mln bosh), 150 million boshdan ziyod qo‘y va echkilar (Yangi Zelandiyada 60 mln. bosh) mavjuddir. Avstraliya o‘rtacha yiliga 4,0 mln. tonna go‘sht (Yangi Zelandiyada 1,5 mln. tonna), 8 million tonna (Yangi Zelandiyada 9 mln. tonna) sut tayyorlanadi.

Xo‘jalik ixtisoslashuvida tropik dehqonchilik muhim sohalari (xilma-xil sabzavotlar va mevalar, paxta, kofe, kakao va boshqalar) va chorvachilikda (qoramolchilik, qo‘ychilik, cho‘chqachilik, parrandachilik) asosan rivojlangan. Avstraliyada o‘rmon xo‘jaligi va baliqchilik rivojlangan bo‘lib, eksportga yog‘och va o‘rmon mahsulotlarini chiqaradi.

Avstraliya xilma-xil foydali qazilmalarga boy. Shulardan ba’zilar ahamiyati va zahirasi bo‘yicha dunyoda yuqori o‘rinlarni egallaydi. Temir rudasi, mis, nikel, uran rudalari, boksitlar, ko‘mir, oltin, olmos konlari shular jumlasidandir.

Temir rudasining yirik konlari (Tom-Prays, Maunt, Maunt-Ueylbek) mamlakat g'arbida, oltin konlari (Kambalda, Leonora) janubi-g'arbida, nikel ruda konlari (Grinveyl) shimoli-sharqiy va janubi-g'arbiy qismlarida alyuminiy (boksit) rudalari konlari (dunyodagi eng yirik kon Ueypa-York yarim orolida topilgan, yana Gov va boshqalar), uran rudalari konlari (Nabarlek) shimolda, polimetall rudalari konlari (Broken-Xill va boshqalar) janubiy va shimoliy qismlarida, olmos konlari (Uinton va boshqalar) mamlakatning sharqiy va janubiy hududlarida joylashgan. Ko'mir konlari materikning janubiy va janubi-sharqiy qismlarida topilgan, neft va tabiiy gaz konlari mamlakatning sharqiy hududlaridan topilgan va qazib olingan.

Avstraliya platformasi oltin va polimetallga, temir rudasi va boksitga boy, Flinders tizmasida uran va radiy rudalari uchraydi. Avstraliya sharqida toshko'mir va qo'ng'ir ko'mir konlari bor. Katta Artezian havzasi, Viktoriya shtati sohillaridan neft va gaz konlari topilgan.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, Avstraliya turli xildagi foydali qazilmalarga boy. Asosan, temir rudasi, mis, titan, nikel, uran, boksit, oltin, olmos, ko'mir kabilar. Masalan: Temir rudasi qazib olishda dunyoda 3-o'rinda (yiliga 110 mln t.); Marganes qazib olishda 3-o'rinda; Boksit qazib olishda 1-o'rinda; Nikel qazib olishda 3-o'rinda; Qalay va rux qazib olishda 2-o'rinda; Mis qazib olishda 9-o'rinda; Ko'mir qazib olishda 6-o'rinda (yiliga 210 mln t.) Olmos qazib olishda 1-o'rinda turadi⁴¹.

Mamlakatning iqtisodiy mavqei industrial-agrar xarakteri bilan belgilanadi. Unda zamonaviy sanoatning barcha muhim sohalari, jumladan, elektrotexnika, ximiya, metallurgiya, mashinasozlik, rivojlangan qishloq xo'jaligi, ayniqsa, chorvachilik va hokazolar mavjud. Foydalaniladigan yerlarning 80 foizi yirik yer egalari qo'lida bo'lib, mamlakatda 174 mln dan ortiq qo'ylar va 24,1 mln. dan ortiq qoramol mavjud. Bir yilda o'rtacha 3,7 million tonna go'sht va 720 ming tonna jun yetishtiriladi. Avstraliya yuksak darajada rivojlangan industrial agrar mamlakat.

Iqtisodiyotda yirik monopoliyalar hukmron, xorijiy sarmoya, asosan AQSH va Buyuk Britaniya sarmoyasi katta mavqega ega. Avstraliya temir ruda, boksit,

⁴¹ Ashirov A. Etnologiya.-T., 2014. 211-bet.

qo'rg'oshin, jun, shakarqamish mahsuloti eksport qilish sohasida yetakchi o'rinda, ko'mir, rux, mis, marganes, bug'doy, go'sht eksport qilishda oldingi o'rinlardan birida turadi.

Avstraliyaliklar turli davrlarda mamlakatga immigrant bo'lib ko'chib kelgan etnik guruhlar olib kirgan yangi tartiblardan minnatdor bo'lishlari kerak. Chunonchi, nemislar XIX asrdayoq Janubiy Avstraliyaga birinchilardan bo'lib uzumchilik va vinochilikni olib kirgan. Aynan mazkur shtatda hozirda ham eng mashhur uzum navlari yetishtiriladi va mashhur vino navlari tayyorlanadi. Aynan nemislar tomonidan qit'aning kichik shaharlarida dorixonalar, qandolat va sut mahsulotlari tarmog'ini yaratishgan. Greklar esa Kvinslend shtatida shakarqamish plantatsiyalarini rivojlantirishda muhim hissa qo'shgan. Agar qit'ada avvallari, asosan, ingliz tilida gaplashuvchi immigrantlar ko'p sonli bo'lgan bo'lsa, hozirda Avstraliyada 90 ta tilda (mahalliy avstraliya aboriginlarini hisoblamaganda) 140 dan ortiq turli etnik guruh vakillari yashaydilar.

Avstraliya 4 ta iqtisodiy rayonga bo'linadi:

1. Janubi-sharqiy iqtisodiy rayoni (Yangi Janubiy Uels, Viktoriya, Janubiy Avstraliyaning janubi-sharqi va poytaxt federativ hududi). Mintaqaning bosh iqtisodiy rayoni mamlakat hududining 20 % ini egallaydi, uning hissasiga 70 % aholi, 80 % ishlov beruvchi sanoat tarmoqlari mahsulotlari, 50 % tog'-kon sanoati, 50 % qishloq xo'jalik mahsulotlari to'g'ri keladi. Yirik sanoat markazlari : Sidney, Melbrun, Adelaida, Jilong, shuningdek, Nyukasl, Port-Kembla, Broken-Xill, Port-Ogasta va boshqalar.

2. Shimoli-sharqiy iqtisodiy rayoni sharqdagi Brisben shahridan shimoldagi Darwin, markaziy qismidagi Alis-Springs shaharlari oralig'idagi hududni egallaydi. Hudud jihatidan eng katta rayon, ayni paytda sanoat bir muncha sust rivojlangan (ayniqsa iqtisodiy rayonning shimoliy va janubiy qismida). Rayon tabiatida hukmron bo'lgan tropik va subtropik iqlim sharoiti qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun qulay. Dehqonchilikda shakarqamish, tropik mevalar (banan, papaya, ananas va boshqalar.) yetishtirishga, chorvachilikda qoramolchilikka (mamlakatdagi 50 % qoramollar shu rayon hissasiga to'g'ri keladi) ixtisoslashgan. Mamlakatda

yetishtirilayotgan go'shtning 1/3 qismini, qandning 95 % ini ishlab chiqaradi. Boksit, glinezim, neft qazib chiqariladi va bu o'z navbatida rayonda yirik neft-kimyo, mashinasozlik (Brisben), qora va rangli metallurgiya (Meriboro, Maunt-Morgan, Rokgempton, Klonkarri, Maunt-Ayza), oziq-ovqat va yengil sanoat (Kerns, Darwin, Taunszill) tarmoqlarining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

3. G'arbiy iqtisodiy rayon Katta Avstraliya qo'ltig'i sohili bo'yida (Esperans shahri) Shimoldagi Uindem shahrigacha bo'lgan hududni egallaydi. Ma'muriy birlik bo'yicha G'arbiy Avstraliya shtatini o'z ichiga oladi. Yirik shaharlari : Pert (mashinasozlik, oziq-ovqat), Uandovi, Kuinana (qora metallurgiya va kimyo), Jeraldton, Uindem (oziq-ovqat) va boshqalar. Yuqori sanoatlashgan janubi-g'arbiy, sust sanoatlashgan shimoli-g'arbiy, foydali qazilmalarga boy (neft, temir, marganes, oltin) markaziy-g'arbiy mintaqalarga ajratiladi.

4. Tasmaniya rayoni – mamlakat janubidagi Tasmaniya orollaridan iborat bo'lib, qulay va mo'tadil iqlim (issiq namli va doimiy bir xil) mintaqasida joylashgan, gidroresurslarga, foydali qazilmalarga (mis, qalay, rux, temir rudasi, toshko'mir va boshqalar.) boy. Turizm, qishloq xo'jaligi (bog'dorchilik, keyingi yillarda ko'knorimak yetishtirish), gidroenergetika, rangli metallurgiya (temir, mis, polimetall rudalari hisobiga), yog'ochga ishlov berish tarmoqlari rivojlangan. Oziq-ovqat sanoatida baliqchilik katta o'rin tutadi. Xobart (rangli metallurgiya va oziq-ovqat), Bell-bey (rangli metallurgiya), Snoup (elektroenergiya), Kajeve (oziq-ovqat va yog'ochga ishlov beruvchi sanoat) rayonning asosiy va savdo shaharlari hisoblanadi⁴².

I.3. Moddiy va ma'naviy madaniyati hamda oila va oilaviy munosabatlari.

Avstraliyaliklarning ma'naviy madaniyati, diniy e'tiqodi ishlab chiqarish kuchlarining darajasi va ijtimoiy tuzumiga mos kelgan. Ularning tasavvurida butun tevarak-atrof g'ayritabiiy kuchlar, turli maxluq va arvohlar bilan to'la. Avstraliyani odatda totemizm vatani deydilar. Eng ibtidoiy din shakllaridan biri hisoblangan totemizm falsafasi bilan uyg'unlashib ketgan kishilar, urug' yoki qabilalar o'zlarini

⁴² [www // ziyounet. uz](http://www.ziyounet.uz)

muayyan moddiy buyumlar, asosan, ayrim jonivorlar yoki o'simliklar bilan yaqin qavm-qardosh, deb biladilar va shunga ishonadilar. Shuning uchun ham, ayrim urug'lar totemistik guruh hisoblanib, hayvonlar yoki o'simliklarning, ba'zan jonsiz buyumlarning nomi bilan atashganlar. Shu nomdagi hayvon yoki o'simlikka - bobo, dada yoki aka-uka qarindosh deb ishonilgani uchun ularni o'ldirish, iste'mol qilish qattiq man etilgan.

Markaziy Avstraliyada afsonaviy ajdodlarning arvohlar muqaddas buyumlarga ko'chirilgan. Bunday buyumlar odatda sehrli belgilar chizilgan taxtacha - churingidan iborat bo'lib, uni maxsus joyga yashirganlar. Har bir totemistik guruh o'zining churingisi yashiringan muqaddas joyga ega bo'lgan. O'sha yerda yilda bir marta maxsus marosim (intichiuma) o'tkazilgan.

Avstraliyaliklar orasida turli sehrgarlik duogo'ylik, ziyon yetkazish magiyasi juda keng tarqalgan. Dusiiman qabilalar turli duolar bilan ziyon yetkaza bilish qobiliyatiga ega, degan tasavvurlar muhim rol o'ynagan. Tub aholi tushunchasida dushman uzoqdan ziyon yetkazmoqchi bo'lgan kishiga uchi yo'nilgan yog'och, o'tkir suyak to'g'rilab nafratli duo o'qisa shu kishi yo kasal bo'lar, yo o'lar emish. Sehrgarlik bilan birovni sovtutish yoki maftun qilish (sevgi magiyasi), yomg'ir yog'dirish (ob-havo magiyasi), davolash (duo-xonlik magiyasi) kasbini egallagan maxsus folbin va duo xonlar shug'ullangan⁴³.

Magik tasavvurlarga nisbatan Avstraliya qabilalarida animizm (jonga ishonish) kam tarqalgan. Ularda kosmogonik afsonalar ham rivojlangan. Jonning narigi dunyoda yashashiga ishonganlar. Avstraliyaliklarning diniy e'tiqodida hukmron va qaram bo'lish tushunchalari yo'q. Ular o'z totemlariga itoat qilib tiz cho'kmagan. Bu elat na buyuk arvoh, na xudo to'g'risida tasavvurni, na qurbonlik, na ibodatxona, na avliyoni bilganlar. Faqat turli sehrgarlik marosimi va odatlar, kohinlar o'rniga folbin va duoxonlar, muqaddas avliyolar va machit o'rniga buyumlarning saqlanish joylari ibtidoiy dunyoning asosiy ifodasi edi.

Tub aholi tillarini lingvist A. Kepella olti yirik turkumga bo'ladi. 1) Janubi-sharqiy Avstraliya tillari; 2) Yangi janubiy Uels tili; 3) Shimoliy va Markaziy

⁴³ Buruk C.I. Naselenie mira. M., „Nauka“, - 1981. 116 s

Kvinsland tili; 4) Markaziy va Janubi-gʻarbiy Avstraliya tili; 5) Arixemlend tili; 6) Shimoliy va shimoli-gʻarbiy hududdagi juda koʻp boshqa tillar⁴⁴. Barcha tillar oʻz tuzilishi, aniqligi va soʻz boyligi bilan alohida xususiyatga ega. A.Kepellanning bu klassifikatsiyasi hali takomillashmagan va koʻpchilik olimlar tomonidan qabul qilinmagan. Pater V. Shmidt Avstraliya tillarini oʻzaro bir-biriga yaqin boʻlgan ikki janubiy va shimoliy guruhlariga boʻladi. Aytganimizdek, har bir qabila oʻz tili va shevasiga ega boʻlgan. Avstraliya tillarining umumiy soni ham qabilalar singari 500 dan ortiq. Ular tillarning aniq tuzilishi va ravshanligi, grammatik turlarning boyligi bilan ajralib turadi. Masalan, aranda tilida 10 mingdan ortiq soʻz mavjud. Avstraliyaliklarda ogʻzaki soʻzlardan tashqari qoʻlni har maqomda qimirlatish yoʻli bilan ifodalovchi imo-ishora tili ham mavjud boʻlgan. Shu bois ham ular uzoqdan, ovoz yetmaydigan masofada bir-birlari bilan qoʻl harakati, imo-ishora orqali oʻz fikrlarini bayon qila olganlar. Ayrim tadqiqotchilarning hisobiga qaraganda, aranda qabilasi 450 dan ortiq imo-belgilarini oʻzlashtirib ular orqali ayrim buyumlardan tashqari, hatto kishi harakati, ijtimoiy atamalar, toʻliq gaplarni ham ifodalay bilganlar. Baʼzi bir fikrlar esa juda uzoqdan qoʻl bilangina emas, balki kalla va badan harakati bilan ham yetkazilgan. Avstraliyaliklarda yana «signallar tili» ham mavjud boʻlib, narsalarni aniq belgilar yordamida ifodalaganlar□. Misol uchun, oʻz joylarini tashlab ketayotganlarida oyoqlari bilan qumga chiziq chizganlar va chiziqning uchiga xivich tiqib qoʻyganlar. Chiziqning yoʻnalishi va uning uzunligi shu guruhning qaysi tomonga va qancha masofaga ketganligini bildirgan. Bu belgi oʻz guruhlarining kechikib qolgan aʼzolari va mehmonlar uchun ham qilingan. Shuningdek, xavf yoki motam signallari keng tarqalgan.

Avstraliyada xalq ogʻzaki ijodi dastavval rivoyatlar, afsona va ertaklar, ashula va raqslarda namoyon boʻlgan. Afsona va rivoyatlar, asosan, totemistik tasavvurlar bilan bogʻliq boʻlsa ham muqaddaslashtirilmagan, tinglovchilar ularning haqqoniyligiga ishonishmaydi, kulgi va hazil bilan qabul qilishadi. Afsona personajlari (kishi yoki hayvon) hech qanday qahramonlik koʻrsatmaydi, odatdagicha koʻchib yuradi, ov qiladi, yeydi, yotadi, baʼzan urushadi va bir-birini

⁴⁴ Jabborov I. Jahon etnologiyasi asoslari.-T.2005. 69-bet.

o'ldiradi.

Musiqqa kuylari odatda raqslarga jo'r bo'ladi. Ularning raqslari ko'pincha jamoa xarakterida bo'lib, turli ma'noni tasvirlaydi, ayrimlari totem bilan bog'liq dramatik afsonalarni ifodalaydi. Barcha o'zaro uchrashuvlar, tadbir va marosimlarda raqs ijro etilgan.

O'ziga xos tasviriy san'at ham turli ijtimoiy va diniy ehtiyojlarga bo'ysundirilgan. Unda ayrim primitiv, realistik tasvirlar bilan bir qatorda, har xil shartli belgilar - chiziq, nuqta, doira kabilar totemistik tasavvurlarni ifodalagan. Turli naqshlar va ornamentlar qurollarga, marosimlarda kishi badaniga, sirli belgilar esa buyumlarga, qoya va toshlarga yasalgan. Tasmaniyaliklar ham bezaklarni va badan bo'yashni bilganlar. Ancha oddiy kishilarning bilimlari tevarak-atrofdagi tabiiy sharoitga moslashgan bo'lib, ishlab chiqarish tajribasiga bo'ysundirilgan. Avstraliyaliklar o'z guruhi ko'chib yuradigan hududni juda yaxshi bilganlar, bepoyon dashtlarda suv, yo'l va taom topish usullarini egallaganlar. Tabiblarning sehrli tajribasidan tashqari har bir avstraliyalik ayrim kasallik va yaralarni davolash yo'llarini ham bilgan. Ular ibtidoiy tabobat qo'lga kiritgan barcha bilimlardan foydalanganlar, maxsus tayyorlangan tarkibiy dorilarni ham, o'simlikdan qaynatilgan va kukun holidagi dorilarni ham ishlatganlar, qon oqishni to'xtatish, singan joyni tuzatish kabi jarrohlik usullaridan xabardor bo'lganlar.

Avstraliyaliklar o'z vatanining botanika va zoologiyasini yetarli ravishda egallab, har bir hayvon va o'simlikka nom berganlar. Ular anatomiya bo'yicha (asosan, suyaklar) yetarli bilimga ega bo'lsalar ham fiziologiya sohasidagi tasavvurlari nihoyatda xayoliy bo'lgan. Masalan, jinsiy aloqa natijasida bola tug'ilishi o'rtasidagi bog'lanishni mutlaqo bilmaganlar. Diagnostika sohasida ham bilim juda past bo'lsa-da, turli kasalliklar orasidagi farqni ajrata bilishgan. Umuman, o'tkir kuzatuvchilik va tevarak-atrofni, tabiatni chuqur o'rganish natijasida avstraliyaliklar va tasmaniyaliklar ishlab chiqarishga, odam sog'ligi va rivojiga zarur bo'lgan belgilarni, dastlabki ijobiy bilimlarni o'zlashtirganlar. Bu

to'g'ridagi ma'lumotlarni turli davr olim va sayyohlari yozib qoldirishgan⁴⁵.

Fratriya (grekcha «birodarlik» degan ma'noni anglatadi) nikoh tartibiga binoan bir «pallaga» mansub bo'lgan odamlar o'zaro nikohlana olmaydi, balki ular qarama-qarshi «pallaning» odamlari bilan nikohlana olishi mumkin, boshqacha qilib aytganda er va xotin doimo qabilaning har xil «pallasiga» mansub bo'lishi kerak edi. Misol uchun, bir avstraliya qabilasining ikki «nikoh sinfi»ga — kroki va kumetaga bo'linishi fratriy sistemasining namunasidir. Bu sistema fanda dual ekzogamiya deb ham aytiladi. Mazkur tartibga binoan bir «palla» yoki bir urug'ning a'zolari o'rtasida nikohning bo'lishi mumkin emas, tug'ishgan opa va singillar o'rtasida ham, shuningdek, yon tomon qarindoshlar o'rtasida ham (ona tomondan) nikoh bo'lishi istisno etiladi, ya'ni katta va kichik avlodni bir-biri bilan nikohlanishiga yo'l qo'ymaydi. Shunday qilib, bir fratriya (yoki shundagi urugiardan biri) boshqa fratriyaga nisbatan (yoki undagi boshqa urug'ga) «ona fratriyasi» (yoki urug'i), ikkinchisi esa «ota fratriyasi» (yoki urug'i) hisoblanadi⁴⁶. Har bir fratriya o'zining nomiga ega bo'lib, asosan, uning ajdodi hisoblangan hayvon nomi bilan bog'liq bo'lgan. Rus olimlarining fikricha, avstraliyaliklarning fraternal sistemasi urug'chilik tuzumining dastlabki shaklidir.

Urug' yoki fratriya ajdodining ayrim hayvon nomi bilan atalishi Avstraliyada keng tarqalgan totemistik tasavvurlar bilan bog'liq. Ular orasida iqtisodiy tabaqalanish bo'lmagan. Har bir lokal guruh bir avlod sifatida yoshiga va jinsiga qarab bo'lingan va mehnat taqsim qilingan. Erkaklar ishlab chiqarish qurollari yasaganlar, ov qilganlar, oilasini qo'riqlaganlar, ayollar esa terimchilik qilganlar, bola boqqanlar, ov va terim mahsulotlariga ishlov berib, ovqat tayyorlaganlar. Ijtimoiy mahsulotlar teng bo'lingan, shaxsiy mulkni bilmaganlar. Ijtimoiy va nikoh-oila munosabatlari murakkab odat va dasturlarga asoslangan maxsus tizimga ega bo'lgan.

Nikoh va oila munosabatlarida fraternal va urug' cheklanishlardan tashqari seksiya yoki «nikoh sinflari»ga bo'linish muhim ahamiyat kasb etgan. Masalan,

⁴⁵ www.n.b.g.t.intal.uz.

⁴⁶ Salimov. T. Avstraliya va Okeaniya xalqlari.-T., 2003. bet-24.

qabila I va II fratriyaga bo'lingan bo'lib, I fratriyada A va V seksiyalari, II fratriyada esa V va G seksiyalari mavjud. A seksiyasidagi erkak faqat V seksiyasidagi ayolga uylanishi mumkin, ularning bolalari G seksiyasi (ona urug'i hisobi)ga tegishli; V seksiyasidagi erkak faqat G seksiyasidagi ayolga uylanishi mumkin, ularning farzandlari V seksiyasiga tegishli. Shunday qilib, nabiralari ota tomondan bobo seksiyasiga, ona tomondan buvi (momo) seksiyasiga tegishli hisoblangan. Avstraliyalik aborijen rassom Dik Rafsi o'z biografiyasida yozadi: «Meni dadamning aka-ukasi mening tog'am emas; ular ham menga dada. Uning bolalari ham menga qarindosh, aka-uka va opa-singillarim hisoblanadi. Dadamning opa-singlisini men amma deyman, uning bolalari esa ammavachcha bo'ladi. Oyimning opa-singlisini men oyi deyman, ularning bolalarini aka-uka va opa-singil, deb hisoblayman. Oyimning aka-ukalari menga amaki bo'lib, meni erkaklar qatoriga o'tkazish (initsiatsiya) marosimiga tayyorlash va tarbiya qilishga javob beradi. Uning bolalari menga amakivachcha singillarimga uylanishim mumkin, ayniqsa, ona urug'idan, ammavachchalarga»⁴⁷. Shimoliy Avstraliyada U. Cheslingning ta'rificha, yigit ona tomonidan aka-ukasining qiziga uylanishi mumkin, ammo dadasining singlisi qiziga uylanishi qat'iyon taqiqlangan. Mazkur nikoh tartiblarini buzish juda katta gunoh hisoblangan va kim uni buzsa yo qatl qilingan, yo urug'dan haydalgan⁴⁸.

Voyaga yetgan o'spirinlarni kattalar guruhiga o'tkazishda maxsus initsiatsiya marosimi amalga oshirilgan. Iqtisodiy yoki sotsial tabaqalanish bo'lmaganligi tufayli avstraliyaliklar jinsiga qarab bo'lingan. Shuning uchun ham, masalan, o'g'il bolalarni ovchilar guruhiga o'tkazish uchun bolaning yoshligidan tarbiyalashgan. Dastlab, ular voyaga yetgach boshqalardan ajratib qo'yilgan va ba'zi taomlarni iste'mol qilish man qilingan, tishlarini urib sindirish, badanini jarohatlash, o'tda tutatish kabi jismoniy sinovlardan o'tkazilgan. Bir necha yilga cho'zilgan initsiatsiya marosimlarida yoshlarni qabila urf - odatlari, afsona va rivoyatlari bilan tanishtirganlar, qariyalarni hurmatlash va tartib-qoidalarga qattiq rioya qilishni,

⁴⁷ Dik Rafsi. Luna i raduga.-M., „Nauka“, -1978. 21 s.

⁴⁸ Chesling U. Sredi kochevnikov Svernoy Avstralii.-M., 1961. 83s.

ovchilik va boshqa kasb sirlarini egallash mahoratini o'rgatganlar.

Sunnat marosimi Dik Rafsi ma'lumotlariga qaraganda, qabila a'zolarining maxsus maydoniga to'planishi bilan boshlanadi, u yerga beliga to'qilgan belbog' bog'langan bolani olib kelib erkaklar orasiga o'tkazadilar. Ikki kun davomida erkak va ayollar ashula aytib raqsga tushadilar. Uchinchi kuni ertalab bolaning qarindoshlaridan uch kishi yerga cho'zilib yotadi, ularning ustiga bola yotqizilib, baliq suyagidan ishlangan maxsus pichoq bilan sunnat qilinadi va kesilgan joyga kul sepiladi. Kesib olingan qismi choy daraxti qobig'iga o'rab qo'yiladi va olti oydan keyin uni bolaning o'ziga sovg'a qiladilar⁴⁹. Sunnat qilingan bola o'rnidan turib, o't yoqilgan o'choq oldida tiz cho'kadi va kesilgan joyini quritadi.

Marosim tugagach, o'spirin bir oz vaqt yolg'iz yashaydi, muayyan ovqat yeydi, boshqalar bilan faqat imo-ishora bilan gaplashadi. U amakisining tarbiyasida yarim yil davomida jamoadan ajralgan holda yashaydi. Amakisi unga ov sirlarini, qabila qonunlarini, nayza va boshqa qurollardan foydalanish usullarini o'rgatishi zarur.

Shu muddat o'tgach, bolani dengiz sohiliga olib borib cho'miltiradilar, turli sovg'alar in'om qiladilar, ayollardan biri uning boshiga to'r soladi. Demak, bola endi ovchilar qatoriga o'tgan hisoblanadi. O'sha kecha yana bazm boshlanadi, ashula aytilib, muqaddas o'yinlar ijro etiladi. Ashulachi oldiga o'tkazilgan o'spiringa yana sovg'alar beriladi. Eng birinchi sovg'a sifatida sunnatda kesilib quritilgan va choy daraxtiga o'ralgan falos qismi topshiriladi. Keyin nayza, bumerang, to'r va boshqa in'omlar beriladi. Oxirida qaysi qiz unga kelin bo'lib atalganligi e'lon qilinadi. Shuning bilan sunnat marosimi tugaydi, o'spirin endi ovchi erkaklar guruhining to'liq huquqli a'zosi hisoblanadi. Alalxusus, qizlarni ham ma'lum yoshga yetganlarida muayyan marosimlar o'tkazib oilaviy hayotga tayyorlaganlar. Barcha dastur va marosimlarni o'tkazishda tajribali va hurmatli, yoshi katta mo'ysafidlarga tayanganlar. Ular bu marosimlarda rahbarlik qilganlar.

Qabilalar orasidagi mojaro va kelishmovchiliklar ba'zan urushga olib kelgan.

⁴⁹ Dik Rafsi. Luna i raduga.-M., „Nauka“, -1978. 25 s.

Urushga odatda qabila hududini egallash, xotinlarni olib qochish, sehrgarlikda ayblash, urug‘doshlarni o‘ldirish va hokazolar sabab bo‘lgan. Xun olish avlodma-avlod o‘tib kelgan. Ammo qirg‘inbarot urushlar juda kam bo‘lgan. Odatda qabilalararo to‘qnashuvlar va yoki janjallar bir necha qurbonliklar yoki yaradorlar paydo bo‘lishi bilan to‘xtatilib, tinchlik muzokaralari boshlangan va maxsus marosimlar bilan tugagan.

Qabilalar orasidagi munosabatlar ko‘pincha tinch-totuv xarak-terga ega bo‘lgan. Qabilalar o‘rtasida tosh qurol-aslaha va buyumlar, noyob xomashyo (bo‘yoq, narkotik o‘simlik, chaqmoqtosh va hokazo) almashib turilgan. Har bir qabilaning o‘z almashuv mahsuloti, uning o‘rniga oladigan moli ham aniq bo‘lgan. Almashuv savdosi odatda maxsus marosim va bayramlar bilan nishonlangan⁵⁰.

Avstraliyaliklar madaniy jihatdan boshqa qit’a aholisiga nisbatan qoloq bo‘lsalarda, ulardagi xalq ijodiyoti namunalari o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Avstraliyaliklar xalq og‘zaki ijodi folklor nisbatan yaxshi o‘rganilgan. Tadqiqotchilar turli afsonalar, ertaklar, hikoyalarni yozib qoldirganlar. Ulardan totemlari haqidagi rivoyatlar, dunyoning paydo bo‘lishi, osmon yoritgichlari, odamlarning vujudga kelishi, to‘fon, g‘ayritabiiy kamalak ilon xaqida va boshqalarni misol keltirish mumkin. Avstraliyaliklar ertaklari juda ham sodda bo‘lib unda, hayvonlar, ba’zida afsonaviy yarim hayvon, yarim odamlar viloyat bo‘ylab sayohatga chiqadi, ov qilishadi, taom yeb uxlashadi, urushadilar, bir - birlarini o‘ldiradilar, umuman ertakni so‘zovchilar kabi hayot kechirishadi. Avstraliyaliklar musika san’atining asosiy sohasi qo‘shiq aytish bo‘lib, unga ritm harakatlari bilan jo‘r bo‘lishadi.

Musika asboblari Avstraliyada deyarlik uchramaydi. Ba’zida qo‘shiqchi ovozini kuchaytirish uchun yog‘ochdan yasalgan karnaysimon uzunligi 60 sm, eniga 5 smli trubadan foydalaniladi. O‘yinlar muzika jo‘rligida olib borilgan. Aborigenlar o‘yin-raqslari yevropaliklar tomonidan - korrobori deb nomlangan⁵¹. Avstraliyaliklar o‘yinlariga xos asosiy belgilar, bu ularning guruhiyligi, tasviriyligi

⁵⁰ Takarev S.A. Rannie formi religii... 81 s.

⁵¹ Salimov T. Avstraliya va Okeaniya xalqlari.-T., 2003. 30-bet.

ifodali ekanligi hamda ularga katta e'tibor qaratilganidadir. Raqsda erkaklar ov sahnalarini tasvirlashga harakat qilganlar. Go'zallikka intilish avstraliyaliklarni qalqon palitsa, bumeranglarini, qoyalarga, toshlarga ajoyib tasvirlarni tushurishga ilhomlantirgan. Badiiy tasvirga tasavvurlarning qo'shilishi esa muqaddas suratlarning yaratilishiga asos bo'lgan. Natijada tasviriy san'at 2 ta: muqaddas, diniy – sehrgarlik mavzusidagi va estetik zavq bag'ishlovchi bezak hamda rasmlarga bo'linadi. San'atning yana bir turi badanni naqsh va rasm-chizmalar bilan bezashdir. Uning davomi sifatida avstraliyaliklar qurollari va buyumlari (churinga, vaninga va hokozolarni), qoya hamda g'orlarda ajoyib tasvirlar qoldirganlar. Kesish, uyib rayem solishdan tashqari, aksari hollarda bo'yoq bilan tasvir tushirilgan Buyeklar turi cheklangan bo'lib: oq tuproq yoki gipedan oq bo'yok sifatida, oxradan - sariq va qizil, ko'mirdan-qora bo'yoq sifatida foydalanilgan. Boshqa ranglar bo'lmaganidan ularning nomlari ham avstraliyaliklar tillarida uchramaydi.

Avstraliyaliklar bilimlari yashab turgan joylari, undagi oziq va o'simliklar, hayvonot olamini mukammal bilishga yo'naltirilgan. Tadqiqotchilar aborijenlarning kimsasiz dashtda iul, suv, taom topa olishlariga alohida e'tibor qaratishgan. O'zlari kuchib yuradigan hudud jamoaning qadr-don uyidek bo'lib undagi har bir toshni, daraxtni, suv havzasini yaxshi bilganlar. Ularning amali botanikadan ajoyib bilimlari bo'lib aborijenlar yuzlab o'simlik, daraxt, butalar navlarini ularning foydali xususiyatlari hamda oziq sifatida ishlatish usullarini bilishgan. Ko'chmanchi, daydilikdagi hayot tarzi tabiiy ilmiy bilimlarning taraqqiyotiga xalaqit bergan. Lekin ovchilar guruhlari, jamoalarining doimiy ijtimoiy-iqtisodiy aloqalari, qabilalararo uchrashuvlar, o'zaro almashinuvlar odamlar dunyoqarashining kengayishiga xizmat qilgani, shubhasiz⁵².

Avstraliyaliklarning 300 dan ortiq o'simliklardan oziq sifatida foydalana olishlari ham shundan darak beradi. Avstraliyaliklar tomonidan qo'llaniladigan eng oddiy meditsina va jarrohlik uslublari ham to'la asoslidir. Xususan, qo'l-oyoqning yaralanishi sinishi, chiqishi hollarida ular o'zlarini davolashni bilishib tabib

⁵² Elkin A. Korennoe naselenie Avstralii. –M., 1953.131 s.

va folbinlarga hatto murojaat ham qilmaganlar. Tadqiqotchi Arobetsning qayd etishiga bu usullarning ayrimlari yevropa meditsinasida ham tan oldi. Yarani mayin daraxt po'stlog'i bilan bog'lash, qon to'xtatuvchi vosita sifatida ko'mir kukuni, kul, iguana yegidan foydalaniladi. Qo'l-oyoq singanda yog'ochdan taxtakach daraxt po'stlog'i bilan mahkam bog'langan. Ilon chaqqanda, o'sha joyni surib tishlab chaqilgan joyni qattiq bog'lash⁵³.

Yarani kesish usullarini qo'llashgan. Bosh orevmatizmida tanadan kesib qon chiqarishni bilishgan. Og'rikan tishni ip bilan bog'lab sug'urib olishgan. Ba'zida narkotik moddasi mavjud o'simlik («ilon o't») kuyib og'riqni yo'qotish usulidan foydalanilgan. Teri kasalliklar unga tuproq qizil oxra, ba'zi ildizlardan olingan suyuqlik yoki siydik bilan ish tez davolangan.

Shamollagan, revmatik kasallarni terlash bilan davolashga harakat qilingan. Shu maqsadda janubi - sharqda yashaydigan qabilalar chuqur qazib, uning ichini bilan to'ldiradilar, ustidan xoql yaproqlar bilan yopishib, chuqur ustini tom qilishadi, yaxshilab o'ralgan kasal, uning ustiga yotqizilgan.

Oshqozon og'riganda asal, evkalipt shirasi, kastor yeyish uchun turli o'simliklardan tayyorlangan nastoyka (ichkilar) berishgan. Avstraliyaliklar meditsinasi ularning sharoitiga moyil xalq tajribasidan o'tib amalda sinalgan uslublarga asoslangani, tabiiy.

Avstraliya adabiyoti ingliz tilida (aborigenlarning o'z yozuvi yo'q). XIX asrning I yarmida metropoliya adabiyoti ta'sirida rivojlandi. Milliy realistik adabiyot 90-yillardagi ijtimoiy-siyosiy yuksalish muhitida yuzaga keldi. Unga T. Kollinz, X. Louson va boshqalar asos soldi. 1-jahon urushi voqealari Avstraliya adabiyotining yanada ravnaq topishiga ko'maklashdi. Bu davr asarlarida jabr-zulm fosh qilindi, aborigenlarning fojiasi aks ettirildi (K. S. Prichard, X. X. Richardson, E. V. Palmer, K. Tennant, B. Penton va boshqalar). A. Marshall, J. Morrison prozasida, B. Adamson, M. Gilmor poeziyasida jamiyat nuqsonlari tanqid qilindi,

⁵³ Ashirov A. Etnologiya. –T., 2014. 208-bet.

milliy mustaqillik g'oyalari tarannum etildi. Irqiy kamsitish adiblarning muhim mavzusidir. Bunga F. B. Vickersning «Sarob» (1955), D. Kyuzekning «Quvg'indagi quyosh» (1955) va «Qora chaqmoq» (1964), G. Keysining «Snoubol» (1958), D. Styu-artning «Yyendi» (1959),

M. Dyurekning «Uni saqla, ona yurtim» (1955) asarlari va boshqa asarlar misol bo'ladi. Dramaturgiyada hozirgi zamon muammolariga murojaat etilgan: A. Turner, S. Lokk-Elliot, K. Dankan, D. Kyuzek, O. Grey, R. Louler, M. Brend pyesalari.

Avstraliyada me'morlik XVIII asr oxirlarida ingliz klassitsizmi va yangi gotikasi ruhida rivojlana boshladi. XIX asrning 2-yarmidan Sidney, Melburn, Brisben, Adelaida shaharlarida to'g'ri burchakli ko'p qavatli uylar qurildi. XX asrning 20-yillaridan A. me'morligida yangi oqimlar, asosan, konstruktivizm yoyila boshladi (poytaxt Kanberra, 1913—1927, me'mor U. Griffin). Zamonaviy inshootlar orasida Sidneydagi opera teatri (me'mor G. Zaydler), Melburndagi olimpiada stadioni (1956) va boshqalar diqqatga sazovor.

Avstraliya badiiy madaniyati ikki asosga ega. Ularning biri aborijenlar san'ati (o'ymakorlik, bumeranglarga naqsh solish, g'orlardagi qoya toshlarda inson qiyofasini tasvirlash), ikkinchisi — yevropacha madaniyat. XVIII-asrning oxiri — XIX-asrning boshlarida Avstraliya tabiatining aynan aniq tasviri (K. Martene, A. L. Byuvelot), hajviy grafika (S.T.Xill) paydo bo'ldi. XIX asr oxiri — XX asr boshlarida hayotiy rang tasvir milliy maktabi rivojlandi (rassomlar J. U. Lambert, F. Mak-Kabin, N. Kunion, haykaltarosh P. Dadsuel). XX asrning 40-yillarida aborijenlarning yangi san'ati vujudga keldi (Namatjir va Parerulya oilalari) shu kabilar⁵⁴.

⁵⁴ www.n.b.g.t.intal.uz

I.BOB bo'yicha xulosa. Dunyodagi eng kichik qit'a yoki eng katta orol hisoblangan Avstraliya eng qadimiy davrlarda qurg'oqchilikdan ajralib qolib XIX asrgacha jonli qadimiy muzey shaklida saqlangan. Avstraliyaning etnik tarixi, an'anaviy xo'jaligi, moddiy va ma'naviy madaniyati hamda oila va oila munosabatlari o'ziga xosligi doimo tadqiqotchilarni hozirgacha hayajonga soladi.

Avstraliya qit'a aholisini o'rganishning murakkabligi shundaki, tasmaniyaliklarning jismoniy tuzilishi tili va madaniyati, boshqa biron xalqqa o'xshamaydi, yani boshqa xalqlarga qiyos qilish imkoniyati yo'q. Shuning uchun ularning etnogenizi to'g'risida bir yarim asrdan buyon tortishuvlar, turli xil mulohazalar davom etib kelmoqda. Ammo Avstraliya qit'asi antropogenezga kirmasligi, ya'ni odamzodning vatani emasligi aniq. Demak bundan ko'rinib turibdiki, avstraliyalik va tasmaniyaliklarning qadimiy ajdodlari kelgindilar bo'lgan. XIX- XX asrda o'tkazilgan ba'zi antropologik arxeologik tadqiqotlarda ularning qayerdan va qachon kelganligi to'g'risida bazi ma'lumotlar ayon bo'lgan. Mustamlakachilar kelgunga qadar avstraliyaliklar butun qit'a bo'ylab tarqoq holda ko'chib yurganlar. Yaqin davrlargacha avstraliyaliklar va qirilib ketgan tasmaniyaliklar daydi ovchilik va termachilik bilan shug'ullanib kelganlar.

Avstraliya va Tasmaniyada mustamlakachilar bilan tub aholi orasida birinchi davrlardayoq jiddiy to'qnashuvlar boshlangan. Chunki yevropaliklar ovga boy yerlarni egallab mahalliy qabilalarni haydab chiqara boshlaganlar, qarshilik qilganlarni qirganlar. Shunday qilib, qisqa muddat ichida, asosan, Britaniya va Irlandiyadan kelgan mustamlakachilar tub aholining eng serunum, tirikchilik uchun zarur bo'lgan yerlardan o'lkaning ichki qismi tomon- bepoyon suvsiz dashlarga yoki shimoldagi changalzor to'qaylarga siqib chiqarib, ularni tabiiy qirg'inga hukm qilganlar. Tasmanianing tub aholisi 1870-yillarga kelib butunlay qirilib ketgan.

Hozir Avstraliyada aboriginlar 100 mingga ham yetmaydi, ya'ni mustamlakachilik arafasidagi tub aholi soniga nisbatan deyarli to'rt-besh barobar kamayib ketgan. Ular nihoyatda og'ir sharoitda hayot kechirmoqda. Ayniqsa, daydichilikda hayot kechirmoqda. Ayniqsa daydichilikda turmish kechirayotgan

qabilalar achinarli ahvolda yashamoqdalar.

II BOB. Okeaniya xalqlarining etnomadaniyati.

Okeaniya - Tinch okeanning markaziy va g'arbiy qismlaridagi orollar to' dasidan iborat bo'lib, uning tarkibiga 10 mingga yaqin, asosan, mayda orollar kiradi. G'arbiy qismi Avstraliya va Malay arxipelagiga yondosh. Okeaniya Avstraliya bilan bir qit'a hisoblanadi. Orollarning umumiy maydoni 1,26 mln kv km shuning 80 foizi Yangi Gvineya va Yangi Zelandiya orollariga to'g'ri keladi. XVI asrda Okeaniyaga ko'chib borib o'rtnashishi jarayonida Tinch okeanning o'zlashtirganlar. Ularning tajribasidan keyinchalik yevropaliklar ma'lum darajada foydalanganlar. Okeaniya orollarining yevropaliklarga ma'lum bo'lishi F.Magellan ekspeditsiyasidan (1521) boshlandi. XVI asr oxirlarigacha ispan va portugal dengizchi sayyohlari mikroneziya, solomon va melaneziyadagi boshqa orollarni topdilar. 1642- 1643 yillarda A.Tasman ekspeditsiyasi yangi zelandiya, Tonga va Fiji orollarini tadqiq qildi. XVII asr oxiri- XVIII asr boshlarida ingliz va fransuzdengizchi sayyohlari Okeaniyaning markaziy va sharqiy qismidagi orollarga yetib bordilar. J.Kuk tomonidan Tuamotu, Tonga, Yangi Gibred, Yangi Kaledoniya, Gavayi orollari va boshqalar kashf etildi. XIX asrda Okeaniyani tadqiq qilinishiga I.F.Kruzenlitrn, Y.F. Lisyanskiy, F.F. Bellinsgauzen, M.P. Lazarev, O.YE. Kotsebu, F.P. Litke va b. hissa qo'shdilar. N.N.Mikluxaa-Maklay Okeaniyadagi Yangi Gvineya va boshqalar orolar axolisining antropologiya va etnografiyasi xo'jaligi to'g'risida muhim ma'lumotlar to'plagan.

Axolisi 31mln kishi (2001, Avstraliya bilan birga) Okeaniyaning tub joy aholisi 4 yirik guruhga bo'linadi: papuaslar,melanezlar, polinezlar va mikronezlar. Okeaniyaga yevropaliklar kela boshlagan vaqtda u yerda taxminan 3,5 mln aholi yashar edi. Begunoh o'ldirish chetdan olib borilgan yuqimli kasaliklar va boshqalar natijasida aholi keskin kamaygan XIX asr oxiri va XX asr boshiga kelib aholi soni yana tez o'sa boshladi.

Etnik tarkibiga Okeaniyada irqi, tili, tarixi va madaniyati jihatidan o'zaro keskin farq qiluvchi xalqlar yashaydi. Ularni soni jihatidan 2 qismga: mahalliy aholi va ko'chib borgan aholiga bo'lish mumkin. Okeaniyaning mahalliy aholisi

polineziya, melaneziya va mikroneziya sentropologik tiplarga mansub. Mahalliy aholining bir qismi malay- polinez tillarida boshqa qismi papua tillarida soʻzlashadi. Papua tillari bir necha guruhlarga boʻlinadi. Lekin Okeaniya xalqlarining til guruhlari ularning mavjud etnik va madaniyati jihatidan yaqinligiga toʻla muvofiq emas. Etnografik adabiyotlarda ularni koʻpgina tarixi va madaniyati oʻxshash oblastlar boʻyicha guruxlashtiradilar. Okeaniyaning mahalliy boʻlmagan xalqlar ingliz, yangi zelandiyalik, fransuz (Yangi Kaledoniya), amerika orollari, hind (Fiji orollari) va boshqalardan iborat. Diniy jihatdan Okeaniya aholisining koʻpchiligi xristian.

Okeaniyaning eng qadimgi aholisi Okeaniyaga bundan 20-30 ming yillar avval Janubiy sharqiy Osiyodan borib oʻrnashgan. Keyinroq kelgan qabilalarning papuaslar bilan qoʻshilishidan melanezlar paydo boʻlgan. Mikroneziya va Poleniziyaga aholi milodning 1 ming yilligida koʻchib borgan. XVI asr boshida Okeaniyada yashovchi xalqlar jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlarida boʻlgan Yevropaliklar uzoq vaqt Okeaniyaga qiziqmadilar koʻpgina orollar yevropaliklarga XVIII asrning 2-yarmida maʼlum boʻldi. Okeaniya orollarini dastlab Gʻarbiy Yevropa davlatlari keyinroq AQSH egallay boshladi. 1-jahon urushi (1914-1918) dan keyin Okeaniyada siyosiy tashkilotlar vujudga keldi⁵⁵.

2-jahon urushi (1939- 1945) davrida Okeaniya urush harakatlari maydoniga aylandi. Okeaniyada rivojlangan davlatlarning harbiy bazalari koʻpaydi. Urushdan keyin Okeaning xalqlarining mustaqillik uchun kurashi tashkiliy tus oldi. Koʻpgina orollar mustaqil davlatlarga aylandi. Okeaniyaning siyosiy boʻlinishi haqida 489 betdagi jadvalda qarang Okeaniya tillari avstronez tillariga mansub malayziya - polineziya tarmogʻining sharqiy tarmoqchasiga kiruvchi tillar. Okeaniya tillar taxminan 450 ta boʻlib, ularda 2,5 mlndan ortiqroq kishi soʻzlashadi. Okeaniyaning Mariana orollaridan, Yangi Gveniyadan sharq tomonroqda joylashgan hududlarida tarqalgan. Okeaniya tillari shartli ravishda 21 guruhga, guruhlar esa guruhchalarga boʻlinadi. Koʻpchilik Okeaniya tillarning fonologik tarkibi sodda: 3 qator portlovchi undoshlari: jarangsiz, jarangli, hosil boʻlish oʻrniga qarab 5 ga ajratiladi.

⁵⁵ Ashirov A. Etnologiya.- T., 2014. 217-bet.

Grammatik jihatidan Okeaniya tillari analitik tillariga mansub, har bir soʻz turkumining oʻziga xos xususiyatlari bor XIX asr XX asr boshlarida bir necha oʻnlab Okeaniya tillari uchun lotin grafikasi asosida yozuvlar yaratilgan, lekin bu tillar koʻpgina adabil til sifatida rivojlanmadi. Okeaniya tillarni oʻrganish XIX asrda boshlanib, XX asr 50 yillarida avj olgan boʻlsa-da, ularning koʻpchiligi amalda xanuz tavsif etilmagan.

Okeaniya deb atalgan bepoyon Tinch okeanida joylashgan koʻp sonli katta-kichik arxipelag va orollarda turli xalq va elatlar yashaydi. Odatda ularni uch qismga boʻladilar. Polineziya Yangi Zellandiya bilan, Melaneziya Yangi Gvineya bilan va Mikroneziya. Okeaniya xalqlari beshinchi qitʼa aholisiga qaraganda nisbatan yuqori madaniyatga ega boʻlgan.

Dashtlabki odamlar Melaneziyaga Janubi-sharqiy Osiyodan neolit davri boshlarida kelganlar. Antropologik jihatdan umuman yagona tipga ega boʻlgan melaneziyaliklar (qora tanli, jingalak sochli negroidlar mazkur viloyat nomini kelib chiqishiga sabab boʻlgan, chunki melaneziya - «qora orollar» degan maʼnoni anglatadi) Okeaniyaning eng qadimiy aholisi hisoblanadi⁵⁶.

Antropologik va lingvistik jihatdan ham polineziyaliklar Janubiy Osiyoga borib taqaladi. Ular til va madaniy qiyofasi bilan umumiy xarakterga ega boʻlsa-da, irqiy jihatdan negro-avstraloid va mongoloidlar aralashmasidan tashkil topgan oʻzi-ga xos tipdan iborat. Malayya-polineziya til oilasiga kirgan indoneziya tiliga yaqin ekanligi ham polineziyaliklarning vatani Osiyo bilan bogʻliq degan fikrni maʼqullaydi. Moddiy va maʼnaviy madaniyat belgilarining ancha qismi ham polineziyaliklarni Indoneziya va Hindi-Xitoy (Malayziya) bilan bogʻlaydi.

Polineziyaliklar ajdodlarining Janubiy Osiyodan koʻchish davri eramizning birinchi asrlariga toʻgʻri keladi. Bepoyon Tinch okeani tomon juda koʻp elatlarni siljitgan «buyuk koʻchish» oqimi uzoq davr davom etib to XVI asrgacha choʻzilgan. Shunisi ham diqqatga sazovorki, polineziyaliklar bir-biridan qancha uzoq joylashmasin, kelib chiqishi toʻgʻrisidagi rivoyatlar juda aniq va bir-biriga yaqin, ham oʻxshash. «Buyuk koʻchish» asosan, ikki yoʻl bilan: birinchisi, Yangi Gvineya

⁵⁶ Jabborov I. Jahon etnologiya asoslari.-T., 2005. 81-bet.

bo'ylab Melaneziya orollari orqali, Fidji, Tongo va Samoa usti bilan, ikkinchisi - «shimoliy» yo'l, ya'ni Mikroneziya rollari, Gilbert arxipelagi orqali Markaziy Polineziya, Taiti orollariga ko'chib borilgan. Ba'zi tadqiqotchilar ko'chish faqat «shimoliy» yo'l bilan, ayrimlari faqat «janubiy» yo'l bilan ro'y bergan deb uqdirishga intiladilar. Ko'chish ikki yo'l bilan bir vaqtning o'zida bo'lib turgan, degan fikr tarafdorlari ham bor.

Mikroneziya aholisining kelib chiqishi to'g'risidagi aniq ma'lumotlar yo'q. Antropologik jihatdan ular polineziya, melaneziya va malayya tiplari birikmasini o'zida mujassamlashtirgan. Ammo madaniy jihatdan mikroneziyaliklar polineziyaliklarga ancha yaqin turadi.

Ko'pchilik tadqiqotchilarning fikricha, dastlabki odamlar Melaneziyaga - ming yillar muqaddam kela boshlagan. N.N.Mikluxo-Maklay Avstroosiyo, shu jumladan, Melaneziya dastlab yagona «papas irqi» aholisi tomonidan egallanib, keyin Okeaniyaga tarqala boshlagan, deb taxmin qilgan. Bugungi kun olimlari ham mazkur fikrni davom ettirib, o'zaro yaqin antropologik tiplarning uzoq davr ichida davom qilgan migratsiyasi natijasida hozirgi aholi tipi paydo bo'lgan deb tasdiqlamoqdalar. O'ziga xos til, madaniyati va antropologik tipi bilan ajralib turgan Melaneziya aholisi bunga dalil bo'la oladi.

Melaneziyaliklar papuaslarga qaraganda moddiy va ma'naviy jihatdan ancha yuqori madaniyatli hisoblanadilar. Ular kulolchilikni bilganlar, Yangi Gvineyaga dastlab o'q-yoy keltirganlar, papuaslarga tatuировka qilishni, nog'ora qoqishni, initsiatsiya marosimi va «erkaklar uyi»dan foydalanish yo'llarini o'rgatganlar. Shunday qilib, melaneziyaliklar keyin kelgan yuqori madaniyatli guruh sifatida Yangi Gvineya aholisining taraqqiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatgan.

Okeaniya tub aholisining tillari ikki katta turkumga bo'lingan: Yangi Gvineya va qisman qo'shni orollardagi o'ziga xos papuas tili hamda juda keng hududga tarqalgan malayya-polineziya tillaridir. Yangi Gvineyada ancha davr yashagan N.N. Mikluxo-Maklay jahon tillari ichida ajralib turgan papuas tili juda ko'p shevalarga bo'linganligini aytib, hatto har qaysi qishloq shevasiga ega ekanligini alohida qayd qilgan. Binobarin bunday xarakterga ega bo'lgan polineziya

tillarini bir-biridan juda uzoq joylashgan elatlar o‘zaro shuncha yaxshi tushunganlarki, ularni bir tilning shevalari, deb atash mumkin⁵⁷.

Bir-biridan minglab kilometr uzoqda yashagan yangi zellandiyalik - taitiyalik tilini, samoalik-gavayyalik tilini bemalol tushunavergan. Shuni ham qayd qilish lozimki, polineziya tillari nihoyatda boy va go‘zal, unda abstrakt tushunchalar, metafora va o‘xshatishlar, poyetik iboralar va kosmogonik atamalar ko‘p uchraydi.

II.1. Melaneziya aholisining etnik tarixi va ananaviy xo‘jaligi.

Melaneziya (“Qora orollar”) ga papuaslar o‘lkasi – Yangi Gvineya, Bismark arxipelagi, Yangi Gebrid, Fidji, Sollomon orollari, Santa-Krus, Luayota, Potumu, Trobrian, Yangi Kaledoniya va boshqa orollar kiradi.

Melaneziya Tinch okeanining janubi-g‘arbiy qismidag yirik orol-davlatlar kiradi va Okeaniya hududining 90 % (1170 ming kv.km), aholisining 80 % i to‘g‘ri keladi. Nafaqat Melaneziyada, balki butun Okeaniyadagi eng yirik davlat – Papau-Yangi Gvineya (maydoni 463,0 ming kv.km, aholisi 6,5 mln. kishi 2008 yil, iyul), poytaxti – Port-Morsbe shahri. Foydali qazilmalarga boy (mis, marganes, toshko‘mir, oltin va boshqalar). Asosan tropik o‘rmonlar bilan qoplangan va hududining 70 %ini egallaydi. Mahalliy xalq-papuaslar (1000 dan ortiq qabila va til), bundan tashqari yevropaliklar, avstraliyaliklar, Sharqiy Osiyo xalqlari (xitoylar va boshqalar.) yashaydi. Iqtisodiyotining asosi qishloq xo‘jaligi bo‘lib, 85 % aholi band. Kofe (25 % eksport tushumi to‘g‘ri keladi), kako, kopra, tabiiy kauchik va tropik daraxtlar yetishtiriladi va eksport qilinadi. Turizm va baliqchilik rivojlangan. Melaneziyaning barcha orollarida qadimdan odamlar yashab kelgan. Antrapologik jihatdan aholisi avstraloid irqiga mansub bo‘lib ikkita tilga: papuaslar va melaneziyaliklarga bo‘linadi. Ikkisi uchun ham terisining qoraligi, sochining jingalakligi umumiydir. Papuaslar yuzlarining nisbatan ingichka va burnining burgutsimonligi bilan ham ajralib turadi. Irqiy jihatdan yaqin bo‘lgan melaneziyaliklarning tillari o‘zaro o‘xshamaydigan 2 ta guruhga til oilasiga bo‘linadi. Melaneziya tillari malayo-polineziya (avstroneziya) til oilasiga oid

⁵⁷ Salimov T. Avstraliya va Okeaniya xalqlari.-T., 2003. 34-35-betlar.

bo'lsa, papuas tillari hech qaysi til oilasiga kirmaydigan mustaqil tillardir. Yangi Gveniyaning 4 mlndan ortiq aholisining 90 % papuaslar bo'lib 700 ga yaqin etnik guruhlariga bo'linadi. Eng yirik til oilasi Transogveniya tillarida 85% aholi gaplashishadi. Mustamlaka arafasida ijtimoiy munosabatlar ona urug'ining oxirgi davriga to'g'ri keladigan tuzum darajasida bo'lgan. Yangi Gvineyada, masalan, urug'-jamo'a munosabatlari mustahkam bo'lsa, Fidja orollarida sinfiy jamiyat endi kurtak otgan. Katta orollarning aholisi qabilalarga bo'lingan, urug' jamoasi esa uning asosini tashkil qilgan.

Mulk formasi bir oz murakkab: yer jamoaniki bo'lsada, undan foydalanish individual xarakterga ega, har kim, hatto bola ham, o'zi ekan mevali daraxtiga ega bo'lgan. Uy va uning jihozlari, qurollar shaxsiy mulk, katta kemalar esa jamoaga tegishli bo'lgan. Boylik orttirish o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan: kimda ildizmevali ekinlardan yams, buyra yoki cho'chqa podasi bo'lsa, shu kishi boy hisoblangan va jamiyatda hurmati baland bo'lgan. Meros ona urug'i tomonidan va qabilalararo munosabatlar natural savdo va nikoh shaklida amalga oshirilgan.

Janubiy va sharqiy orollarda yashovchi melaneziyaliklar jamoasida ijtimoiy tabaqalanish natijasida badavlat shaxslar, zodagonlar va urug' boshliqlari paydo bo'lgan. Ular jamoa mulkining bir qismini egallaganlar, ayrim jamoa a'zolarini o'zlariga qaram qilib olganlar, urushlarda asirlarni qul qilganlar, bo'ysundirilgan qabilalarga soliq solganlar.

An'anaviy xo'jaligi. Tirikchilik asosan dehqonchilik mahsulotlari – ildizmevali o'simliklar va mevali daraxtlar o'stirishdan iborat bo'lgan. Quruq joylarda emas, namroq yerda taro, kokos xurmosi, non daraxti, banan, keyin paydo bo'lgan kofe, kakao, sholi, choy va hokazo hozirgacha ham asosiy ekinlar hisoblanadi. Yil bo'yi yerga ishlov berilib, tropik iqlimga xos ekinlar ekilgan⁵⁸.

Yerni oddiy yog'och bilan kovlab, kesagini yog'ochga bel bilan hamda kulda maydalangan va urug' sochilgan. Yerga ishlov berishda erkak-ayol teng ishlagan. Ekish, yagonalash va yig'im-terim asosan ayollar zimmasida bo'lgan. Sohillarda yashovchi baliqchilar bilan savdolashib dehqonchilik mahsulotlarini

⁵⁸ www.ziynet.uz.

ayirboshlashganlar. Baliq ovlash bilan erkaklar shug'ullangan. Baliqchilikda suyak va chig'anoqdan yasalgan turli qarmoqlar, to'r va savatlar, eni ikki metr, uzunligi 300 metrli to'rlar, sanchqi va hatto o'q yoylardan foydalanilgan. Chorva kam bo'lib, uy hayvonlaridan it, cho'chqa, tovuq saqlangan va ularni asosan bayramlarda so'yganlar. Go'shtni "yer o'chog'ida" toshni qizdirib yoki olov yoqib kulida pishirganlar, ba'zan qaynatib ham yeganlar. Terib-termachlash bilan shug'ullanganlar. Uchli yog'ochni chaqmoq toshga ishqalab yoki burov usuli bilan olov hosil qilingan. Olovni ishqalash yordamida olishgan. Unda uzunligi 1 metrli yumshoq yog'och va uchi o'tkirlangan 20 santimetrli tayoqchadan foydalanilgan. Taxtani yerga qo'yishib oyoq bilan bosib, tayoqchani unga uzunasiga yuritib ishqalashdan yog'ochdan chiqqan kukunga, ma'lum muddatdan so'ng quruq xasni tutatib olov olingan. Melaneziyalik aborigenlar olov olish uchun 40 sekunddan 3 minutga qadar vaqt sarflashgan. Taomni ko'pincha ochiq olovda, yoki yer o'choqda tayyorlashgan. Suvda taom pishirish juda kam qo'llanilgan. Ilgari melaneziyaliklar ham Shimoliy Amerika indeyeslari kabi toshni qizdirib yog'och idishga solib taom tayyorlashgan. Shu tarzda kakao suti qaynatilib, quyuqlashtirilgan. Sopol idishlar mavjud joyda ham shu usuldan foydalanishgan.

Melaneziyaliklarning asosiy qurollaridan toshbolta, nayza, cho'qmor, o'q-yoy, palaxmon kabilar keng tarqalgan. Mudofaa uchun ba'zan yog'och yoki to'qima qalqon ham ishlatilgan. Idish-tovoqlarni yog'och va bambukdan, kakaus yong'og'i qobig'idan yoki qovoqdan yasaganlar. Charxsiz kulolchilik, savat, buyra, xalta, yelpig'ich kabi buyumlar to'qish keng rivojlangan. Ammo gazlama to'qishni bilmaganlar, tapa(maxsus daraxt qobig'i) dan va o'simlik yaprog'idan etakli belbog' va hokazo tikilgan⁵⁹.

Melaneziyaliklar va papuaslar asosan o'troq bo'lib, urug' jamoa shaklida kichik qishloqlarda istiqomat qilganlar. Ularning uylarida odatda har xil tipdagi yengil ustunlarga qurilgan, to'g'ri burchak yoki doirasimon shaklda cho'qaytirilgan bo'lib, tomlari palma yoki boshqa daraxt yaproqlari bilan qalin qilib yopilgan. Sohillarda ba'zan qoziqoyoklarda o'rnatilgan uylar ham uchraydi. Oddiy uylardan

⁵⁹ Jabborov I Jahon etnologiya asoslari.-2005. 89-bet.

tashqari har bir qishloqda erkaklar bo'sh vaqtlarida to'planadigan ba'zan turli naqishlar bilan bezatiladigan hashamatli jamoa uyi ("erkaklar uyi") qad ko'targan⁶⁰.

Melaneziyaliklar o'troq xalqdir. Ko'chmanchi hayot tarzi xususiyatlari faqat Gazel orolida yashovchi bayni qabilasi aholisida uchraydi xolos. Ular dehqonchilikka o'tgan bo'lsada doimiy yashash joylari bo'lmasdan, polizlar yaqinida yashab ko'chib turishgan. Melaneziyaliklar qo'rg'onlari 2 xil: qishloq va kichik ovul ko'rinishida bo'lgan. Ularning asosiy farqi uylarning sonida edi. Qishloqlarni dushmanlar hujumidan asrash uchun daraxt ekib yoki qo'ralar bilan mustahkamlashgan. Yangi Britaniya orolining g'arbida qishloq atrofida o'tkazilgan bo'talardan faqat bir joyda kirishga joy qoldirilgan. Matankor qabilasi himoyalaniş qulay bo'lishi uchun o'z uylarini o'rmonda yoki qoyalar ostida ko'rishgan. Uylar deyarlik barcha joylarda bir xil ashyodan, o'xshash ko'rilgan. Loyihasi to'g'ri burchakli uzun, ustunlar asosida baland 2 tomonli tom shaklida yopilgan. O'rtadagi 2 ustun ustida to'sin o'rnatilgan. Uylarning devori deyarlik bo'lmagan yoki past ustunchalar ustidagi to'sin shaklida edi. Banan yoki palma barglaridan yopilgan tom yog'ingarchilikka chidamli bo'lgan. Agar devorlar bo'lsa, qamishdan to'qilgan bo'yra shaklida yengil, yerga qoqilgan qoziqlar bilan mahkamlangan. Kirish joyi oldi tomonidan ko'pincha eshiksiz, ochiq bo'lgan. Eshikni ham buyra yoki palma yaproqlaridan yasashgan. Derazalar umuman bo'lmagan. Uyning o'rtasida o'choq joylashgan. Uy jihozlari deyarlik bo'lmagan. Aholi hayotining asosiy qismi ochiq havoda o'tgani sababli uy kechasi uxlash uchun zarur bo'lgan, xolos. Turli orollarda uylarning umumiy xususiyatlari bilan birlikda o'ziga xos tomonlari ham mavjud. Ba'zi joylarda uyning poydevori toshdan qurilgan. Yovvoyi cho'chqalardan, yomg'ir suvlaridan saqlanish uchun Yangi Irlandiya orolida uyning tevaragida toshdan baland bo'lmagan to'sin qilishgan. Dengiz qirg'oqlarida ustunlar ustiga uy qurish keng tarqalgan. Bunday uylar ayniqsa Yangi Gvineyada, Melaneziyaning shimoliy – g'arbida ko'p qurilgan va Janubiy- Sharqiy Osiyoga qadar tarqalgan. Ustunlar ustidagi uylar aholining qo'shni qabilalar hujumidan himoyalanişhiga ham mo'ljallangan. Polineziyadagi kabi ko'p bo'lmasada

⁶⁰ Salimov T. Avstraliya va Okeaniya xalqlari.-T., 2003. 51 bet

Melaneziyada ham doirasimon va tuxumsimon (oval) uylar ham qurilgan. Melaneziyaliklar uylari faqat ko'rinishi, rejasi bilan emas o'zining maqsadi bilan ham bir-biridan farqlangan. Oilalar uylaridan tashqari erkaklar uylari, ba'zida ayollar uylari ham qo'rilgan. Erkaklar uylari uzunligi va eni 40 x 12 metr, balandligi 8 metrgacha bo'lib, unda jangovor va ovdan olingan o'ljalari, udum - marosim anjomlari, turli bezaklar saqlangan. Banks va Yangi Gebrid orollarida erkaklar uylari - gamal deb nomlangan.

An'anaviy transport vazifasi kema bo'lgan. Ular bir-ikki odam sig'adigan qayiqchadan tortib, 40 taga yaqin odam sig'adigan balansirli yog'och kemalargacha ega bo'lganlar. Kemalar eshkakli va ba'zan uchburchak chipta yelkanli bo'lgan. Asosiy transport vositalari suvda xarakatlanishga mo'ljallangan bo'lib, quruqlikda faqat piyoda yurilgan. Melaneziyaliklar qayiqlar yasash va dengizda suzishda polineziyaliklar bilan raqobatlasha olishmasada, bu borada yuksak taraqqiyotga erishganlar. Non daraxtidan uyib yasalgan qayiq balansirli (autrigerli) bo'lgan. Melaneziyaliklardan, faqat fidjiliklar uzoq dengiz safarlariga chiqishgan, xolos. Suvda suzishda ham faqat dengiz qirg'og'ida yashovchi aholi ko'nikmasi bo'lgan. Quruqlik transporti bo'lmagani sababli qishloqlarni faqat odam yuradigan yo'laklar birlashtirgan xolos.

Papuas va melaneziyaliklarning kiyimlari tropik iqlimga moslashgan bo'lib, asosan erkaklar fartukli belbog' va ayollar esa o'simliklardan tikilgan kalta yupka, ba'zi joylarda yaqin davrlargacha tayloq ham kiyib yurganlar. Ammo kiyimlarga nisbatan turli bezaklar ko'p bo'lgan. Ayniqsa, erkaklar bezaklarni ko'proq osgan, sochlarini turli xilda taragan. Bambukdan yoki cho'plardan taroqlar yasab, ba'zan ularni ham bezak sifatida ishlatganlar. Melaneziyaliklarda tropik iqlim aholisi sifatida sovuqdan asranish uchun kiyimga ehtiyoji bo'lmagan. Sovuq ko'chalarni yoki yomg'irli kunlarni orolliklar o'z kulbalarida o'choq atrofida o'tkazganlar. Vujudga kelgan vaziyatda ularda kiyimsizlikdan uyalish hissi ham bo'lmagan. Shu sababdan melaneziyaliklarda kiyim kam yoki butunlay bo'lmagan. Lekin bu borada ham ma'lum o'ziga xos xususiyatlar uchraydi. Ba'zi orollarda erkaklar ham ayollar ham kiyimsiz bo'lishsada, ko'p joyda kiyimning ilk turi belbog'chalar ilgaridan

taqilgan. Uning turlari: yubkacha, bog'ich, belbog' yoki fallokript, peshband moslamasidan iborat bo'lgan. Melaneziyaning shimolida ayollar yomg'irdan saqlanish uchun yaproqlardan to'qilgan yopinchiq —kapyushon tikishgan va boshga kiyib yurishgan. Ba'zi qabilalar, xususan moanuslar bayram - uyinlar paytida belbog'chalar taqishib qolgan paytlarda kiyimsiz yurishgan. Melaneziyaliklarda kiyimsiz yurish madaniy qoloqlik belgisi bo'lmagan. Melaneziyaliklarning badan bezaklari kiyimlariga Qaraganda xilma - xildir. Belbog'chalar va fallokriptlar ham ko'pincha bezak vazifasini bajargan. Ulardan tashqari melaneziyaliklar bayramlarda boshi va tanasida turli taqinchoqlar taqishgan. Keng tarqalgan taqinchoqlardan biri, bambukdan yasalgan chiroyli taroqlarni asosan erkaklar taqishgan. Qulog'ida katta sirg'a, burniga tayokcha, buyniga marjonlar, ko'l va oyoqlarga uzuk va halkalar taqish ham asosan erkaklarga xos edi. Taqinchoqlar uchun ashyo chig'anoqlar, toshbaqa po'sti, turli hayvonlar tishlari, kush patlari, tasmalar, marjonlar, mevalar, bambuk bo'lakchalari va hokozolar edi. Lekin melaneziyaliklar o'z qo'shnilari polineziyaliklar kabi gullar bilan bezanishmagan. Yana bir xususiyatli tomoni melaneziyaliklarda erkaklar bezanishsa, polineziyaliklarda taqinchoklarni ayollar taqishgan. Badanni tatuirovka qilish qora tanli xalqlarda keng tarqalmagan⁶¹. Tishlarini urib sindirish, kalla suyagini maxsus deformatsiya qilish ham melaneziyaliklarda aytarli kam uchraydi. Sochni parvarishlash juda sodda, ayollarda murakkab soch turmaklashlar ko'p emas, ularning sochlari kalta. Takinchoklar esa faqat estetik talablarni qondirmasdan ijtimoiy belgi vazifasini ham o'tagan. Ularga qarab insonning yoshi, ijtimoiy o'rnini aniqlash mumkin bo'lgan. Ba'zi bezaklar diniy — sehrgarlik udumlariga xizmat qiladi.

Melaneziyaliklarning etnik tarixi. Melaneziyaga dastlab odamlar Janubiy Sharqiy Osiyodan neolit davri (mil.avv. 6-4 ming yillik) boshlarida kelgan. Antropologik jihatdan yagona tipga ega melaneziyaliklar (qora tanli, jingalak sochli) Okeaniyaning eng qadimiy aholisi hisoblanadi.

⁶¹ Ashirov A. Etnologiya.-T., 2014. 228-bet

Solomon orollari 1568-yili ispan dengizchisi Mendonya de Neyra tomonidan kashf qilingan. Orollarning shimoliy qismi 1885-yil Germaniya protoktorati deb e'lon qilingan, janubiy qismi esa Buyuk Britaniya mulklariga qo'shildi. 1899-yili Germaniya Buganvil va Buka orollaridan boshqa hamma orollarni Buyuk Britaniyaga berdi. Buning evaziga inglizlar Germaniyaning G'arbiy Samoani bosib olish huquqini tan olishdi. 1914-yili Buganvil va Buka Avstraliya qo'shinlari tomonidan ishg'ol qilindi, ikkinchi jahon urushidan keyin esa Solomon orollari yana Britaniya protektoratiga aylandi. 1978-yili Solomon orollarining mustaqilligi e'lon qilindi va Britaniya hamdo'stligi tarkibiga kiritildi. Poytaxti Xoniaradir. Solomon orollari 7 ta okrukdan iborat. Asosiy tabiiy resurslari: baliq, yog'och, oltin, qo'rg'oshin, sink, nikel, fosforitlar. Orollarning hayvonot dunyosi ancha kambag'al: xaltaliylar, ko'rshapalaklar va kemiruvchilar uchraydi. Iqtisodiyotini asosini qishloq xo'jaligi, baliqchilik va o'rmonchilik tashkil etadi.

XIX asr oxirida Melaneziya va Mikroneziya aholisini tadqiq qilish ham boshlanadi. Missioner Robert Kodrington va nemis savdo kompaniyasi xizmatchisi R.Parkinsonlar Melaneziyaning Dastlabki tadqiqotchilari hisoblanishadi.

Kodringtonning 1891-yili Oksfordda nashr qilingan „Melaneziyaliklar“ asarining bu sohadagi klassik asar deb aytilish mumkin. Olim ilmiy doiralarni birinchi bo'lib melaneziyaliklarning oliy kuch – managa ishonishlari bilan tanishtiradi⁶². U shuningdek melaneziyaliklarning tillarining dastlabki klassifikatsiyasini yaratadi. Umrining asosiy qismini Bismark arxipelagida o'tkazgan R.Parkinson o'zining ma'lumotlarga boy „Okeaniyada o'ttiz yil“ kitobini nashr qiladi. Dastlab Samoada (1860-1874) so'ng Melaneziyaning boshqa orollarida 48 yil missionerlik qilgan Jorj Braunning 1910-yili nashr qilingan „Melaneziyaliklar va polineziyaliklar“ asari ham ko'plab etnologik ma'lumotlarga egadir. XIX asr oxiridan ekspeditsiya orqali tadqiqot ishlari keng tus oladi. Bu borada nemis olimlarining say harakatlari alohida o'rin tutadi. Nemislarning «Gazel» korveta 1874-76 yillari qator orollarni o'rganib,

⁶² Gadoev.K. Berdiyeva S. Jahongashta sayyoh olomlar.-T., 2012. 261-bet.

ularga Bismark nomi beriladi. Etnografik tadqiqotlar zimmasiga yuklatilgan leytenant Shtraux boy kolleksiya to'plab Berlin muzeyiga topshiradi. Shu kabi tadqiqotlarni 1884-85 yillari «Samoa» kemasi amalga oshiradi. Vrach va naturalist Avgustin Kremer 1890-yillarda Samoa, Mikroneziya, Melaneziya orollari aholisining kuzatishlarini yozib qoldirgan. Olim Yangi Irlandiya oroli aholisining niqoblar bilan bog'liq malangane udumini, juda bafurja tasvirlaydi. Kremer 1908-10 yillari tashkil qilingan Gamburg ilmiy ekspiditsiyasi tarkibida Mikroneziya va Shimoliy Melaneziya orollarining aholisini o'rganishda qatnashdi. Mustamlakasi Torres ko'rfaziga katta ekspeditsiya uyushtirib, uning tarkibida xeddon va Rivers kabi etnologlar bo'lgan. Ular Torres ko'rfazi tevaragida orollarda avstralyaliklar va papuaslar madaniyati elementlari mujassamlashganini aniqlashadi. Etnologlarning Melaneziyaga qiziqishi birinchi jahon arafasida oshib borgan. Xususan taniqli etnolog- sotsiolog Rixard Turnivald 1906-1909 yillari Bismark arxipelagi va Solomon orollarining shimolida bo'lib axoli orasidagi: ibtidoiy xukuk, oila - ijtimoiy turmushi muammolarini urganib maxsus monografiya, maqolalar yozadi. Shveytsariyalik Feliks Shpeyzer 1910-1922 yillari Melaneziyaning janubidagi qator orollarda bo'lib, o'zidan avvalgi tadqiqotchilar qoldirgan ma'lumotlardan foydalangan xolla Yangi Gebrid va Banks orollari aholisining o'ziga xos madaniyatiga bag'ishlangan kapital asarini yaratadi. Asli polshalik bo'lgan ingliz etnologi Bronislav Malinovskiy ham I jaxon urushi arafasida Okeaniyada bulib, bir necha oy Trobrian orollari aholisini o'rgangan. Malinovskiy okeaniyaliklarning o'ziga xos urf -odatlarini, irim, udumlari tizimini aniqlaydi. Olim ushbu ekspeditsiya buyicha kator asarlar, ilmiy maqolalar chop etadi. Amerikalik etnolog Raymond Firs Melaneziyaga kiruvchi mustamlakachilar ta'sirida bo'lmagan kichkina Tikopiya oroli aholisini o'rganadi. R.Firsning asarlaridan biri Yangi Zelandiyalik maorilarning va Polineziya aholisining iqtisodiy hayotiga bag'ishlangan. Melaneziyaning janubiy qismida Yangi Kaledoniya va Yangi Gebrid orollari aholisining yevropaliklar ta'sirida bo'lmasdan avvalgi hayotlari esa fransuz olimlari De-Rosi, Lemir va Glomonlar tomonidan tadqiq etilgan, ular aholining ijtimoiy tuzumi va madaniyatlari haqida qiziqarli ma'lumotlar qoldirishgan.

Yangi Kaledoniyada 25 yil missionerlik qilgan Moris Leyengardning ishlarida ham aborijen aholi an'anaviy xayotiga oid qiziqarli ma'lumotlar yozib qoldirilgan. XX -asrning 20 - 30 yillarida ham qator ekspeditsiyalar uyushtirilgan. Ulardan eng ahamiyatlisi bu shubxasiz amerikalik etnologlar Margarit Mid va Reo Forchunlarning 1928 - 29 yillari Samoa orollarida bo'lib, aholining qrindoshlik tizimi, diniy tasavvurlari, bolalar tarbiyasiga bag'ishlangan tadqiqotlaridir.

Melaneziyaliklar Gersorg York va Solomon orollarida. Bolta faqat ovda qo'llanilmasdan, u bilan daraxtlarning shox - shabballari kesilib, ilk dehqonchilikka ham asos solinadi. Bu qoida o'zining yakuniy tasdiqini topsa, yangi gvineyaliklar eng qadimgi dehqonchilik aholisidan biriga aylanadi. Papuaslar ajdodlari qo'shni orollarga Bismark arxipelagiga, janubda Yangi Kaledoniyagacha tarqaladi⁶³.

Okeaniyaga bo'lgan migratsiyaning yana bir to'liqligini arxipelaglarga bundan 5 ming yil avval yetib kelgan. Bu aholining tillari olimlarning fikricha avstroneziya til oilasiga mansub bo'lgan. Ular irqiy xususiyatlari bo'yicha janubiy mongoloidlar bo'lgani ehtimol. Migrantlar Yangi Gvineyaning shimoliy - sharqiy qismida yoki Bismark arxipelagining orollaridan birida yagona birlik sifatida yashay boshlaydi. Ularning tillarini olimlar oldokeaniya tillari deb ehtimol qilishadi, sababi u Okeaniyaning ko'pchilik avstroneziya tillariga asos bo'ladi.

Ko'chuvchilarning ma'daniyati neolitik tusda bo'lib, ular oddiy dehqonchilik bilan shug'ullanib, cho'chqa boqishgan. Tez orada oldokeaniya jamoasi tarqalib, uning «bo'laklari» Yangi Gvineya, Bismark arxipelagi, Solomon, Yangi Gebrid, Yangi Kaledoniya, Luayote orollariga tarqalgan. Keyinchalik yangi kelganlar mahalliy papuaslar bilan aralashib ketadi. Yangi Gebridning markaziy qismidagi migrantlarning bir bo'lagi ko'chishlar davomida papuaslar bilan deyarlik aralashmasdan saqlanib qoladi. Xuddi shu jamoa keyinchalik «sharqiy Okeaniya» etnik va til jamoasiga asos bo'ladi⁶⁴. Uning o'ziga xos madaniyatida lapita tusidagi sopol buyumlarning mavjudligida kuzatiladi. Bundan 4 ming yil avval ushbu jamoa

⁶³ Jabborov I. Jahon etnologiya asoslari.-T.2005. 90-bet.

⁶⁴ Bolnevich Ya. U aboriginov Okeanii.-M., „Nauka“. 1976. 165-bet.

tarqalib «sharqiy okeaniyaliklar» Yangi Gebridning shimoliy orollariga, Solomon orollarining janubiy - sharqiga, Fidji arxipelagi va boshqa orollarga tarqaladi. Keyingi bosqichlarda ular maxalliy qora tanlilar bilan aralashib ketsada, ba'zi hududlarda avtonom aholiga o'z tilini o'tkaza oladi. Ushbu jarayonlar Melaneziyada til, etnik, madaniy va antropologik jihatdan rang – baranglik vaziyatini ta'minlaydi.

«Sharqiy okeaniyalik»larning kam aralashgan bir qismi Fidjidan m.av. 1200 yili Tongaga undan esa m. av 1000 yili Samoa oroliga o'tishgan. Ming yillik tashqi aloqalarsiz hayot ushbu aholida o'ziga xos polineziya etnik jamiyatini shakllantirdi.

II. 2. Aholining moddiy va ma'naviy madaniyati.

Melaneziya aholisining kelib chiqishi to'g'risidagi aniq ma'lumotlar yo'q. Antropologik jihatdan ular polineziya, melaneziya va malayya tiplari birikmasini o'zida mujassamlashtirgan. Ammo madaniy jihatdan mikroneziyaliklar polineziyaliklarga ancha yaqin turadi.

“Erkaklar ittifoqi” hukmron zodagonlarning qudratli quroli hisoblangan. Mazkur ittifoq turli tabaqalarga bo'lingan va eng yuqori tabaqadagi ittifoqqa a'zo bo'lish uchun katta badal to'lashi va maxsus boy marosimlar o'tkazishi shart bo'lgan. Chunki yuqori tabaqadagi ittifoq a'zolari katta imtiyozlarga ega bo'lib, o'ziga xos mustabid hokimiyat vazifasini bajarganlar, aholini qo'rqitib, boyliklarini tortib olganlar. Butun Melaneziyada keng tarqalgan mashhur Duk-duk nomli erkaklar ittifoqi aslida inisiasiya marosimlari bilan bog'liqdir.

Inisiasiya marosimi Yangi Gvineya va melaneziyaliklarda tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan. Erkaklar qatoriga qabul qilinish uchun yoshlikdan tayyorgarlik ko'rilgan, o'spirinlar maxsus ajratilgan tarbiyachilar qo'lida topshirilgan, turli og'ir sinovlardan o'tkazilgan: masalan, do'pposlangan, badani taturirovka qilingan, ovqat va uyqudan mahrum etilgan. O'spirinlar faqat “erkaklar taomi” – banan, shakarqamish va o'rmon mevalarini iste'mol qilishlari shart bo'lgan. Ayollar qo'lidan ovqat yeyish, ular o'stirgan daraxt mevasini tamaddi qilish qat'iyan man qilingan. Xullas, butun marosim o'g'il bolani onasidan umuman

ayollardan ajratib, erkaklar dunyosiga jalb qilishdan iborat bo'lgan. ba'zan sinov va udumlar turli qo'shiq va raqslar surnay navolari ostida o'tkazilgan.

Koko qabilasida marosimning oxirida o'spirinlarga qabilaning odat va odob tartiblarini o'rgatish bilan birga turli nasihatlar ham berilgan. Masalan, ularga: "o'g'irlama! Foxishalik katta gunoh, unga berilgan tez o'ladi! Xotiningni urma! Birovning polizidan meva olma!

Adolatli bo'lsang – uzoq yashaysan!", deyilgan. Torres bug'ozidagi orollarda quyidagicha nasixat diqqatga sazovor: "Birov sendan bir narsa so'rsa, yuk dema! Agar unga taom, suv yoki yana boshqa narsa zarur bo'lsa. ayama, yarmini bergil! Shunda sen yaxshi odam bo'lasan! Agar sen va xotining ota-onangdan hech narsa olmagan bo'lsanglar ham ularga g'amxo'rlik qilishni unutmangiz! Onagga hech vaqt qo'pollik qilma! Ota va onang sening qorningdagi taoming, agar ular o'lsa, sen och qolasan! Tog'ang va boshqa qavmi-qarindoshlaringga ham g'amxo'rlik qilishni unutma...!". Marosim nog'oralar ovozi va surnay kuylari, o'rta boshiga konus shaklida baland niqob kiygan, ustiga qatma-qat yaproqlar yopingan tuya qushga o'xshash daxshatli arvoh obrazidagi Duk-duk uyini bilan tugaydi. Shunday qilib o'g'il bolalar erkaklar guruhiga o'tadi va o'z vaqtini asosan oiladan va xotinlardan tashqari, "erkaklar uyi"da o'tqazishga majbur bo'ladi⁶⁵.

Ayrim tadqiqotchilarning erkaklar ittifoqining paydo bo'lishi ona urug'i hukumronligiga qarshi qaratilgan o'ziga xos qurol ham hisoblangan, ya'ni matriarxat urug'idan patriarxatga o'tish davri bilan bog'liq.

Inisiasiya natijasida bir oilada tug'ilib o'sgan o'spirin ona uyini tashlab, erkaklar uyiga, ya'ni urug' ixtiyoriga o'tadi va yangi oila tashkil qiladi. Ammo, uning ahvoli ikkilanma va qarama-qarshi bo'lgan, bir tomondan u urug' a'zosi, ikkinchi tomondan oila boshi, bir kecha erkaklar uyida yotsa, ikkinchi kecha o'z uyida yotadi, o'z vaqtining bir qismini umumiy urug' ishlariga sarflasa, ikkinchi qismini oilasiga ajratadi.

N.A.Butinov ta'rificha, Yangi Gvineyadagi Maklay soxilida o'tkazilgan inisiasiya tantanalari 10-15 yilda bir marta nishonlanib, xayotga yangi mehnatkash

⁶⁵ Proshloe i nastoyashee Avstralii i Okeanii. –M., „Nauka“, 1979.136-bet.

avlod kirib kelganligini namoyish qiladi. Mazkur marosimni nishonlashdan maqsad o'spirinlarni oilasidan ajratib urug' a'zoliciga o'tkazibgina qolmay, balki eng muhimi ularga uylanib, yangi oila va uyga ega bo'lgandan keyin ham erkaklar uyida saqlab qolishdan iboratdir. "Bunday marosimlar, - deb xulosa qiladi avtor, - ikki vazifani bajaradi. Birinchidan – oiladan begonalashtirish har bir erkak tomonidan individual holatda turli udumlar orqali amalga oshiriladi.

Ikkinchidan – urug'ga mustahkam berkitish ayollardan mahfiy saqlangan urug'ning muqaddas joyi erkaklar uyida butun urug'doshlar tomonidan kollektiv ishtirok qilmaydigan urug'chilik bayramlari orqali namoyish qilinadi".

Melaneziyada patriarxal quldorlik paydo bo'lgan. qullar harbiy asirlar hisobiga to'ldirilgan. Patriarxal tipdagi juft nikoh uncha mustahkam bo'lmagan. Butun jamoa ishlarini belgilab va boshqarib turuvchi qavmi-qarindoshlik munosabatlari katta kuch xisoblangan.

Tabaqalanish natijasida nikoh munosabatlari ancha o'zgargan, katta qalin to'lash, ko'pxotinlik paydo bo'lgan. Gvineyaga borgan Y.Volnevich so'ngi o'n yillikda kelin bahosi o'n hissa oshganligi tufayli boy tabaqadagilar bir necha xotin olishga qodir bo'lib kambag'al yigitlarga uylanish qiyinlashganligini qayd qiladi. Oqibatda poligon nikoh kuchaygan.

Eri o'lganda xotini ancha vaqt motam qilgan, keyin erining jasadini qabrdan kovlab olib ariqda yuvgan, kalla suyagini mahsus to'r xaltaga solib o'zi bilan olib yurgan. Kukuku kabilasida kishi o'lgandan keyin jasadni uyga maxsus ustunga yotqizib bir oycha dudlatib ko'rganlar, sung chiptaga o'rab qabristonga eltib qo'yganlar. Motam belgisi sifatida erining kalla suyagi yoki ba'zi bir sklet suyagini taqib yurish umrining oxirigacha cho'zilishi mumkin. Faqat qaynag'asi yoki qaynisining ruxsati bilan beva ayol motamni tugatib, yangi turmush qurishi mumkin bo'lgan. Ilgari ayrim qabilalarda bolasi o'lgan ayol bir barmog'ini motam belgisi sifatida kesib tashlagan va bo'yniga osib yurgan⁶⁶.

Papuas va melaneziyaliklarning diniy e'tiqodida mano tushunchasi muhim ro'l o'ynagan. Mana tabiatning turli xodisalari, arvoxlar, boy kishilar bilan bog'lik

⁶⁶ Jabborov I. Jahon etnologiya asoslari.-T., 2005. 91-bet.

qandaydir beqiyofa kuch hisoblangan. Eng kuchli mano, odatda, qabila boshliqlari, erkaklar ittifoqi rahbarlari va ularning arvoxlarga xos bo'lib ularga sig'inish keng tarqalgan.

Yangi Gebrid orollarida tabiat ruxlariga itoat qilish kuchli bo'lgan. Ajdodlari arvoxlarga sig'inish e'tiqodi o'liklarning kalla suyagini maxsus muqaddas joylarda saqlash odatini yaratgan. Ibtidoiy jamoa tuzumidan sinfiy o'tish davriga xos turli animistik tasavvurlar, sexrgarlik e'tiqodi, daxshatli arvoxlarning obrazi va u bilan bog'liq marosimlar melaneziyaliklarning ma'naviy madaniyatiga ta'sir etgan.

Bayramlarda kuy va raqslar ijro etilgan, ayniqsa erkaklar raqsi turli xilda va dramatik mazmunda harbiy harakatlar, eshkak eshish holati qabilarda tasvirlangan. Dekorativ san'at, o'ymakorlik rivojlangan. Ammo amaliy bilimlar ancha past, faqat ba'zi dehqonchilik bilan bog'liq tomonlarigina o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan xalq medisinasini bir oz rivoj topgan: massaj qilish, qon chiqarish, suyakni joyiga solish, trepanasiya qilish, o'tlardan dori tayyorlashni yaxshi bilganlar.

II.3. Yangi Gveniyaliklarning etnik tarixi, moddiy va ma'naviy madaniyati.

Tinch okeanining janubi g'arbida Yangi Gveniya orolining sharqiy qismini, shu bilan birga Bugenvil va Buka (Solomon) orollari hamda Puiziada va Bismark arxipelagi orollaridagi davlat. Yangi Gveniya Orolning g'arbiy qismini egallagan. Indoneziya bilan chegaradosh. Papuya-Yangi Gveniya qirg'oqlarini sharqdan Solomon dengizi, janubdan-Koral dengizi, Torres bo'g'ozi va Papuya ko'rfazi, shimolda-Bismark dengizi suvlari yuvib turadi.

Melaneziyaning ko'p qismi issiq nam iqlimni o'rmonlardan iborat bo'lganligi tufayli mustamlakachilik bu yerda Avstraliya va Polineziyadan keyinroq boshlanadi. Faqat Yangi Kaledoniya va Fidji orollariga yevropaliklar oldinroq kela boshlagan. Ayniqsa o'tgan asrning oxirlarida qazilma boyliklar ochilgandan keyin plantatorlar va tog' konchilari Osiyodan ko'p sonli ishchilar kuchini keltira boshlaydi.

Albatta, Yangi Gveniya va Melaneziyani mustamlaka qilish mahalliy aholining jiddiy qarshiligida ro'y bergan edi. Tish-tirnog'i bilan qurollangan

istilochilarga qarshi kurashda Yangi Gvineya va Melaneziyani imperialistlar ikki marta qayta bo'lishgan. Lekin ozodlik kurashi to'xtamagan.

Migrasiyaning kuchayishi natijasida ayrim orollarning etnik tuzilishi ancha o'zgargan, tub aholi soni kamayib, kelgindi ko'payib ketgan. Eski qabilaviy tuzum asta-sekin yemirilib, qabila boshliqlari mustamlakachilarning ma'muriy malaylariga aylangan. Fidji orolida serunum yerlarni egallagan mustamlakachilar plantatsiya xo'jaligini tuzib shakarqamish eka boshlaganlar. Ular ishchi kuchiga muhtoj bo'lib, qo'shni orollardan va Xindistondan juda ko'p yollanma ishchilarni olib kelganlar. Orol axolisining deyarli 50 foizini hozirda xindlar tashkil qiladi, tub aholi esa undan ham oz qolgan.

Yangi Gvineyada hozir papuaslar va melaneziyaliklar 2,8 milliondan ortiq. Ammo ularning ko'pchiligi ibtidoiy tuzum darajasida – noqulay sharoitda, tropik o'rmonlarda va botqoqlik qirg'oqlarda yashaydilar.

Yangi Gveniya oroli 1526-yilda portugaliyaliklar tomonidan ochilgan bo'lib, o'z nomini mahalliy aholi afrikaliklar bilan o'xshash bo'lganligi uchun olgan. 1828-yilda Gollandiya orolining g'arbiy qismini (1962-yilda Indaneziyaga o'tib ketgan) o'z mulki deb e'lon qildi. Orolning sharqiy qismi Papua (hozirgi Papua-Gveniya hududi), 1885-yilda ikkiga bo'lingan bo'lib, shimoli sharqiy qismi nemis protektorati, janubiy sharqiy qismi esa Avstraliya tomonidan qo'shib olingan hududlardan iborat edi. Ikkinchi jahon urushi boshlarida Avstraliya nemis protektoratini bosib oldi va 1921-yil Millatlar Ligasi tomonidan unga sharqiy Yangi Gveniyaning boshqarish uchun mandat berildi. 1973-yilda o'z-o'zini boshqarish huquqini qo'lga kiritgan mamlakat Britaniya Hamdo'stligini saqlagan holda 16-sentabr 1975-yilda mustaqil Papua-Yangi Gveniya davlatiga aylandi⁶⁷.

Aholining 40 foizi natural xo'jalik bilan band. Chet el kompaniyalari juda ko'p qazilma boyliklarni egallab olishmoqda. Mahalliy tub aholining ozodlik kurashi natijasida papuaslar Yangi Gvineyasi o'z-o'zini boshqarish huquqiga ega bo'ldi. Yangi Gvineya papuaslarining ijtimoiy tuzumi ham o'ziga xos bo'lib, ularning ijtimoiy munosabatlari kam o'rganilgan hamda murakkab tuzilishga egadir.

⁶⁷ Jahon mamlakatlari. T., 2009. 244-bet.

Papuaslarda ham avstraliyaliklardagi kabi qabilalar ko'p xollarda ijtimoiy boshqaruv ro'lini emas, balki etnik jamiyat vazifasini o'taydi. Qabilalarni til va madaniyat birlashtirgan, lekin ularda boshqaruv tashkilotlari, sarkorlari vujudga kelmagan edi. Papuaslarda urug' patriarxal ko'rinishida bo'lsada, Yangi Gvineyaning melaneziyalik aholisida ona urug'i boshqaruvi saqlanib qolgan. Bir necha urug'lar ittifoqqa birlashgan bo'lsada, ularni yuqorida ko'rsatilgan sabablarga ko'ra qabila emas, fratriya deb atash to'g'rirog' bo'ladi. Yevropaliklar kelishi arafasida eng yirik ijtimoiy tashkilot urug'lar birlashmasi hisoblangan. Yangi Gvineyadagi asosiy xo'jalik yacheykasi jamoadir. Jamoaning eng keng tarqalgan turi esa urug'chilik jamoasidir. Urug'da jamoa mulki ham mavjuddir. Jamoani o'zining shaxsiy xususiyatlari asosida, hurmatga sazovor shaxslar boshqargan.

Papuaslar urug'chilik jamoasining asosiy xususiyati erkaklar, ularning singillari va qizlari bitta jamoadan bo'lishidir. Jamoda urug'dan chetdan keladiganlar faqat xotinlikka olinadigan boshqa urug' ayollari bo'lishgan.

Yangi Gvineyada ko'p bo'lmasada geterogen jamoa —yirik oilalar boshqaruvi ham mavjud edi. Unda botqoqlar, ko'riklar va hokozolar umumiy mulk bo'lgan.

Yevropaliklar va indoneziyaliklar bilan iqtisodiy aloqalar natijasida papuaslarda jamoaning uchinchi turi -qo'shnihilik jamoasi vujudga kelgan hamda bunday jamoalar asosan shaharlarga yaqin joylarda shakllangan. Yangi Britaniya orollarida qabilalar bo'lgan bo'lsada, lekin hozirga qadar ularning hammasining ham nomi aniqlanmagan. Orolning sharqiy qismida: sulka, gaktei, tumuip, butam, taulil, bayning, nakanai, gunantuna qabilalari yashaydi. Ularning ba'zilar papuas, boshqalari melaneziya tillarida so'zlashgan.

II.BOB bo'yicha xulosa. Okeaniya deb atalgan bepoyon Tinch okeanida joylashgan ko'p sonli katta-kichik arxepelag va orollarda turli xalq va elatlar yashaydi. Odatda ularni uch qisimga bo'ladilar. Polineziya Yangi Zelandiya bilan, Melaneziya Yangi Gveniya bilan va Mikroneziya. Okeaniya xalqlari beshinchi qit'a aholisiga qaraganda nisbatan yuqori madaniyatga ega bo'lgan. Dastlabki odamlar Melaneziyaga Janubiy-sharqiy Osiyodan neolit davri boshlariga kelganlar.

Antropologik jihatdan umuman yagona tipga ega bo'lgan melaneziyaliklar Okeaniyaning eng qadimiy aholisi hisoblanadi. Ko'pchilik tadqiqotchilarning fikricha, dastlabki odamlar Melaneziyaga-ming yillar muqaddam kela boshlagan. N.N.Mikluxo-Maklay Avstroosiyo, shu jumladan, Melaneziya dastlab yagona „papas irqi“ aholisi tomonidan egallanib, keyin okeaniyaga tarqala boshladi deb, taxmin qilgan. Bugungi kun olimlari ham mazkur fikrni davom ettirib, o'zaro yaqin antropologik tiplarning uzoq davr migratsiyasi natijasida hozirgi aholi tipi paydo bo'lgan deb tasdiqlamoqdalar. O'ziga xos tili, madaniyati va o'ziga xos antropologik tipi bilan ajralib turgan. Melaniziya aholisi bunga misol bola oladi.

Uning eng qadimiy qismi negritos va papuaslar hisoblanadi. Negritoslar aholi asosan, Yangi Gvineyadagi o'rta hududida va qisman Yangi Gebritda yashaydilar. Ular o'zlarining past bo'yli (erkaklar 145 sm gacha), kalta jingalak sochlari, to'g'ri va keng burni, ochiq jigarran badani bilan ajralib turadi. Asl melaniziyaliklarning o'zlari o'rta bo'yli, negritoslarga nisbatan qora tanli bo'lib, Yangi Gvineyaning sohollarida va Markaziy Melaniziyada joylashganlar. Papuaslar asosan, o'rta bo'yli (160-165 sm), bir oz to'lqinsimon uzun sochli, semetik tipdagi burunli, pragmatizm sezilarli, yuzlari cho'zinchoqroqdir.

Melaniziyaliklar papuaslarga qaraganda, moddiy va ma'naviy jihatdan ancha yuqori madaniyatli hisblanadi. Ular kulolchilikni bilganlar, Yangi Gvineyaga dastlab o'q-yoy keltirganlar, papuaslarga tatuirovka qilishni, nog'ora qoqishni,

initsiatsiya marosimi va „erkaklar uyidan“ foydalanish yo'llarini o'rgatganlar. Shunday qilib melaneziyaliklar keyin kelgan yuqori madaniyatli guruh sifatida Yangi Gveniya aholisining taraqqiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatgan.

Bepoyon Tinch okeani orollarida yashovchi minglab katta-kichik turli etnoslar kishilik jamiyatining dastlabki davrlarida kashf etilgan ajoyib ishlab chiqarish usullari, xo'jalik shakillari murakkab geografik muhitga moslashgan har xil kasblar, ovchilik mahorati, atrofdagi vahshiy tabiatda yashab va cheksiz dengizlarda yo'l topib uzoqlarga sayohat qilish qurg'oq sahroda suv topa bilish kabi juda ko'p yangiliklarni kashf etib jahon etnomadaniyatida o'ziga yarasha hissa qo'shganlar.

III. BOB. Polineziya va Mikroneziya xalqlarining etnomadaniyati.

Etnik tarkibiga Okeaniyada irqi, tili, tarixi va madaniyati jihatidan o'zaro keskin farq qiluvchi xalqlar yashaydi. Ularni soni jihatidan 2 qismga: mahalliy aholi va ko'chib borgan aholiga bo'lish mumkin. Okeaniyaning mahalliy aholisi polineziya, melaneziya va mikroneziya sentropologik tiplarga mansub. Mahalliy aholining bir qismi malay- polinez tillarida boshqa qismi papua tillarida so'zlashadi. Papua tillari bir necha guruhlarga bo'linadi. Lekin Okeaniya xalqlarining til guruhlari ularning mavjud etnik va madaniyati jihatidan yaqinligiga to'la muvofiq emas. Etnografik adabiyotlarda ularni ko'pgina tarixi va madaniyati o'xshash oblastlar bo'yicha guruxlashtiradilar. Okeaniyaning mahalliy bo'lmagan xalqlar ingliz, yangi zelandiyalik, fransuz (Yangi Kaledoniya), amerika orollari, hind (Fiji orollari) va boshqalardan iborat. Diniy jihatdan Okeaniya aholisining ko'pchiligi xristian.

Okeaniyaning eng qadimgi aholisi Okeaniyaga bundan 20-30 ming yillar avval Janubiy sharqiy Osiyodan borib o'rtnashgan. Keyinroq kelgan qabilalarning papuaslar bilan qo'shilishidan melanezlar paydo bo'lgan. Mikroneziya va Poleniziyaga aholi milodning 1 ming yilligida ko'chib borgan. XVI asr boshida Okeaniyada yashovchi xalqlar jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlarida bo'lgan Yevropaliklar uzoq vaqt Okeaniyaga qiziqmadilar ko'pgina orollar yevropaliklarga XVIII asrning 2-yarmida ma'lum bo'ldi. Okeaniya orollarini dastlab G'arbiy Yevropa davlatlari keyinroq AQSH egallay boshladi. Okeaniyaning Mariana orollaridan, Yangi Gveniyadan sharq tomonroqda joylashgan hududlarida tarqalgan. Okeaniya tillari shartli ravishda 21 guruhga, guruhlar esa guruhchalarga bo'linadi. Ko'pchilik Okeaniya tillarning fonologik tarkibi sodda: 3 qator portlovchi undoshlari: jarangsiz, jarangli, hosil bo'lish o'rniga qarab 5 ga ajratiladi. Grammatik jihatidan Okeaniya tillari analitik tillariga mansub, har bir so'z turkumining o'ziga xos xususiyatlari bor XIX asr XX asr boshlarida bir necha o'nlab Okeaniya tillari uchun lotin grafikasi asosida yozuvlar yaratilgan, lekin bu tillar ko'pgina adabiy til sifatida rivojlanmadi. Okeaniya tillarni o'rganish XIX asrda

boshlanib, XX asr 50 yillarida avj olgan bo'lsa-da, ularning ko'pchiligi amalda xanuz tavsif etilmagan.

Okeaniya deb atalgan bepoyon Tinch okeanida joylashgan ko'p sonli katta-kichik arxipelag va orollarda turli xalq va elatlar yashaydi. Odatda ularni uch qismga bo'ladilar. Polineziya Yangi Zellandiya bilan, Melaneziya Yangi Gvineya bilan va Mikroneziya. Okeaniya xalqlari beshinchi qit'a aholisiga qaraganda nisbatan yuqori madaniyatga ega bo'lgan.

Dastlabki odamlar Melaneziyaga Janubi-sharqiy Osiyodan neolit davri boshlarida kelganlar. Antropologik jihatdan umuman yagona tipga ega bo'lgan melaneziyaliklar (qora tanli, jingalak sochli negroidlar mazkur viloyat nomini kelib chiqishiga sabab bo'lgan, chunki melaneziya - «qora orollar» degan ma'noni anglatadi) Okeaniyaning eng qadimiy aholisi hisoblanadi.

Sharqiy va Shimoliy Tinch okeanida joylashgan polineziyalik va mikroneziyaliklar, shubhasiz, ancha keyin kelib o'rtnashgan. Bir necha yuz va hatto ming kilometrlab uzoqlikda cheksiz va dahshatli okeanda qad ko'targan son-sanoqsiz mayda orollarni egallash uchun albatta yuksak madaniyatli, ayniqsa, kemasozlik va dengiz sayohati sirlarini yaxshi bilgan kishilar zarur edi. Hozirgacha tadqiqotchilar orasida bunday jasur va mohir dengiz sayyohlarining vatani qayerda ekanligini aniqlash yo'lida murosasiz bahs va tortishuvlar davom etmoqda. Yuqorida mashhur norveg sayyoh olimi Tur Xeyerdal, atoqli polineziyalik etnograf Te Rangi Xiroa (Piter Bak) va boshqalarning mulohazalarini keltirgan edik. Gavayya, Pasxa, Taiti va boshqa orollarda topilgan ajoyib arxeologik buyumlar, nihoyatda bahaybat tosh haykallar, ko'p kishi sig'adigan, uzoq masofaga mo'ljallangan yelkanli katta kemalar va boshqalar okeaniyaliklarning yuksak madaniyatli ajdodlar avlodi ekanligidan dalolat beradi.

Antropologik va lingvistik jihatdan ham polineziyaliklar Janubiy Osiyoga borib taqaladi. Ular til va madaniy qiyofasi bilan umumiy xarakterga ega bo'lsa-da, irqiy jihatdan negro-avstraloid va mongoloidlar aralashmasidan tashkil topgan o'ziga xos tipdan iborat. Malayya-polineziya til oilasiga kirgan indoneziya tiliga yaqin ekanligi ham polineziyaliklarning vatani Osiyo bilan bog'liq degan fikrni

ma'qullaydi. Moddiy va ma'naviy madaniyat belgilarining ancha qismi ham polineziyaliklarni Indoneziya va Hindi-Xitoy (Malayziya) bilan bog'laydi.

Polineziyaliklar ajdodlarining Janubiy Osiyodan ko'chish davri eramizning birinchi asrlariga to'g'ri keladi. Bepoyon Tinch okeani tomon juda ko'p elatlarni siljitgan «buyuk ko'chish» oqimi uzoq davr davom etib to XVI asrgacha cho'zilgan. Shunisi ham diqqatga sazovorki, polineziyaliklar bir-biridan qancha uzoq joylashmasin, kelib chiqishi to'g'risidagi rivoyatlar juda aniq va bir-biriga yaqin, ham o'xshash. «Buyuk ko'chish» asosan, ikki yo'l bilan: birinchisi, Yangi Gvineya bo'ylab Melaneziya orollari orqali, Fidji, Tongo va Samoa usti bilan, ikkinchisi - «shimoliy» yo'l, ya'ni Mikroneziya rollari, Gilbert arxipelagi orqali Markaziy Polineziya, Taiti orollariga ko'chib borilgan. Ba'zi tadqiqotchilar ko'chish faqat «shimoliy» yo'l bilan, ayrimlari faqat «janubiy» yo'l bilan ro'y bergan deb uqdirishga intiladilar. Ko'chish ikki yo'l bilan bir vaqtning o'zida bo'lib turgan, degan fikr tarafdorlari ham bor.

Mikroneziya aholisining kelib chiqishi to'g'risidagi aniq ma'lumotlar yo'q. Antropologik jihatdan ular polineziya, melaneziya va malayya tiplari birikmasini o'zida mujassamlashtirgan. Ammo madaniy jihatdan mikroneziyaliklar polineziyaliklarga ancha yaqin turadi.

Ko'pchilik tadqiqotchilarning fikricha, dastlabki odamlar Melaneziyaga - ming yillar muqaddam kela boshlagan. N.N.Mikluxo-Maklay Avstroosiyo, shu jumladan, Melaneziya dastlab yagona «papas irqi» aholisi tomonidan egallanib, keyin Okeaniyaga tarqala boshlagan, deb taxmin qilgan. Bugungi kun olimlari ham mazkur fikrni davom ettirib, o'zaro yaqin antropologik tiplarning uzoq davr ichida davom qilgan migratsiyasi natijasida hozirgi aholi tipi paydo bo'lgan deb tasdiqlamoqdalar. O'ziga xos til, madaniyati va antropologik tipi bilan ajralib turgan Melaneziya aholisi bunga dalil bo'la oladi.

III.1. Polineziya va Yangi Zelandiya xalqlarining etnik tarixi va an'anaviy xo'jaligi.

Tinch okeanining markaziy qismida keng, taxminan bir million kvadrat kilometr suv sathidagi son-sanoqsiz katta-kichik orollardan iborat Polineziya

(«Ko‘p orollik») shimolda Gavayya arxipelagi, janubda eng katta qo‘shorol - Yangi Zelandiya va sharqda Pasxa uchburchagi joylashgan. Asosan, vulqon va marjonlardan paydo bo‘lgan Polineziya orollari (Yangi Zelandiyani hisobga olmaganda) 26 ming kvadrat kilometrdan ortiq hududga ega, shundan 17 ming kvadrat kilometri faqat Gavayya arxipelagiga tegishli, 220 ta orol esa har bittasi bir kvadrat kilometrdan ham kam joyni egallaydi⁶⁸.

Polineziyaning tabiati va hayvonot dunyosi ancha qashshoq bo‘lib, hududining ko‘p qismi abadiy yashil tropik o‘rmonlar va savannalardan iborat. Okean yuzida minglab mayda orol va riflar paydo bo‘lib, ba‘zan yo‘qolib ketadi. Polineziya hududiga Yangi Zelandiya (uning hududi 265 ming km²) dan tashqari to‘qqizta katta arxipelag -Gavayya, Samoa, Jamiyat orollari, Markiz, Tonga, Tuamotu, Kuk, Tubuan, Ellis va boshqa juda ko‘p yirik hamda mayda orollar kiradi. Yangi Zelandiyada hozir uch milliondan ortiq aholi bo‘lsa, umuman Polineziyada 1,5 mln.ga yaqin kishi yashaydi. O‘tgan asrning oxiriga kelib Okeaniya aholisining soni 10 million kishidan oshib ketdi.

Polineziyaliklarning bepoyon okean sathidagi orollarga joylashuvi to‘g‘risida juda ko‘p turli mulohaza va farazlar mavjud edi. So‘nggi 10-15 yillar mobaynida o‘tkazilgan tadqiqotlar, ayniqsa, arxeologik kashfiyotlar, Okeaniya tillarini jiddiy o‘rganilishi natijasida mazkur masalaga ancha aniqliklar kiritdi. Antropologik jihatdan tub polineziyaliklar asosan, mongoloid, avstrolo-negroid va qisman yevropoidlarning aralashmasidan paydo bo‘lganlar. Eng keng tarqalgan fikrga binoan mazkur tiplar Polineziyaga Fidji arxipelagi, keyin Tonga va Samoa orollari orqali eramizdan avvalgi ikki minginchi yilning o‘rtalaridan boshlab kirib kela boshlagan. Ular o‘ziga xos maishiy turmush va madaniyat asosida umumiy polineziya etnik birligini yaratib eramizning birinchi va ikkinchi ming yilligi davomida asta-sekin butun Polineziyani egallab olganlar. Bu fikrni mahalliy orolliklarning rivoyatlari, tili, madaniyati va irqiy tiplarini jiddiy o‘rgangan polineziyalik atoqli olim Te Rangi Xirao har tomonlama yoqlaydi.

⁶⁸ Salimov T. Avstraliya va Okeaniya xalqlari.- T., 2003. 58-bet.

Ammo ayrim olimlar, dastavval mashhur norveg tadqiqotchisi Tur Xeyerdal, Polineziyaga odamlar birinchi bo'lib Janubiy Amerikadan, chunonchi, qadimda yuksak madaniyat markazi bo'lgan And tog'laridan ko'chib kelganlar, degan g'oyani ilgari surdilar. Tur Xeyerdal o'z fikrini isbotlash maqsadida 1947-yili beshta hamrohi bilan «Kontiki» nomli maxsus kemada Perudan Tuamotu orollarigacha sayohat qiladi. U juda ko'p manba to'playdi, ayniqsa, Pasxa va Markiz orollarida toshdan yasalgan katta haykallar, yozuv qoldiqlari, ayrim ekinlar va boshqa dalillarga tayanib, Polineziya orollarini, dastavval faqat Amerikadan kelgan kishilar egallagan, degan xulosaga keladi. Buning dalili sifatida hozirda unut bo'lib ketgan kulolchilik, temir ishlab chiqarish, to'qimachilik sanoati namunalarini ayrim orollarda (Markiz, Samoa, Tonga) topilganligini ko'rsatadi. Ammo polineziyaliklar tabiati, hayvonot va o'simlik dunyosi, qazilma boyliklari kambag'al bo'lgan orollarga ko'chib kelib, ajdodlari yaratgan xo'jalik sohaslarini unutib, yangi sohalarni o'zlashtira boshlaganlari hammaga ma'lum. Yangi Zelandiyada to'qimachilik qayta tiklangan va maoriylar yovvoyi holda o'suvchi zig'irpoya tolasidan turli matolar to'qishni o'zlashtira boshlaganlar.

XVI asr boshlarida orolliklarning asosiy tirikchiligi yo'g'on yo'nilgan yog'och bilan yerga ishlov berib dehqonchilik qilish va dengiz mahsulotlaridan foydalanish evaziga o'tgan. Ovchilik deyarli bo'lmagan, o'q-yoy faqat turli musobaqa o'yinlarida ishlatilgan. Hunarmandchilik esa dehqonchilikdan ajralgan holda rivojlana boshlagan. Ayniqsa, kemasozlik yaxshi taraqqiy topgan. Polineziyaliklar nihoyatda mohir dengizchilar hisoblanishgan. Maori, taiti. tonga va fidjiylar yasagan yelkanli katta kemalarda o'nlab-yuzlab kishilar uzoq safarga chiqqanlar. Shuningdek, ular kuchli to'lqinlarga moslashgan yog'och balansirli va katta qo'sh kema - katamaranlarni ham yasaganlar. Bunday kemalarda yuzlab. minglab kilometr masofani suzib o'tish mumkin bo'lgan.

Ishlab chiqarish qurollarini asosan, toshlarni silliqlab va chig'anoqlar bo'laklaridan yasaganlar. Har xil bolta va pichoqlardan tortib. nayza uchlari, qirg'ichlar, bigizlar, qarmoq va boshqa buyumlarni ham yasay boshlaganlar. Tosh yo'nish,

haykaltaroshlik, o'ymakorliklarni, ayniqsa, maoriylar yog'och devorlar va darvozalar, uy qurilishlarida juda keng qo'llaganlar.

Hozir ham polineziyaliklarning ko'pchiligi tropik tipdagi dehqonchilik ildizli ekinlar - yams, taro, batata va ayniqsa, mevali palma, banan daraxtlari: banan, pizanga ekish va baliqchilik bilan shug'ullanadilar. Uy hayvonlaridan tovuq, cho'chqa va it saqlaydilar. Chorvachilik Yangi Zelandiyada eng asosiy soha bo'lib, umumiy qishloq xo'jaligining 80 foizini tashkil qiladi. Dunyoda Yangi Zelandiya sariyog' ishlab chiqarish bo'yicha ikkinchi o'rinda turadi. Okean sohillari va atollarda yashovchi aholining erkak qismi asosan, baliq ovlash bilan band. Ular qarmoq, sanchqi. to'r va hatto o'simlik zahari bilan ham ov qiladilar.

Uy-ro'zg'or buyumlari yog'och, bambuk, kokos yong'og'i po'stlog'idan, o'simlik tolasidan to'qiladi. Ovqatni butun Okeaniyada keng tarqalgan «yer o'chog'ida» pishirganlar. Olovni ikkita yog'ochni ishqalash yo'li bilan chiqarganlar va o'tda toshni qizdirib, uning orasiga yaproqqa o'ralgan xom taom qo'yilib o'tin va xashak bilan bekilib pishirilgan.

Dehqonchilik va dengizchilik polineziyaliklarning asosiy kasbidir. Ular qishloqlarda yengil ustunlarga o'rnatilgan uylarda istiqomat qilganlar. Mahalliy aholi uy qurish, bo'yra to'qish va maxsus daraxt po'stlog'ining (figa yoki non daraxti) tolasi - tapadan kiyim tikishda ham zo'r mahoratga ega bo'lganlar. Tapadan tikilgan har xil yubkalar, etakli belbog'lar, zig'irpoya tolasidan tikilgan yoki yaproqdan ishlangan plash ularning asosiy kiyimi bo'lgan. Ular tapa parchalarini naqshlar bilan bezatganlar, sochlariga turli taqinchoqlar taqqanlar. Gavayya orollarida boy tabaqaga oid kishilar bir necha qavat yubka, qushlarning teri va patlaridan to'qib tikilgan plash kiyganlar. Bosh va oyoq kiyim kiyimaganlar. Ammo boshga naqshli lentalar va bargaklar taqish, bilaguzuk va gulchambarlar osish odat bo'lgan. Hozirda orolliklar noqulay bo'lsa-da, yevropacha kiyinishga odatlanib bormoqdalar.

Polineziyaliklarning ijtimoiy tuzumi Yevropa mustamlakasi arafasida qo'shni melaneziyaliklarga nisbatan ancha yuqori turgan. Ibtidoiy jamoa tuzumi yemirilib sinfiy tabaqa guruhlari paydo bo'lgan. Ijtimoiy hayotda qo'shnichilik va qishloq

jamoasi muhim rol o'ynagan. Eng asosiy ishlab chiqarish vositalari yer, o'rmon va dengiz boyliklari, katta kema to'rlari jamoaning mulki hisoblangan. Mehnat burch va huquq, jins va yoshiga qarab taqsimlangan. Uch-to'rt avloddan iborat qavm-qarindoshlar guruhi har bir jamoaning sotsial negizini tashkil qilgan. Pog'onaning eng yuqorisida qabila boshlig'i, zodagon va kohinlar, o'rtada erkin jamoa a'zolari va eng pastida qullar turgan. Quldorlik patriarxal tipda bo'lgan. Ayrim arxipelag va orollar (Gavayya, Taiti, Tonga va hokazo)da primitiv tipdagi davlat ham paydo bo'lgan. Oila jamoasi 30-40 kishidan iborat bo'lib, jamoaviy mulkka tayangan. 5, 10, 15 va ba'zan undan ham ko'proq oilalar qo'shnichilik jamoasini tashkil qilgan. Jamoa a'zolari - ranatira, zodagonlar - ariq, ariy, alilar, deb atalgan. Bola tarbiyasi butun jamoaga yuklanib, o'g'il bolalarni erkaklar, qizlarni ayollar tarbiyalagan.

Ichki jamoa munosabatlari va jamoalararo o'zaro munosabatlar dastlab qavm-qarindoshchilik va urug'chilik bilan belgilangan. Jamoa va qabilalar o'rtasida turli moddiy buyumlar, ishlab chiqarish vositalarini ayirboshlash ancha rivojlangan. Savdo-sotiq ishlarida pul vazifasini chig'anoqlar tizmasi, paket tuz, cho'chqaning so'yloq tishi, toshbolta va hokazolar bajargan.

Orolliklarning ma'naviy madaniyati ham ancha boy bo'lgan. Ular tropik iqlimda ildizli poliz ekinlari va mevali daraxtlarni ekib parvarish qilishda agrotexnik tajribalardan xabardor bo'lganlar. Bepoyon okean markazida yashayotgan polineziyaliklar tevarak-atrofni yaxshi bilganlar, dengiz oqimi va shamol, yo'nalishiga quyosh, oy va yulduzlarga qarab eng uzoq masofaga ham sayohat qilganlar, uzoq-yaqin joylashgan arxipelag va orollar tabiiy geografiyasidan taxminan xabardor bo'lganlar. Bir kun hisobi kechaga qarab belgilangan. Pasxa orolida 20 ta taxtaga bitilgan iyeroglif yozuv saqlanib qolganligi bejiz emas. Orolliklarda sodda ko'rinishdagi maktab tizimi faoliyat yuritgan. O'ziga xos maxsus maktablarda asosan, zodagonlarning bolalari o'qitilgan. Ularga astronomiya, dengiz oqimlari, ota-bobolarning ilm-tajribalari, mifologiya, kema haydash mahorati va boshqa amaliy bilimlar o'rgatilgan. Badiiy san'at namunalarini yog'och o'ymakorligi, haykaltaroshlik, tatuirovka qilish, qurollar, uy buyumlari va qurilish ishlaridagi turli naqshlar, har xil afsonaviy niqoblarda ko'rish mumkin.

Ularda improvizatsiyalashgan ashula va raqslar, pantomima, musiqa, turli marosimlar va ogʻzaki ijod keng rivojlangan.

Diniy eʼtiqodda buyuk tabiat xudolariga sigʻinish kuchli boʻlgan. Butun Polineziyada toʻrtta xudo - Tane, Tu, Rongo, Tangaroa -tabiat kuchlarini ifodalaydi. Shuning uchun ham, kosmogonik afsona va rivoyatlar keng tarqalgan. Shunisi qiziqki, xalq ijodining asosiy maʼnosi olam va inson bepoyon Okeaniya orollarini izchillik bilan egallashi tarixidan kelib chiqqan. Barcha afsona va rivoyatlarning bosh qahramonlari jasur dengizchilar, yangi yer va arxipelaglar axtaruvchi sayyohlar ekanligi shundan. Diniy eʼtiqodlarning xususiyati har bir inson tugʻilishi bilan qudratli gʻayritabiiy kuch -managa ega boʻlishdan iborat. Manajuda xavfli boʻlib, birovga tegsa oʻlim keltirishi mumkin. U tabaqalarga qarab har xil kuchga ega, qullarda mana boʻlmagan, ammo buyuk boshliqlar qudratli mana egasi hisoblangan. «Mana» tushunchasi «tabu» - soʻzi bilan bevosi-ta bogʻliq. Nimaiki managa ega boʻlsa, oʻsha narsa xavfli, yaʼni unga tegish man qilingan - tabu qoʻyilgan. Tabu soʻzi asli Polineziyada paydo boʻlib, uni dastlab Yevropaga atoqli dengiz sayyohi Kuk keltirgan. Tabu orolliklarda juda keng tarqalgan jamiyatdagi kasta (tabaqalanish) tizimini ifodalaydi.

Barcha diniy urf-odat va marosimlar kohinlar qoʻlida boʻlib, ular merosiy kasta hisoblangan. Kohinlar ham tabaqalangan, baʼzilari ibodatxonalarda xizmat qilsa, ayrimlari tabibchilik, folbinlik bilan shugʻullanganlar. Qabila boshliqlari bilan kohinlar qavm-qarindoshchilik munosabatiga kirishganlar. Ibodat qilish - ashula aytish yoki duo oʻqish, qurbonlik qilishdan iborat boʻlgan.

Okeaniya, shu jumladan, Polineziya orollari ham uzoq davrlar mobaynida yevropaliklar nazaridan chetda qolgan. Faqat XVII asrning ikkinchi yarmidan boshlab bu yerga yevropalik kit ovlovchilar, savdo kompaniyalarining agentlari (trederlar), qaroqchilar boylik axtarib kela boshlaganlar.

Aytish joizki, mustamlakachilarga yoʻl ochib berishda missonerlik harakati samara bergan.

Mustamlakachilar mahalliy aholini avrab-aldab arzimagan bu-yumlarga marvarid, dur, gavhar kabi qimmatbaho toshlarni almashtirganlar, oʻzlarini esa

talaganlar va serunum qulay yerlardan haydab chiqarganlar. Mustamlaka azobi va o'zaro urushlardan tub aholining ko'p qismi qirilib ketgan. Masalan, agar Polineziyada mustamlaka arafasida 1,1 million tub aholi bo'lgan bo'lsa, XX asr boshlarida 180 ming kishi qolgan, xolos. Mustamlakachi davlatlar orollarni bosib olish maqsadida turli nayranglarni ishlatganlar. Rus dengiz-chisi Kotsebu 1826-yilda yozgan edi: «Janubiy dengizning qaysi bir orolida yevropalik paydo bo'lsa, shu yerda vayronagarchilik va qirg'in bo'lib, butun bir qabilalar yer bilan yakson qilingan».

1778-yilda Kuk tomonidan kashf etilgan Gavayya orollarida 300 ming polineziyaliklar yashagan. Bu yerda o'ziga xos yuqori madaniyatga, armiya va flotga ega mustaqil qirollik bo'lgan. XIX asr boshlarida AQShning zo'r ta'siri ostida 1898-yili bu yerlar anneksiya qilinadi, ya'ni bosib olinadi. Urushlar, og'ir ekspluatatsiya va irqiy siyosat natijasida tub aholining ko'p qismi qirilib ketadi. AQShning yirik g'arbiy dengiz va g'arbiy havo plasedarmiga aylangan mazkur orollarga tashqaridan ko'plab ishchi kuchi keltiriladi. Gavayyaning hozirgi aholisi asosan, kelgindi, amerikalik va yevropaliklar 35 %, metislar 13-15 %, tub aholi esa faqat 3 % dan iborat.

Anchadan beri mustaqil davlat hisoblangan (1907-yildan dominion huquqiga ega) Yangi Zelandiyaning 3,2 milliondan ortiq aholisining 80 % i Buyuk Britaniya va Irlandiyadan kelgan, tub aholi maorilar esa hozir taxminan 300 ming kishini tashkil qiladi, xolos. Asosiy yer egalari - fermerlarning ko'pchiligi shaharda yashaydilar, fermalarda joylashgan uylarda esa asosan, yollanma ishchilar yashaydi. Yuksak darajada rivojlangan qishloq xo'jaligi sohasida hozir aholining 12 % i band. Sanoatning asosiy tarmoqlari - noz-ne'mat va oziq-ovqat tayyorlash hamda tog'-kon sanoatidir. Mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoati, avtomashinalarni yig'ish va ta'mirlash korxonalaridan iborat. Keyingi yillarda AQSH, Yaponiya va Avstraliya sarmoyasi yordamida bir qancha qog'oz va yog'ochni qayta ishlash korxonalari, alyuminiy zavodi qurilgan.

Polineziyaliklarning an'anaviy xo'jaligi, etnik tarixi Tinch okeanining markaziy qismida keng, taxminan bir million kvadrat kilometr suv sathidagi son-

sanoqsiz katta-kichik orollardan iborat Polineziya («Ko‘p orollar) shimolda Gavayya arxipelagi, janubda eng katta qo‘shorol - Yangi Zelandiya va sharqda Pasxa uchburchagi joylashgan. Asosan, vulqon va marjonlardan paydo bo‘lgan Polineziya orollari (Yangi Zelandiyani hisobga olmaganda) 26 ming kvadrat kilometrdan ortiq hududga ega, shundan 17 ming kv.km faqat Gavayya arxipelagiga tegishli, 220 ta orol esa har bittasi bir kvadrat kilometrdan ham kam joyni egallaydi. «Polineziya» so‘zi ilk marta 1756-yilda fransuz yozuvchisi Sharl Bross tomonidan fanga olib kirilgan bo‘lib, u dastlab Tinch okeanidagi barcha orollarga nisbatan qo‘llangan. 1831-yilda esa fransuz sayohatchisi, dengizchi, okeanshunos Jyul Dyumon-Dyurvil Fransuz geografiya jamiyatida qilgan ma’ruzasida mazkur atamani ma’lum ma’noda chegaralash va hozirgi ko‘rinishida qo‘llashni taklif qilgan.

Polineziya hududiga Yangi Zelandiya (uning hududi 265 ming km kv)dan tashqari 9 ta katta arxipelag -Gavayya, Samoa, Jamiyat orollari, Markiz, Tonga, Tuamotu, Kuk, Tubuan, Ellis va boshqa juda ko‘p yirik hamda mayda orollar kiradi. Yangi Zelandiyada hozir 3,5 mln. dan ortiq aholi bo‘lsa, umuman Polineziyada 4,5 mln. ga yaqin kishi yashaydi. Polineziyaliklarning kelib chiqishi, Okeaniyaning boshqa xalqlaridan farqli tarzda, ma’lum ma’noda Amerika qit’asi bilan ham bog‘liq bo‘lgan.

Antropologik jihatdan tub polineziyaliklar, asosan, mongoloid, avstrolo-negroid va qisman yevropoidlarning aralashmasidan paydo bo‘lganlar. Mazkur tiplar Polineziyaga Fiji arxipelagi, keyin Tonga va Samoa orollari orqali miloddan avalgi ikki minginchi yilning o‘rtalaridan boshlab kirib kela boshlagan. Ular o‘ziga xos maishiy turmush va madaniyat asosida umumiy polineziya etnik birligini yaratib milodning birinchi va ikkinchi ming yilligi davomida asta-sekin butun Polineziyani egallab olganlar.

Ammo ayrim olimlar, dastaval mashhur norveg tadqiqotchisi Tur Xeyerdal, Polineziyaga odamlar birinchi bo‘lib Janubiy Amerikadan, chunonchi, qadimda yuksak madaniyat markazi bo‘lgan And tog‘laridan ko‘chib kelganlar, degan g‘oyani ilgari surdilar. Tur Xeyerdal o‘z fikrini isbotlash maqsadida 1947-yili

beshta hamrohi bilan «Kontiki» nomli maxsus kemada Perudan Tuamotu orollarigacha sayohat qiladi. U juda ko'p manba to'playdi, ayniqsa, Pasxa va Markiz orollarida toshdan yasalgan katta haykallar, yozuv qoldiqlari, ayrim ekinlar va boshqa dalillarga tayanib, Polineziya orollarini, dastawal faqat Amerikadan kelgan kishilar egallagan, degan xulosaga keladi. Buning dalili sifatida hozirda unut bo'lib ket-gan kulolchilik, temir ishlab chiqarish, to'qimachilik sanoati namunalarining ayrim orollarda (Markiz, Samoa, Tonga) topilganligini ko'rsatadi. Polineziyaliklar nihoyatda mohir dengizchilar hisoblanishgan. Maori, taiti, tonga qabilalari ov qilish bilan faqat katta orollarda, asosan, yovoyi to'ng'iz va qushlarni ovlash bilan shug'ullanishgan⁶⁹. Shu bois Okeaniyaliklarning asosiy mashg'uloti tropik dehqonchilik, aniqrog'i, polizchilik bo'lib, bu mashg'ulotga qo'shimcha tarzda chorvachilik va baliqchilik bilan ham mashg'ul bo'lingan.

Hozir ham polineziyaliklarning ko'pchiligi tropik tipdagi dehqonchilik: ildizli ekinlar - yams, taro, batata va, ayniqsa, mevali palma, banan dara'xtlari: banan, pizanga ekish va baliqchilik bilan shug'ullanadilar. Uy hayvonlaridan tovuq, cho'chqa va it saqlaydilar.

Chorvachilik hozir Yangi Zelandiyada eng asosiy soha bo'lib, umumiy qishloq xo'jaligining 80 foizini tashkil qiladi. Dunyoda Yangi Zelandiya sariyog' ishlab chiqarish bo'yicha ikkinchi o'rinda turadi. Okean sohillari va orollarda yashovchi aholining erkak qismi, asosan, baliq ovlash bilan band. Ular qarmoq, sanchqi, to'r va hatto o'simlik zahari bilan ham ov qiladilar.

III. 2. Aholininig moddiy va ma'naviy madaniyati.

Polineziyaliklarning ma'naviy madaniyati ham ancha boy bo'lgan. Ular tropik iqlimda ildizli poliz ekinlari va mevali daraxtlarni ekib parvarish qilishda agrotexnik tajribalardan xabardor bo'lganlar. Bepoyon okean markazida yashayotgan polineziyaliklar tevarak-atrofni yaxshi bilganlar, dengiz oqimi va shamol, yo'nalishiga quyosh, oy va yulduzlarga qarab eng uzoq masofaga ham sayohat qilganlar, uzoq-ya-qin joylashgan arxipelag va orollar tabiiy geografiyasidan taxminan xabardor bo'lganlar. Bir kun hisobi kechaga qarab belgilangan.

⁶⁹ Jabborov I. Jahon etnologiya asoslari.-T. 2005. 87-bet

Pasxa orolida 20 ta taxtaga bitilgan ieroglif yozuv saqlanib qolganligi bejiz emas. Badiiy san'at namunalarini yog'och o'ymakorligi, haykaltaroshlik, tatuirovka qilish, qurollar, uy buyumlari va qurilish ishlaridagi turli naqshlar, har xil afsonaviy niqoblarda ko'rish mumkin. Ularda improvizatsiyalashgan ashula va raqslar, pantomima, musiqa, turli marosimlar va og'zaki ijod keng rivojlangan. Diniy e'tiqodda buyuk tabiat xudolariga sig'inish kuchli bo'lgan. Butun Polineziyada to'rtta xudo - Tone, Tu, Rongo, Tangaroa - tabiat kuchlarini ifodalaydi. Shuning uchun ham, kosmogonik afsona va rivoyatlar keng tarqalgan. Shunisi qiziqki, xalq ijodining asosiy ma'nosi olam va inson bepoyon Okeaniya orollarini izchillik bilan egallashi tarixdan kelib chiqqan. Barcha afsona va rivoyatlarning bosh qahramonlari jasur dengizchilar, yangi yer va arxipelaglar axtaruvchi sayyohlar ekanligi shundan. Tabu so'zi asli Polineziyada paydo bo'lib, uni dastlab Yevropaga atoqli dengiz sayyohi Kuk keltirgan. Tabu orolliklarda juda keng tarqalgan jamiyatdagi kasta (tabaqalanish) tizimini ifodalaydi.

Polineziyada barcha orollarda qadrlangan ibodatxona markazlari bo'lgan. Aynan mana shunday markazlardan biri Taiti arxipelagidagi Raztea orolidagi Opoda bo'lgan. Bu yerda kohinlar maktabi bo'lib, yon atrofdagi orollar aholisi o'g'illarini o'qishga olib kelgan. Opoda rasmiy marosimni o'tkazish maqsadida Polineziyaning turli tomonlaridan kohinlar do'iriy ravishda yig'ilib turgan.

Polineziyaning yana bir farqli xususiyati shundaki, bu yerda «aslzoda ayollar» bo'lgan bo'lib, ular aka-singil bo'lsa-da, darajasiga ko'ra zodogon erkaklardan yuqori turgan. Ayollar qabila sar-dori bo'lishi mumkin hisoblangan. Lekin ularning o'z orolidagi erkak-ga turmushga chiqishi juda mushkul bo'lgan. Chunki doimo ham uning mavqeidagi erkak bo'lavermagan. Shu bois ko'p hollarda bunday ayollarni qo'shni orollarga turmushga berishgan⁷⁰.

Polineziyada o'zaro ichki nikoh bo'lgan. Yosh oilalalar orasida kelin-kuyov orasida kimning eri ko'p bo'lsa u tomonida yashagan. Ko'p farzandli oilalar baxtli oila hisoblangan.

⁷⁰ Ashirov A. Etnologiya.-T., 2014. 229-bet

Yangi Zellandiya aholisi va etnik tarixi. Yangi Zellandiya Kuk bo'g'ozi orqali ajralib turgan Shimoli va Janubi orollarda joylashgan. Yangi Zelandiyaga Tinch okeandagi bir qancha mayda orollar ham kiradi. Mamlakatning 3/4 qismi tog', qir va tepaliklar bilan band. Sohili va dare vodiylari pasttekislik. Shimoliy orolda tez-tez zilzila bo'lib turadi, so'nagan vulqanlar, geyzerlar, qaynoq mineral buloqlar bor. Janubiy orolda Janubiy Alp tog'lari joylashgan (eng baland joyi 3764 m — Kuk tog'i; cho'qqdlarda abadiy qor va muzliklar bor). Shimoliy orol qirg'og'i yaqinidagi shelfda neft, gaz, temir, mis, polimetall rudalari, oltin, kumir konlari bor. Iqlimi subtropik dengiz iqlimi, chekka janubda mo'tadil iqdim, Iyulning o'rtacha harorati shimolda 12°, janubda 5°, yanvarniki shimolda 19°, janubda 14°. O'rtacha yillik yog'in 400—700 mm, tog' yon bag'irlarida 2000—5000 mm. Daryolari sersuv, gidroenergiya zaxiraga boy. Eng yirik daryosi — Uaikato (uzunligi 354 km). Ko'llari ko'p: eng yirigi — Taupo (mayts. 612 km kv). Yangi Zellandiya sariq, qoramtir va kashtan tuproq, tog'larda tog'-o'rmon, tog'-o'tloqi tuproklar tarqlgan. O'rmon, asosan, baland tog'larda saqlanib qolgan (mamlakat hududining 23%). O'simlik turlarining 75% dan ziyodi endemik. mahalliy daraxt turlari (kauri, namaki, rimu, tarairo va boshqa) ko'p. Hayvonot dunyosi kambag'al. Sut emi-zuvchilardan kalamush, it, ko'rshapalaklar, sudralib yuruvchilardan tuatara, qushlardan pingvin, nayburun, chag'alay va boshqalar ko'p. Uchmaydigan qushlar-dan kivi, uzka, moa va uchadigan moyqut, chittak, chug'urchiq bor. So'nggi 100 yil davomida hayvonot dunyosi butu, serna, tulki, quyon va boshqalar hisobiga ancha boyidi. Yangi Zelandiyada 10 milliy bog' (Maunt-Kuk, Tongariro, Fyordlend va b.), 2 dengiz parki, ko'plab rezervatlar bor.

Yangi Zelandiya - qishloq xo'jaligi yuksak darajada rivojlangan industrial-agrar mamlakat. Yalpi ichki mahsulotda qishloq xo'jaligi 9 foiz, sanoat 25 foiz, xizmat ko'rsatish tarmog'i 66 foizni tashkil etadi.

Qishloq xo'jaligining asosi - sut, go'sht va go'sht jun chorvachiligi mashhur hisoblanadi. 47,5 mln. qo'y, 9 mln. qoramol boqiladi. Yangi Zelandiya sariyog', go'sht, jun va pishloq eksport qilish bo'yicha dunyoda oldingi o'rinlarda turadi. Yem-xashak ekinlari, bug'doy, arpa, sulii, dukkakli don ekinlari, sabzavot ekinlari

ekiladi. Meva, jumladan, kivi yetishtirila-di. Bog'dorchilik (sitrus mevalar, olma, nok, shaftoli, gibs), tokchilik rivojlangan. Baliq va kit ovlanadi. O'rmonda yog'och tayyorlanadi.

Sanoatida oziq-ovqat va yengil sanoat rivojlangan. Qora va rangli metallurgiya, mashinasozlik, yog'och-sozlik va sellyuloza-qog'oz, kimyo, to'qimachilik sanoati korxonalari mavjud. Alyuminiy, plastmassa, o'g'it, sement, chinni zavodlari bor. Kon sanoatida tabiiy gaz, temir rudasi, mis, qo'rg'oshin, rux, oltin, kumush, qo'ng'ir va toshko'mir, titan (magnetit qumi) qazib olinadi. Mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoati, avtomashinalarni yig'ish va ta'mirlash korxonalaridan iborat. Keyingi yillarda AQSh, Ya-poniya va Avstraliya sarmoyasi yordamida bir qan-cha qog'oz va yog'ochni qayta ishlash korxonalari, alyuminiy zavodi qurilgan⁷¹.

Aholisining asosiy qismi yangi zelandiyaliklar; ular yangi zelandiyalik inglizlar va maorilar (15%) ga bo'linadi. Bundan tashqari, polineziyaliklar, ingliz, shotland, irland, xitoy, hind va b. xalqlar ham yashaydi. Rasmiy tillar — ingliz va maori tillari. Dindorlarning aksariyati — protestantlar. Shahar aholisi 85%. Yirik shaharlari: Vellington, Oklend, Kraystcherch.

Yangi Zelandiyaga X-XIV asrlarda maorilar kelib joylashgan. Yevropaliklardan birinchi marta 1642- yilda gollandiyalik dengizchi A.Tasman borgan. 1769-1770- yillarda ingliz dengizchi sayyohi J.Kuk orollarni tadqiq qilgan.

XIX asrning boshlarida yevropaliklarning dastlabki aholi punktlari paydo bo'ldi. Ayni vaqtda maorilarga tegishli yerlarni bosib olish jarayoni boshlandi. 1840 yilda dastlabki ingliz muhojirlari Vellington shaxrni barpo etdilar. 1840-yildan Angliya Yangi Zelandiyani o'z mustamlakasiga aylantirdi. 1843- yil maorilarning ingliz mustamlakachilariga qarshi qurolli qo'zg'oloni boshlandi. 1872-yilga kelib maorilarning qarshiligi to'la bostirildi. 1907 -yil Yangi Zelandiya dominion maqomini oldi. 1-jahon urushi (1914—18)da Yangi Zelandiya Buyuk Britaniya tomonida bo'ldi. Urushdan so'ng Yangi Zelandiya Germaniyaning sobiq mustamlakalari bo'lgan G'arbiy Samoa va Nauruni Buyuk

⁷¹ [www// ziyounet .uz](http://www.ziyounet.uz).

Britaniya va Avstraliya bilan birgalikda boshqarish uchun mandat oldi. 1926- yil imperiya konferensiyasi va 1931- yil Vestminster statuta bilan tasdiqlangan qarorlar asosida Yangi Zelandiya tashqi va ichki ishlarda to'la mustaqillikka ega bo'ldi. Ammo 2-jahon urushi (1939—45) gacha Buyuk Britaniya Yangi Zelandiyaning barcha tashqi aloqalarini nazorat qilib turdi. 2-jahon urushida Yangi Zelandiya antifashistik koalitsiya tomonida bo'ldi. 1930-yilardan hokimiyatni navbatma-navbat Milliy partiya va Leyboristlar partiyasi egallab kelmokda. Yangi Zelandiya 1945-yil BMTa'zosi. 1992-yi 19-martda O'zbekiston Respublikasi suverenitetini tan olgan va diplomatiya munosabatlari o'rnatgan. Milliy bayrami -6 fevral Vaytanga kuni 1840-yil 6-fevraldan nishonlanib keladi⁷².

Yangi Zelandiyada ta'lim 6 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun majburiy va bepul bo'lgan . Davlat maktablari bilan birga xususiy maktablar ham bor. O'qish muddati boshlang'ich maktablarda 6 yil, oraliq maktablarda 2 yil, 8 yillik maktab (boshlang'ich va oraliq)dan keyingi bosqich o'rta maktab (o'qish muddati 3 yil). Kollej va oliy o'quv yurtlarida o'qish pulli bo'lib, mamlakatda 7 ta universitet va texnika institutlari bor.

Ingliz mustamlakachilari kelgunga qadar maorilar to'g'ri burchakli, ikki nishabli tomi o'tlar bilan yopiladi-gan yog'och uylardan iborat qishloqlarda yashagan. XIX asrning ikkinchi yarmidan aniq reja bilan (Kraystcherch, Oklend) yoki tabiat manzarasi bilan uyg'unlashtirib qurilgan (Vellington) shaharlar qad ko'tara boshladi. Ma'muriy bino va ibodatxonalar avval neoklassitsizm va neogotika uslubida, XX asrning 20-30-yillaridan zamonaviy shakllarda qurildi: 1960-1970-yillardan yangi qurilish materiallari va konstruksiyalar qo'llanila boshladi. Bir qavatli uylar. inglizlarnikiga o'xshatib qurilsa ham, o'ziga xos mahalliy xususiyatlarga ega.

⁷² Jahon mamlakatlari.-T., „Sharq“, 2006. 396-bet

III.3.Mikroneziya xalqlarining etnik tarixi, an'anaviy xo'jaligi, moddiy va manaviy madaniyati.

Mikroneziya ("Mayda orollar") ga asosan marjon va vulqon orollardan paydo bo'lgan juda ko'p mayda orollar kiradi. Bunga Tinch okeanining g'arbiy qismida joylashgan Marshall, Karolin, Marian orollari va Gilbert arxipelagi kiradi. Nihoyatda keng hudud (14 mln. kvadrat km.) da tarqoq joylashgan mazkur orollarning umumiy maydoni 3,5 ming kv.km.ga ham yetmaydi. Ammo geografik mavqei nuqtai nazardan Mikroneziya Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlari bilan Poleniziya va Melaneziya orolida joylashganligi juda qulay.

Antropologik jihatdan Mikroneziya aholisi melaneziya va polineziyaliklarga yaqin mongoloid va negroid irqining aralashamasidan paydo bo'lgan tipdir. Ular o'rta bo'yli, jigar rang tanli va bir oz jingalak sochli. G'arbiy Mikroneziyada mongoloid qo'shimchasi borligi seziladi.

Mikroneziya xalqlarining tillari kam o'rganilgan, ammo so'nggi klassifikatsiya ma'lumotlari malayya-polineziya turkumi avstroneziya til oilasiga oid ekanligini tasdiqladi. Mikroneziyaliklarning ko'p qismi mazkur til oilasining sharqiy yoki okeaniya shoxobchasiga kiradi. Shulardan eng kattalari Gilbert arxipelagidagi tungaru Karolin orollaridagi truk, marshalliklardir. Sof okeaniya tilida so'zlashadigan Sharqiy Mikroneziyada 10 ta xalq yashaydi. G'arbiy shoxobchasiga oid belau xalqi g'arbiy Mikroneziyada yashaydi. Bulardan tashqari ko'p sonli metislar va immigrantlar ham mavjud.

Mikroneziyaliklarning xo'jaligida serunum yerlar kam bo'lganligi tufayli faqat kokos palmasi shakarqamish, non daraxti o'stiriladi. Aholisi asosan, baliqchilik bilan kun ko'radi. Mayda orollarda qisman o'ziga xos madaniyatga ega bo'lgan dengiz ko'chmanchilari deb nom olgan kabilalar ham yashaydi. Baliq ovi texnikasi ancha rivojlangan: 30-40 metr keladigan yog'och tolalardan to'qilgan to'rlar, bambukdan pupak va xinjilardan qarmoqlar, xivichdan yasalgan har xil to'rlar, sanchki va hokazo. Palau orollarida sholikorlik va kulolchilik bilan shug'ullanganlar. G'arbiy Mikroneziyada sug'orish dehqonchiligi asosiy rolni o'ynasa. Sharqiy qismida baliqchilik eng muhim soha hisoblangan.

G'arbning moddiy madaniyati yuksak kulolchilik, tosh ustunlarga uy qurish va boshqa kasb xususiyatlari bilan ham ajralib turadi. Tosh yoki yog'och ustunlarga qurilgan uylari palma yaprog'i bilan yopilgan. Kiyimlari o'simlik tolalaridan to'qilgan har xil belbog' va etaklardan iborat, ayollar asosan, xashak va yaproqlardan tikilgan yubka kiyadilar.

Ayrim orollar ijtimoiy tuzumida va ma'naviy madaniyatida ibtidoiy an'anaviy munosabatlar saqlangan. Ammo sotsial tabaqalanish ham paydo bo'lgan. Harbiylar, dengizchilar va kemasozlar zodagonlar tabaqasiga kirgan, dehqonchilik va baliqchilik bilan shug'ullanuvchilar esa kambag'al hisoblanganlar. Ayrim Palau kabi orollarda urug' va qabilaviy munosabatlar kuchli bo'lgan. Ayniksa, ona urug'i tartib qoldiqlari saqlangan, qizlar erkin nikoh huquqiga, umuman ayollar erlar bilan teng huquqqa ega bo'lganlar.

Karolin va Marshall orollarida qabila boshliqlarining hukmronligi va an'anaviy ijtimoiy tartiblari hozirgacha ham saqlangan. Dini qadimiy animistik tasavvurlar bilan bog'lik o'liklar va ajdodlar ibodatidan iborat. Folbin va koinlar ham bo'lgan. Hozir ko'p orollarda xristian dini ayniqsa, katolissim tarqalgan. Ammo "muqaddas homiylar"ga ba'ishlangan bayramlar ("Fiyesta") ni nihoyatda tantanali nishonlaganlar. Juda boy va hashamatli nikoh to'ylari ham o'ziga xos xarakterga ega bo'lgan⁷³.

Mikroneziya hozirgi davrda butunlay AQSH ta'sirida. Ular orol qulay yerlarining ko'p qismini egallab olganlar, tub aholiga esa 40 foizgina yer tekkan xolos. Marian va Marshall orollarining ko'p qismida amerikaliklarning g'arbiy ba'zalari joylashgan. Shu bilan birga AQSH hukmronligi natijasida orollarda iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy qoloqlik ham hukm surmoqda.

Mikroneziyaning hozirgi iqtisodiyoti asosan, kokos palmasini o'stirish va kokos yong'og'ini ishlab chiqarishdan iborat. Ayrim orollarda shakarqamish, kakao va sabzavot yetishtiriladi. Ishchi kuchi sifatida asosan, tub aholi ishlatiladi. Gilbert orollarida fosforit qazib olinadi. Maorif tizimi nihoyatda past darajada rivojlangan.

⁷³ Jabborov I. Jahon etnologiyasi asoslari. T., 2005. 94-bet

III.BOB bo'yicha xulosa. Okeaniyada joylashgan minglab orollar janubga yaqinlashgan sari ancha yiriklashib boradi. Eng yirik orollar: Yangi Gveniya, Yangi Zelandiya, Yangi Kalidoniya va boshqalardir. Sharqiy va shimoliy Tinch okeanida joylashgan polineziyalik va mikroneziyaliklar, shubhasiz, ancha keyin kelib o'rtnashgan. Bir necha yuz va hatto ming kilometrlab uzoqlikda cheksiz va dahshatli okeanda qad ko'targan son-sanoqsiz mayda orollarni egallash uchun albatta yuksak madaniyatli, ayniqsa, kemasozlik va dengiz sayohati sirlarini bilgan kishilar zarur edi. Hozirgacha tadqiqotchilar orasida bunday jasur va mohir dengiz sayyohlarining vatani qayerda ekanligini aniqlash yo'lida murosasiz bahs va tortishuvlar davom etmoqda. Mashhur norveg sayyoh olimi Tur Xeyerdal, atoqli polineziyalik etnograf Te Rangi Xiroa (Piter Bak) va boshqalarning mulohazalarini keltirgan edik. Gavayya, Pasxa, Taiti va boshqa orollarda topilgan ajoyib arxeologik buyumlar, nihoyatta bahaybat tosh haykallar, ko'p kishi sig'adigan, uzoq masofaga mo'ljallangan yelkanli katta kemalar va boshqalar okeaniyaliklarni yuksak madaniyatli ajdodlar avlodi ekanligidan dalolat beradi.

Okeaniyadagi orollarning etnik tarixi, an'anaviy xo'jaligi, moddiy va ma'naviy madaniyatida rivjlanish ham har xil masalan, Bugungi kunda chorvachilik asosan Yangi Zelandiyada keng rivojlangan. Eng muhim soha qo'ychilikning go'sht-jun yo'nalishi va qoramolchilikdir. Baliqchilik sanoati asosida Gavayyada, baliqchilikdan tashqari kit ovlash Yangi Zelandiyada tashkil etilgan.

Okeaniyaning qator mamlakatlarida yog'och tayyorlash va xomashyo ishlab chiqarish sanoatlari shakillangan. Yog'och tayyorlash Yangi Gveniya va Yangi Zelandiyada, nikel va temir konlari Yangi Kaledoniyada, oltin Yangi Gveniya va Fidjida, ko'mir Yangi Zelandiyada qazib olinadi. Okeaniyaning Yangi Zelandiya, Gavayya, Fidji va yana qator orollari dengiz va havo yo'llari orqali bog'langan. Lekin Tokelau, Yollis, Xori orollarining tashqi dunyo bilan aloqalari uzoqligidan ma'lum qiyinchiliklar tug'diradi.

Okeaniya mamlakatlarining asosiy eksport mahsulotlari qopra, chorvachilik mahsulotlari, jun, go'sht, sut mahsulotlari; Yangi Zelandiya, Gavayyadan-ananas; Gavayya, Fidjidan-shakarqamish; Yangi Kalidoniya-nikel, bo'lib ularning iqtisodiy aloqalari asosan metropoliyalar bilan olib boriladi.

Xulosa

Haqiqiy o'tmishini anglab, ulug' tarix va buyuk merosini idrok etib, uni qaytadan tiklash yo'lini tanlash xalq irodasi kuchli bo'lishini va u o'z taqdirini o'zi yaratishga qodir bo'lgan bunyodkorlik hissi bilan yashashni hayot ko'rsatadi. Ko'hna tarix sahifalarida xalqlarning turli moddiy va ma'naviy madaniyati, diniy tasavvurlari, etiqodlari, xalq og'zaki ijodi namunalari, shu bilan birga turli tuman fojialar ham ko'zga tashlanadi.

Yevropa mustamlakasi davrida (XVIII-XIX asr) Avstraliya va Okeaniya xalqlari etnik tarixiga nazar soladigan bo'lsak, ularning xo'jalik faoliyati va ijtimoiy tuzimida, tili va irqiy tuzilishida qadimiy ibtidoiy an'analarning shunchalik chuqur saqlab qolganki, boshqa qit'alarda ularga o'xshash belgilar deyarli uchramaydi. Ayniqsa bu xususiyat mahalliy tillarda yorqin namoyon bo'lgan, albatta. Boshqa yerlardagi kabi maskur qit'ada ham uzoq tarixiy davr mobaynida taraqqiyot ro'y berib, eng ibtidoiy davrdagi ijtimoiy va madaniy hayotda ham muayyan o'zgarishlar sodir bo'lib turgan.

Ayniqsa mustamlakachilikdan keyin maskur qit'ada yashovchi tub joy aholining moddiy va ma'naviy hayotida hamda ijtimoiy, maishiy va madaniy turmushida jiddiy o'zgarishlar ro'y bera boshladi. Buning natijasida o'ziga xos ko'pgina etnik xususiyatlar yo'qola boshladi. Bepoyon Tinch okeanida joylashgan ko'p sonli katta-kichik orollarda turli millat va elatlar, asosan Melaneziya, Mikroneziya va Polenezziyada yashaydilar. Ular beshinchi qit'a aholisiga nisbatan yuqori madaniyatga ega bo'lgan.

Bugungi kunda Avstraliya Hamdo'stligi federativ, ko'ppartiyali, oliy monarxiya boshqaruvidagi davlatdir. Avstraliya dunyoning taraqqiy etgan davlati hisoblanib, uni industrial-agrar mamlakat deb aytish mumkin.

Avstraliya yalpi mahsulotining 3/4 qismini sanoat taminlaydi. Hozirgi davrda Okeaniyadagi taraqqiy etgan davlatlardan biri Yangi Zelandiya hisoblanadi. Okeaniyaning qator mamlakatlarida yog' tayorlash va xomashyo ishlab chiqarish sanoatlari shakllangan. Okeaniyaning Yangi Zelandiya, Gavayya, Fidji va qator orollari dengiz va havo yo'llari orqali bog'langan. O'rganilayotgan mintaqada

dehqonchilik, hunarmandchilik savdo sotik kabilar ham taraqqiy etib bormoqda. Barcha sohalarda transformatsiyon o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Bu holatni etnomadaniy jarayonlarda ham ko'rish mumkin.

Shu boisdan Avstraliya Okeaniya aholisining kelib chiqishi, etnik qiyofasi va shakllanishi va joylashishi va etnik xususiyatlarini aniqlash hamda etnomadaniyatini xolisona o'rganish, ularning jahon madaniyatiga qo'shgan hissasini ilmiy tadqiq etish etnologiya faniningeng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha quyidagi yakuniy xulosalar kelib chiqdi:

- Avstraliya aholisining etnik tarixi, an'anaviy xo'jaligi, moddiy va manaviy madaniyati yoritildi;
- Okeaniya xalqlarining etnomadaniyati bayon etildi;
- Polineziya va Mikroneziya xalqlari etnomadaniyati tafsif berildi;
- Jahon etnomadaniyatida Avstraliya va Okeaniya xalqlarining tutgan o'rni teran yoritildi.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha quyidagicha amaliy tafsiyalar berish mumkin:

- maskur dissertatsiya matyriallardan xalqaro aholiga doir ma'ruzalarda foydalanish;
- O'zbekiston hamda Avstraliya va Okeaniya mamlakatlari hamkorlik aloqalariga bag'ishlangan tadqiqotlariga qo'llash;
- Oliy o'quv yurtlari tarix fakultetlarida etnologiya bo'yicha mashg'ulotlarda, talabalarning referat, ma'ruza, biriruv malakavi ishlari, albomlar tayorlashda qo'llash;
- o'rta maktablar litseylar va kasb- hugar kolejlar jahon tarixi darslarida foydalanish;
- baynallmilal ruxdagi ma'rifiy tadbirlarda qo'llash.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

I.O'zbekiston Respublikasi qonunlari.

1.1.O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi - T.: O'zbekiston, 2012.-40 b.

II. Ўзбекистон Республикаси Президент фармонлари ва қарорлари, Вазирлар Маҳкамасининг қарорлари.

2.1.Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта таълим вазирлиги ҳузурида Ўзбекистоннинг энг янги тарихи бўйича Жамоатчилик кенгашили ташкил этиш тўғрисида Ўзбекистон Республика Президенти қарори.-Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари 2012 йил 12 февраль, 5-сон, Б.4-7.

III. Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А.Каримовнинг асарлари:

1.Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва таракқиёт кафолатлари. Т.: "Ўзбекистон", 1997. -326-b

2..Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. -Т.: "Шарқ", 1998.-31-b.

3.Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. Т.: "Ma'naviyat", 2008.-176-b.

4.Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari.-Т.: „O'zbekiston“, 2009.-56-b.

5. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqilikka erishish ostonasida.-Т.: „O'zbekiston“,2011.-440-b.

IV. Асосий адабиётлар

1. Австралия ва Океания : история, экономика, этногенез. -М.: „Nauka“, 1978.-80 s.

2. Бутинов Н. А. Папуасы Новой Гвинеи (Хозяйство, общественной строй) М.: 1988.-120s.

3.Во'лневич Я. У аборигенов Океании. М.:»Наука» 1965. 187s.

4. Дамм Г. Канака- люди южных морей. М.: 1964. 211s.

5.Дик Рафси. Луна и радуга. М.: 1978.146s.

6..Кабо В.Р. Происхождении и ранняя история аборигенов Австралии. М.:1969. 165s.

7. Котсебу О.Е. Путешествие вокруг света. М.: «Наука». 1948.

8. Народы Австралии и Океанийи М.: Академии Наук 1956.-390 s.

9.Океанский этнографический сборник. М.: „Nauka“, 1957. 260 s.

10.Пучков П.И. Население Океании. Этнографический обзор. М.:1967.258s.

11.Пучков П.И. Формирование население Меланезии., М.: 1968. 227s.

12.Пучков П.И. Этнические ситуация в Океании М.: 1983. 176-b.

13.Пучков П.И. Этнические развитие Австралии М.: 1987.

14.Роуз Ф. Аборигены Австралии. М.:1989. 319-b.

15.Свет Я. М История открытия и исследования Австралии и Океании. М.: 1966.

16.Чеслинг У. Среди кочевников Северной Австралии. М.: 1961. 170-b.

17.Эл'кин А. Коренные население Австралии М.: 1962.

18.Этнографъи расказвают М.: 1978.

V. Darsliklar, o'quv qo'llanmalari qўshimcha adabiyotlar

- 1.Aminov B Etnografiya olamiga sayohat. -T.: „Fan’’, 1988. -56-b.
2. Аширов. А. Этнология Т.: A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti 2007.-276-b.
- 3.Аширов. А. Этнология Т.: „Yangi nashr’’, 2014.-544-b.
- 4.Гадоев К, Бердиева S. Жаҳонгашта сайёҳ-олимлар -Т.: „O'zbekiston ‘’, 2012.-272-b.
- 5.Жабборов И.М. Жаҳон этнологияси асослари, Т.: „Yangi asr avlodi’’, 2005. -315-b.
- 6.Жабборов И.М. Жаҳон этнологияси асослари.Т.: „O'qituvchi’’, 2008. -352-b.
- 7.Жабборов И., Жабборов С. Жаҳон динлари тарихи. Т.: „O'qituvchi’’, 2001. -250-b.
- 8.Жаҳон мамлакатлари. Қисқа маълумотнома. Т.: Шарқ. 2006.-384-b.
- 9.Садохин А.П. Этнология. -М.: „Nauka’’, 2000.-250-b.
- 10.Салимов Т. Австралия ва Океания халқлари. Т.: „O'zmu’’,2003. -112-b.
11. 14. Narodi Avstraliyi i Okeaniyi М.:Akademii Nauk 1956.-390 s.
- 12.Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 1-ж-Т.:Ўзбекистон миллий энциклопедияси ilmiy нашриёти, 2000. -75-80-b.
- 13.Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 6-ж-Т.:Ўзбекистон миллий энциклопедияси ilmiy нашриёти, 2003. -487-490-b.

VI. Даврий нашрлар, статистик тўпламлар ва ҳисоботлар

1. Брук С.И. Население мира.М.: „Nauka’’, 1986. 380 s.

VII. Xorijiy adabiyotlar.

- 1.Magidovich. I.P. Magidovich B.I „Ocherki po istorii geograficheskix otkr'itii. В 5-ti tomax (elektronnaya kniga) [http:// www. lib.rus.es](http://www.lib.rus.es).

VIII. Интернет сайтлари

- 1.[www.n.b.g.t. intal. uz](http://www.n.b.g.t.intal.uz).
- 2.[www//ziyonet. uz](http://www//ziyonet.uz).
- 3.www. arxiv. uz
- 4.[http://:feb-veb. ru/feb/izvest/1940/03/403-089htm](http://feb-veb.ru/feb/izvest/1940/03/403-089htm)
- 5.file: //localhost/C:Documents/%20and %20Settings/...

Ilova

Австралиянинг ҳудудий бўлиниши

Н	Штатлар ва ҳудудлар	Майдони, минг кв.км	Маъмурий маркази
1	Янги Жанубий Уэлс	801,4	Сидней
2	Виктория	227,6	Мелбрун
3	Квинсленд	1727,5	Брисбен
4	Жанубий Австралия	984,4	Аделаида
5	Ғарбий Австралия	2527,6	Перт
6	Тасмания	68,3	Хобарт
7	Шимолий ҳудуд	1347,6	Дарвин
8	Федерал пойтахт ҳудуди	2,4	Канберра

Okeniyaning siyosiy bo`linishi

T/r	Mustaqil davlatlar va qaram orollar nomi	Maydoni (ming kv.km)	Aholisi, ming kishi (1999)	Poytaxti yoki ma`muriy markazi
1	Amerika Samoasi	0,195	67,7	Pago-Pago
2	Vanuatu Respublikasi	12,22	189,6	Port-Vila
3	Guam(AQSH mulki)	0,549	151,7	Xagatna
4	Irian–Jaya (Indoneziya provinsiyasi)	422	3506	Jayapura
5	Kiribati Respublikasi	0,81	91,9	Bairiki
6	Kuk orollari (Yangi Zelandiya mulki)	0,237	20,0	Avarua
7	Marshall orollari Respublikasi (AQSH	0,181	50,8	

	bilan erkin uyushgan)			-
8	Mikroneziya Federativ shtatlari (AQSH bilan erkin uyushgan)	0,7	133,1	Pamshir
9	Nauru Respublikasi	0,021	11,8	-
10	Niue (Yangi Zelandiya mulki)	0,262	2,08	Alofi
11	Norfolk (Avstraliya mulki)	0,34	2,21	Kingston
12	Palau Respublikasi (AQSH bilan erkin uyushgan)	0,508	18,7	Koror
13	Papua-Yangi Gvineya	462,8	4900	Port-Morsbi
14	Pitkern (Buyuk Britaniya mulki)	0,035	0,058	Alamstaun
15	Samoa	2,8	179,4	Apia
16	Solomon orollari	27,6	466,1	Xoniara
17	Tokelau (Yangi Zelandiya)	10,12	1,5	Tokelau
18	Tonga Qirolligi	0,748	102,3	Nukualofa
19	Tuvalu	0,026	10,8	-
20	Uollis va Futuna orollari (Fransiya mulki)	0,274	15,2	Mata-Utu
21	Fiji Orollari Respublikasi	18,4	832,4	Suva
22	Fransiya Pleneziyasi	4,2	249,1	Papaete
23	Shimoliy Mariana orollari (AQSH bilan erkin birlashgan)	0,457	69,3	—
24	Yangi Zelandiya	270,5	3700	Vellington
25	Yangi Kaledoniya	19,01	201,8	Numea

JAHON MAMLUKATLARI




ISO JABBOROV


JAHON ETNOLOGIYASI ASOSLARI




АВСТРАЛИЯ и ОКЕАНИЯ, ЭТНОГРАФИЧЕСКАЯ КАРТА









E`TIBORINGIZ

UCHUN

RAHMAT!!!